

ISSN:3030-3869



O'zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi
Badiiy ta'lim yo'nalishlarida pedagog va
mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda
ularning malakasini oshirish markazi

BADIY TA'LIM VA PEDAGOGIKA

4
///////
2024

BADIIY TA'LIM VA PEDAGOGIKA

O'zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ta'lim yo'nalishlarida
pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning
malakasini oshirish markazi ilmiy jurnali

BOSH MUHARRIR:

Davronbek SHUKUROV

TAHRIR HAY'ATI

Kamola AKILOVA

*san'atshunoslik fanlari doktori,
professor*

Sobir RAHMETOV

professor

Komiljon GULYAMOV

pedagogika fanlari doktori (DSc)

Rustam XUDOYBERGANOV

professor

Dilafroz QODIROVA

san'atshunoslik fanlari doktori, professor

Muhayyo JUMANIYOZOVA

*san'atshunoslik fanlari falsafa doktori
(PhD), dotsent*

Munisa MUHAMEDOVA

*tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
professor*

Dilzoda ALIMKULOVA

*san'atshunoslik fanlari falsafa doktori
(PhD), dotsent*

Nigora KULTASHEVA

san'atshunoslik fanlari falsafa doktori (PhD)

Gulira'no ORIFJONOVA

san'atshunoslik fanlari falsafa doktori (PhD)

Surayyo ALIYEVA

san'atshunoslik fanlari doktori (DSc)

Muzaffarjon JO'RAYEV

pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)

Xolmuhammad AMONOV

pedagogika fanlari doktori (DSc)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan 2024-yil 27-martda
246479-raqami bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili:

Toshkent - Uchtepa tumani, Shirin ko'chasi 1-a uy

Tel: (77) 3633836

www.uzbamarkaz.uz

e-mail: uzbahuzuridagimarkaz@gmail.com

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Nodira XASANOVA

JAMOATCHILIK KENGASHI

Akmal NURIDINOV

professor

Rustam XUDOYBERGANOV

professor

Feruza ABIDJANOVA

falsafa fanlari nomzodi

Gulabza QARSHIYEVA

filologiya fanlari nomzodi

Binafsha NODIR

san'atshunoslik fanlari falsafa doktori (PhD)

Dilnoza JAMOLITDINOVA

filologiya fanlari doktori, professor

Botir SANGIROV

san'atshunoslik fanlari falsafa

doktori (PhD)

Jang Tae Mook

(Janubiy Koreya) professor

Kavita Daryani Rao

(Hindiston) professor

Natik Aliyev

(Ozarbayjon) professor

SAHIFALOVCHI:

Sardor MAMALATIFOV

**Jurnal bir yilda to'rt marotaba nashr
etiladi**

OAK Rayosatining 2024-yil 7-iyuldagi 355/5-son
qarori bilan san'atshunoslik hamda pedagogika
fanlari bo'yicha dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.



MUNDARIJA

Davron Shukurov	
Badiiy ta'limda, pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish markazining o'rni va faoliyati.....	4
Nodira Xasanova	
Mustaqillik davri O'zbekiston haykaltaroshlik san'ati va uning muammolari.....	10
Shahnozaxon Asqarova	
O'qish savodxonligini baholashda yangicha yondashuvlar: ePIRLS va Digital PIRLS.....	16
Muqaddas Axmedjanova	
O'zbek teatr san'atining ommaviylashish bosqichlari.....	21
Bosit Umarxodjayev	
Muzeylar va milliy o'zlikni anglash.....	29
Davlat Mullajanov	
Вопрос о национальной интонации в узбекской музыкальной эстраде.....	34
Muhayyo Muxtorova	
O'zbek kinokomediyalarida folklor an'analar.....	40
Feruza Kobilova	
Zamonaviy ssenografiya masalalari va spektakllarda rassomning o'rni.....	44
Nigoraxon Raxmatullayeva	
O'rol Tansiqboyev uy-muzeyi faoliyatining zamonaviy rivojlanish aspektlari.....	51
Gulchexra Avezova-Alimova	
Markaziy Osiyo xududida ilk o'rta asr liboslari rivojlanishi.....	58
Artiqbay Yerejepov	
Baxshichilik san'atining milliy musiqada tutgan o'rni, tushunchasi va shakllanishi.....	63
Dilobar Abdullayeva	
Advantages of pedagogical processes in electronic production.....	68
Saburjan Ibadullayev	
Umumta'lim maktablari o'quvchilarining tasviriy san'at darslarida ijodiy mustaqilligini rivojlantirish.....	74
Mahbuba Ikromova	
Ta'lim sifatini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati.....	80
Mahmud Ravshanov	
Aqliy tarbiyaning shakllanish omillari.....	86
Rustam Xudayberganov	
Zamonaviy o'qituvchi faoliyatining muhim qirralari.....	90
Ma'suddin Salaxiddinov	
Zamonaviy sanoat va interyer dizaynida badiiy yechim masalasi.....	94

Murodjon Temirov	
Bo‘lajak o‘qituvchining badiiy did va estetik tafakkurni shakllantirishda kasbiy tayyorgarlikning ahamiyati.....	100
Mayra Xaydarova	
Bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarini kasbiy kompetentligini mustaqil ta‘lim texnologiyalari orqali rivojlantirishda adaptativ ta‘limning o‘rni.....	108
Gulhayo Xodiyeva	
Boshlang‘ich ta‘limda 4K modeli kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik o‘yinlarning didaktik imkoniyatlari.....	120
Raxim Saparov	
Bolalar musiqa va san‘at maktablarida boshlang‘ich ta‘lim.....	129
Sabohat Xaytmatova	
Современные киноинтерпретации образов исторических личностей просветительского движения начала XX века.....	134
Bobir Ibragimov	
Nota muharrir dasturlari va ularning turlari.....	141
Nilufar Karimova	
Raqamli ta‘lim texnologiyalari vositasida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari.....	146
Latofat Jabbarova	
Zamonaviy muzey arxitekturasi va landshaft dizayni integratsiyasi (“G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasi asosida).....	155
Rinat Biktimirov	
Формирование профессиональных объединений художников Узбекистана 1920-1930 годов.....	162
Munisa Muxamedova	
XX asrning oxirlarida muzeylar faoliyatining o‘rganilishi (O‘zbekiston milliy arxividagi O‘zbekiston muzeylarining 1980-1991-yillarga oid saqlanayotgan hujjatlar tahlili asosida).....	170
Gulchehra Mufti-zade Anvarovna	
Sahnada ramziy ifoda vositalar va obrazli yechim.....	179
Allanov Ayapbergen	
Jas áwlad sanasin rawajlandiriwda muzika pániniń orni.....	185
Ma‘mur Umarov	
Akademik ustoz.....	190

**BADIIY TA'LIMDA, PEDAGOG VA MUTAXASSIS KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH HAMDA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH
MARKAZINING O'RNI VA FAOLIYATI**

**РОЛЬ И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ЦЕНТРА ПЕРЕПОДГОТОВКИ И
ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛА ПЕДАГОГИ И СПЕЦИАЛИСТОВ
ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**THE ROLE AND ACTIVITY OF THE CENTER FOR RE-TRAINING AND
PROFESSIONAL IMPROVEMENT OF TEACHERS AND SPECIALISTS IN
ART EDUCATION**

Davronbek Shukurov

O'zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi
Badiiy ta'lim yo'nalishlarida pedagog va mutaxassis
kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning
malakasini oshirish markazi direktori

***Annotatsiya:** Badiiy ta'lim O'zBA huzuridagi markaz, 2021-yildan buyon faoliyat olib bormoqda. Qisqa vaqt davomida markaz o'z faoliyatini yo'lga qo'yib, yuzlab pedagoglarni malaka oshirish kurslarida, eng kuchli professor ustozlar bilan hamkorlikda bilim va ko'nikmalarini oshirishga ulgurdi. Xalqaro hamkorliklar yo'lga qo'yildi, xorijiy nufuzli universitetlar professor-ustozlari tomonidan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar tashkil etildi. Maqolada ushbu faoliyati batafsil yoritilgan.*

***Аннотация:** : Центр художественного образования при УзБА работает с 2021 года. За короткий период времени центр наладил свою деятельность и сумел повысить знания и навыки сотен педагогов на курсах повышения квалификации, в сотрудничестве с самыми влиятельными профессорами и преподавателями. Было налажено международное сотрудничество, организованы лекции и практические занятия профессорами престижных зарубежных университетов. Подробно эта деятельность рассмотрена в статье.*

***Annotation:** The center of artistic education under the UzBA has been operating since 2021. In a short period of time, the center established its activities and managed to improve the knowledge and skills of hundreds of pedagogues in training courses, in cooperation with the most powerful professors and teachers. International cooperation was established, lectures and practical trainings were organized by professors of prestigious foreign universities. This activity is covered in detail in the article.*

***Kalit so'zlar:** Badiiy ta'lim, pedagogika, rassom, malaka oshirish, qayta tayyorlov, xalqaro hamkorlik, rassom*

***Ключевые слова:** Художественное образование, педагогика, художник, повышение квалификации, переподготовка, международное сотрудничество, художник.*

Key words: Art education, pedagogy, artist, professional development, retraining, international cooperation, artist.

O‘zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ta‘lim yo‘nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish markazi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tasviriy va amaliy san‘at sohasi samaradorlini anada oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 21-apreldagi PQ-4688-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ta‘lim yo‘nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 21-iyundagi 385-son qarori asosida tashkil etilgan.

Markaz davlat oliy va professional ta‘lim muassasalari, ixtisoslashtirilgan san‘at va madaniyat maktablari hamda maktab-internatlar, bolalar musiqa va san‘at maktablarining badiiy ta‘lim yo‘nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarini qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishga ixtisoslashtirilgan ilmiy-metodik va davlat ta‘lim muassasasi hisoblanadi.

Markazda 7 ta badiiy ta‘lim yo‘nalishlarida malaka oshirish hamda 6 ta qayta tayyorlash yo‘nalishlari mavjud bo‘lib, bugungi kunga qadar 1.500 ga yaqin professor-o‘qituvchilar zamonaviy ta‘lim dasturlari, ilmiy-ijodiy hamda pedagogik texnologiyalar asosida malaka oshirgan bo‘lsa, 300 ga yaqin professor-o‘qituvchilar kasbiy qayta tayyorlash kurslarida tahsil olib ixtisoslashgan san‘at maktab-internatlarida va bolalar musiqa va san‘at maktablarida o‘z faoliyatini muvaffaqiyatli olib bormoqdalar.



Shuningdek, badiiy ta‘lim sohasida faoliyat olib borayotgan mutaxassis xodimlar uchun qisqa kurslar ham tashkil etilgan bo‘lib, ushbu kurslarda boshqaruv menedjmenti, liderlik sifatlari, o‘quv jarayonini tahkil etish, yoshlarni ijodiy, kasbiy va ma‘naviy-ma‘rifiy iqtidorlarini ro‘yobga chiqarish kabi bir qancha muhim jihatlar bo‘yicha qisqa tayyorgarlikdan o‘tkazildi.


O‘zbek tasviriy va amaliy san‘ati, dizayn, san‘atshunoslik va muzeyshunoslik sohalarida ta‘lim sifatini oshirish, ilmiy va ijodiy salohiyatni yuksaltirish borasida bir qancha chora tadbirlarni amalga oshirib kelmoqdamiz. Xususan,

- malaka oshirish va qayta tayyorlash ta‘lim dasturlari Milliy malaka ramkasi hamda Respublika va xorijiy ta‘lim standartlari asosida ishlab chiqilib amaliyotga tadbiiq etildi;

- Badiiy ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha 9 nomdagi darsliklar tayyorlanib nashrga berildi;

- professor-o‘qituvchilarning ilmiy faoliyatiga ko‘maklashish maqsadida Markaz huzurida “Badiiy ta‘lim va pedagogika” ilmiy jurnali ta‘sis etildi hamda Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan pedagogika va san‘atshunoslik fanlari bo‘yicha

dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritildi.



Faoliyatimiz davomida dunyoning bir qancha davlatlarida faoliyat yuritayotgan Badiiy ta'lim sohasini o'z ichiga olgan akademiya hamda oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatdik. Jumladan, Hindistonning Javoharlal Neru arxitektura va tasviriy san'at universiteti, Koreya Respublikasining Keimyung universiteti huzuridagi tasviriy san'at kolleji, Ozarbayjon Davlat Rassomlik akademiyasi, Italiyaning San'at va restavratsiya instituti, Temirbek Jurgenov nomidagi Qozog'iston Milliy san'at akademiyasi bilan hamkorliklar yo'lga qo'yildi.

2024-yilgi faoliyatimiz davomida dunyoning bir qancha davlatlaridagi san'at sohasida faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini o'rnatilib, memorandumlar imzolandi. Jumladan, Rossiyaning Shtiglitsa nomidagi Sankt-Peterburg davlat san'at va sanoat akademiyasi, Turkiyaning Erzinjan Binali Yildirim universiteti, Belorusiya Davlat

San'at akademiyasi, Batumi san'at ta'limi universiteti, Toraygirov Universiteti kabi ta'lim muassasalari bilan memorandumlar imzolandi hamda memorandum doirasida madaniyat va san'at ta'limi sohalarini rivojlantirish, xususan, xalqaro konferensiyalar, seminarlar, ko'rgazmalar va loyihalarni amalga oshirish, pedagog va xodimlarning xalqaro akademik almashinuvini tashkil etish, qo'shma ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish kabi masalalar kelishildi, kelishuv doirasida bir qancha ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Hamkorliklar doirasida joriy yilning aprel oyida "Kompozitsiyada uslub va badiiy tahlil" moduli bo'yicha Markaz tinglovchilari uchun Koreyaning Keimyung universiteti professorlari Jang Tae Mook hamda Yun Hee Kim ishtirokida amaliy mashg'ulot tashkil etildi;

Bundan tashqari, 2024-yilning aprel oyida Temirbek Jurgenov nomidagi Qozog'iston Milliy san'at akademiyasi hodimlari uchun "Rangtasvir" yo'nalishi bo'yicha malaka oshirish kurslari tashkil etildi. Ushbu malaka oshirish kursini 8 nafar o'qituvchilar muvaffaqiyatli tamomladi.

2024-yilning sentabr oyida Gruziyaning Batumi san'at ta'limi universitetida "Rangtasvir simfoniyasi" nomli ko'rgazma tashkil etildi hamda "O'zbekiston zamonaviy san'ati" nomli seminar o'tkazildi. O'zbekiston Badiiy Akademiyasi huzuridagi markaz va Gruziyaning Batumi shahrida joylashgan "Batumi Art Teaching University" o'rtasida o'zaro hamkorlik aloqalari o'rnatildi. O'zBA huzuridagi markaz direktori Davronbek Shukurov va Batumi San'at ta'limi Universiteti rektori Teimuraz Kejeradze tomonidan imzolangan memarondumdan ko'zlangan

maqsad tomonlar madaniyat va san'at ta'limi sohalarini rivojlantirishdir, xususan: - tomonlarning pedagog va xodimlarining xalqaro akademik almashinuvini tashkil etish; - qo'shma ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish; - xalqaro konferensiyalar, seminarlar, ko'rgazmalar va loyihalarni amalga oshirishdir. Gruziyaga bo'lgan xizmat safari davomida Batumi Art Teaching Universityda "Rangtasvir simfoniyasi" nomli ko'rgazma tashkil etildi. Ushbu ko'rgazmada o'zbek zamonaviy rangtasvir asarlaridan namunalar, milliy amaliy san'at namunalari, milliy ornamentlar tushirilgan kostyumlar o'rin egallagan. Ko'rgazma, O'zBA huzuridagi markaz direktori, Batumi San'at ta'limi Universiteti rektori Teimuraz Kejeradze va professor o'qituvchilar ishtirokida ochib berildi. Milliy tasviriy va amaliy san'at namunalari tashrif buyurgan mehmonlar tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilindi. Shuningdek tashrif doirasida, Batumi Art Teaching University professor ustozlari va talabalari uchun "O'zbekiston zamonaviy san'ati" nomli seminar tashkil etilib, yurtimiz rangtasviri, haykaltaroshligi va an'anaviy tashkil etilayotgan san'at tadbirlari haqida ma'ruza qilindi. Shu kabi tadbirlar va o'zaro hamkorlik masalalari zamonaviy san'atimiz rivoji, undagi muammoli masalalar yechimi, yangiliklar va tajriba almashinuviga munosib xizmat qiladi.



2024-yilning oktabr oyida esa Hindistonning Javaharlal Neru arxitektura va tasviriy san'at universiteti dotsenti Priti Samyukta hamda Rossiyaning Shtiglitsa nomidagi Sankt-Peterburg davlat san'at va sanoat akademiyasi dotsenti Aresniy Alekseevich Kiselev bilan Markazning Dizayn yo'nalishi tinglovchilari uchun "Janubiy Hindiston san'ati va rassomlari" va "Sanoat dizayni" mavzularida onlayn seminar tashkil etildi.

Markazda malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim jarayoni "Ustozshogird" an'analari asosida tashkil etilgan bo'lib, sohaning yetakchi mutaxassisleri – professorlar, san'at arboblari, xalq rassomlari, akademiklar dars mashg'ulotlariga jalb etilmoqda.

Jonkuyar ustozlarimiz, bugungi o'zbek tasviriy san'ati nomoyondalarining mehnati samarasi o'laroq "Ranglardagi hayot" nomli ko'rgazmasi tashkil etildi. Ushbu ko'rgazma Markazda o'z bilimlarini tinglovchilarga ulashayotgan professor o'qituvchilarning hamda "Rangtasvir (turlari bo'yicha)" yo'nalishi qayta tayyorlash kursini muvaffaqiyatli tamomlagan tinglovchilarning san'at asarlaridan tashkil topdi.

Ta'limni amaliyot bilan bog'lash, bevosita egallagan bilim, malaka va ko'nikmalarni ijodiy va kasbiy faoliyatda qo'llashni rag'batlantirish maqsadida ko'chma dars mashg'ulotlari sohaning yetakchi muassasa va tashkilotlarida, shaxsiy ustaxonalar, galereyalar, muzeylar, ilmiy tadqiqot institutlarida tashkil etib kelinmoqda. Bu borada tashkilot va muassasalar bilan o'zaro hamkorliklar o'rnatilgan.

Pedagoglarning bilimini baholashda yakuniy attestatsiya komissiyasi tomonidan nafaqat ilmiy va kasbiy faoliyati, balki ijodiy salohiyati ham tahlil etiladi. Bitiruv malakaviy ishi

himoyasi hisobot-ko'rgazma shaklida o'tkaziladi va har bir tinglovchining ijodiy va kasbiy mahorati ular yaratgan kompozitsion asar orqali individual muhokamaga qo'yiladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda Badiiy ta'limni rivojlantirish, shu sohada ilm olayotgan talabalarga dars berayotgan ustozlar tajribalarini oshirish, xalqaro ta'lim standartlarini o'zimizda

joriy etish, qayta tayyorlash faoliyatini tashkil etish kabi jarayonlarda, O'zBA huzuridagi Badiiy ta'lim yo'nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish markazining faoliyati ahamiyatli. Kelgusida Markaz faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan maqsad va rejalar ishlab chiqilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 avgustdagi “O‘zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3219-son qarori // Xalq so‘zi, 2017 yil 17 avgust.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 maydagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-3022-son qarori // Xalq so‘zi, 2017 yil 1 iyun.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26- avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3920-son qarori // Xalq so‘zi, 2018 yil 27 avgust.

**MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEKISTON HAYKALTAROSHLIK SAN’ATI VA
UNING MUAMMOLARI**
**УЗБЕКИСТАНСКАЯ СКУЛЬПТУРА И ЕЕ ПРОБЛЕМЫ В ПЕРИОД
НЕЗАВИСИМОСТИ**
**UZBEKISTAN SCULPTURE AND ITS PROBLEMS IN THE PERIOD OF
INDEPENDENCE**

Nodira Xasanova

Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti
1-bosqich mustaqil tadqiqotchisi(PhD)

***Annotatsiya:** Mustaqillik yillarida Sobiq tuzumdagi chegaralardan halos bo‘lgan ijodkorlar erkinlik va kayfiyat bilan o‘z asarlarini yozishga kirishdilar. Dastgohli haykaltaroshlikka qaraganda birmuncha mahobatli haykaltaroshlik san’ati gullab yashnadi. Yaratilayotgan sharoit va imkoniyatlardan kelib chiqib ishlanayotgan har bir asar shaharlar va xiyobonlar ko‘rkiga husn bag‘ishlab kelmoqda. Quyida ushbu san’at rivoji va undagi muammolar haqida so‘z boradi.*

***Аннотация:** В годы независимости художники, практически освободившиеся от границ прежнего режима, стали писать свои произведения свободно и с настроением. По сравнению со станковой скульптурой искусство скульптуры процветало. Каждая работа, исходя из созданных условий и возможностей, несёт красоту в города и проспекты. Ниже мы поговорим о развитии этого искусства и его проблемах.*

***Annotation:** During the years of independence, artists who were almost free from the borders of the former regime began to write their works with freedom and mood. Compared to easel sculpture, the art of sculpture flourished. Based on the created conditions and opportunities, each work is bringing beauty to the cities and avenues. Below we will talk about the development of this art and its problems.*

***Kalit so‘zlar:** Haykaltaroshlik, mahobatli haykaltaroshlik, plastika, tarixiy shaxslar portretlari, R.Mirtojiyev, D.Ro‘ziboyev, Y.Safardiyor.*

***Ключевые слова:** Скульптура, величественная скульптура, пластика, портреты исторических деятелей, Р. Миртоджиев, Д. Розибоев, Ю. Сафардиер.*

***Key words:** Sculpture, majestic sculpture, plastic, portraits of historical figures, R. Mirtojiyev, D. Roziboyev, Y. Safardiyor.*

Mustaqillik davri haykaltaroshlik san’atida ko‘p asrlik noyob badiiy, milliy hamda xorijiy an’analar mujassamdir. Uni bugungi kunda turli avlod rassomlari har xil ijodiy uslubiy yo‘nalishlarda akademik

realizm, avangard, postmodernizmda namoyish etmoqdalar. Ba’zi rassomlar mahobatli haykaltaroshlikda ishlashni ma’qul ko‘radilar, boshqalari samarali

izlanishlarini dastgohli plastikada uyg'unlashtiradilar[1].

Tasviriy san'atning boshqa turlari kabi haykaltaroshlik ham alohida holda taraqqiy etolmaydi. U doimiy ravishda turli g'oyalar konsepsiyalar, texnologiyalar va uslubiy yo'nalishlar bilan o'zaro almashinuvni, zamonaviy tamoyillar bilan yaqindan tanish bo'lishni talab qiladi. Qolaversa, haykaltaroshlik uzoq vaqtdan buyon "zamonaviy yondashuvni shakl orqali ochib berishning o'ziga xos vositasi bo'lib kelmoqda. Zamonaviy haykaltaroshlar shakl orqali dolzarb ahamiyatga ega tushuncha va g'oyalarni ifoda etishga, teran ma'nolarni topishga intiladi va kamdan kam hollarda insonning realistik tasviriga murojaat qiladi. Inson tafakkuri borliq qonuniyatlarini tobora chuqur anglab bormoqda. XXI asr haykaltaroshlari e'tiborni shaklning ichki mazmuniga qaratmoqda." [2].

J. Quttimurotov, D. Toreniyazov, A. Xatamov, T. Tojixo'jaev, Q. Norxo'rozov, M. Ablakulov, U. O'roqov, B. Hakimov, R. Abdug'aniyevlarning ijodiy izlanishlarida nafis Sharq san'atining nazmiy uslubiyati seziladi. Ularning ishlari Sharq go'zallari va donishmandlariga bag'ishlanadi hamda, inson ruhining turli psixologik holatlarida: meditatsiya, yaratuvchanlik, ruhiy yuksalish, oshiqlik, ruhiy hayqiriq va boshqalarni ko'rsatadi. Ularning obraz yechimlarida assotsiativ-metaforik yondashuv ustunlik qiladi, ularni tomoshabin his etishda faollik bilan idrok etishni belgilab beradi[3]. Navbatda O'zbekiston haykaltaroshlik san'ati rivojiga sezilarli xissa qo'shgan haykaltaroshlar ijodini yoritamiz:

O'zbekiston xalq rassomi, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi", Bobur nomidagi xalqaro mukofot laureati, O'zbekiston

Badiiy akademiyasi a'zosi Ravshan (Jaloliddin) Mirtojiev tasvirlanuvchining o'tmish hayotida muhim o'rin egallaydigan lavhalar hamohangligida ijod qildi. Badiiy ifoda yo'llaridan aniq foydalanib, kompozitsion tuzilishda milliy yondashuvni faoliyat ustuni deb bildi.

Ijodkor 1972-yil P.P.Benkov nomidagi Respublika rassomchilik bilim yurtining haykaltaroshlik bo'limini F.I.Grishenko sinfida bitirgach, 1977-yil A.Ostrovskiy nomidagi Toshkent teatr-rassomchilik institutini yakunlaydi. Uning sermahsul ijod namunalari orasida — Toshkentdagi Abdulla Qodiriy, G'ofur G'ulom, Zulfiya, Oybek, Beruniy, Said Ahmad va Saida Zunnunova haykallari, Andijondagi Bobur va Cho'lpon, Samarqanddagi Ro'dakiy va Mirzo Ulug'bek, Buxorodagi Fitrat, G'azalkentdagi Elbek, poytaxtimizdagi "Vatanga qasamyod" haykali, Jizzax, Andijon va Farg'onadagi "Motamsaro ona" haykallarini aytish mumkin. Shuningdek, haykaltarosh R.Mirtojiev ijod namunalari nafaqat yurtimizda balki, jahonning bir qator poytaxtlarida o'rnatilgan, bular: Moskvadagi Ulug'bek va Navoiy, Rigadagi Ulug'bek va Ibn Sino, Baku va Tokiodagi Navoiy, Xitoydagi Kamoliddin Behzod haykallaridir. Navoiy haykalining modeli AQShning Vashington Kutubxona Kongressidan joy olgan.

O'zbek haykaltaroshligida avangard yo'nalishi ham rivojlanib bormoqda. Marina Borodina, Robert Avakyan, Bayat Muxtorov, Vasiliy Popov, Albert Ovsepyan, Abdug'affor Isonaliyev, Qurbon Norxo'rozov kabilar ijodiga yangi ifodaviy vositalarni izlash, noan'anaviy materiallar bilan ishlash, obraz mohiyatini o'ta shartli talqin etish, obrazlar ifodasidagi muloyim kulgiga xos bo'lgan folklyor o'zbek klassikasi

taraqqiyotidagi muhim va qiziqarli yo'nalishdir. Bu yo'nalishni buxorolik ijodkorlar Qurbon Noxo'rov, Ulash O'roqov, Bahrom Gulov, toshkentlik rassom Gulzor Sultonova kabilar rivojlantirmoqdalar. Qoraqalpoq rassomi Jo'ldosbek Quttimurodov O'zbekistonning o'ziga xos haykaltaroshlarida biri xisoblanadi. U ko'p qirrali va ajoyib rassomdir, uning ijodi ildzilari xalq san'atiga borib taqalsada, zamon ohanglarini ham nozik his qiladi[4].

Ijodiy ma'naviyatning mustahkamlashuvi, avangard uslubidagi tajribalar me'morlik bilan uyg'unlikka erishishga bo'lgan intilish, plastikada konstruktiv arxitektonikaning qo'llanilishi Damir Ro'ziboyevning ijodiga xosdir. Bu rassom ijodidagi milliy, tarixiy-madaniy meros nazmi borasidagi bilimi O'zbekiston zamonaviy haykaltaroshligida badiiy - uslubiy yo'nalishga aylandi. An'anaviy Sharq nazmi sezilgan ishlari bugungi kunda O'zbekiston zamonaviy haykaltaroshligida betakror davr tashkil etgan. Ijodkor yaratgan asarlar o'ziga xos kompozitsion va ranglar yechimiga ega va ular ijodkorning izchil izlanishlari mahsulidir. Ularning yuzaga kelishini rassom Damir Ro'ziboyevning o'zi shunday ta'riflaydi: "Bir kuni O'zbekiston davlat san'at muzeyida saqlanayotgan daftarchalar- an'anaviy bezaklarni o'rgatishga mo'ljallangan, uning boshidan oxirigacha barcha bosqichlarini o'z ichiga olgan XIV-XVI asrga oid buklanadigan daftarlar e'tiborini tortdi. Aynan ana shu, endi boshlangan, hali tugallanmagan girihlar, ayniqsa, qiziqarli bo'lib chiqdi. Ular menga mutlaqo zamonaviy tovush grafikasi sifatida ko'rindi. Men o'zim uchun girih va islimiyning yangicha ajoyib olamini kashf etdim. Masalan, daftarchaning bosh

sahifalaridan birida mutanosib tarzda topilgan va ajoyib tartibga solingan ikkita egilgan chiziqlar tortilgan. Undagi soddalik menda taassurot qoldirdi. Ularga qarab Malevich va Popovaning ishlari yodimga tushdi.

Ma'lumki, qadimiy haykaltaroshlik rangli bo'lgan, biroq afsuski, aksariyat haykallarning rangi saqlanib qolmagan. Men O'zIESK da G.A.Pugachenkova boshchiligidagi Xolchayon rangli haykallari qazishma ishlarida qatashganimdan bahtiyorman va bu mening hayotimga ta'sir ko'rsatmay qolmagan. Taqddiqotlar men uchun nafaqat ish, balki katta maktab edi. Hanuzgacha ko'z o'ngimda turli obrazlarning ta'sirchan va o'ziga xos portretlar bo'lib, ularda men zamondoshlarimni ko'rganman.

Men bu yangi hayot yo'lida quvonch va qoniqish hosil qilaman. Bu yerda, an'anaviy me'morchilik bezaklarida bo'lgani kabi badiiy yechimlarning cheksiz imkoniyatlari bor. Biroq, naqshdan farqli o'laroq, o'z chiziqlarimni erkin talqin qilib, boshqacha chizaman." Haykaltarosh o'zining noodatiy zamonaviy asarlari bilan ajralib turadi. "Chiziqlar ohangi" nomli shaxsiy ko'rgazmasida namoyish etilgan qator asarlarida shisha, metall kabi ashyolardan foydalangan. Damir Ro'ziboyev Bugungi kun zamonaviy haykaltaroshligining o'z o'zrniga ega ijodkorlaridan biri sanaladi.

Tarixiy siymolar obrazi va talqini o'zining murakkab karakteri, kuchli tarixiy bilim talab etishi shu bilan birgalikda obrazlar plastikasi, qiyofasini asosli ravishda yarata olish ijodkordan ilm, mahorat va mashaqqatli mehnat talab etadi. Tarixiy obrazlar talqini doimo global mavzulardan sanaladi. Har bir yaratilayotgan asarlar ko'plab munozaralarga, qizg'in qarashlarga, yosh

qalam egalari uchun munosib mavzuga aylanmay qolmaydi. 2022- yilning 27-sentyabr kuni tarixiy siymo- shox va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning 1991-yilda Yunus Safardiyor tomonidan bronzadan ishlangan haykali O'zbekiston Temuriylar tarixi davlat muzeyiga ijodkorning shaxsan o'zi tomonidan topshirish marosimi bo'lib o'tdi. Taqdimotga taklif etilgan san'atshunos, rassom va haykaltaroshlarga ijodkor ijod yo'li va u ishlagan Bobur obrazi kata qiziqish va yangiliklar tug'dirdi. 1968-yilda ko'hna Samarqand bag'rida ziyoli ijodkorlar oilasida dunyoga kelgan bo'lg'usi ijodkor Yunus Yormuhamedov yoshligidanoq san'atga mehr qo'yadi. 13 yoshida Toshkentdagi iqtidorli bolalar Respublika badiiy maktab- internatiga o'qishga qabul qilinadi. Kelgusi hayoti san'at bilan uzviy bog'liqligini anglagan rassom 1984- yilda Sankt-Peterburgdagi I.Repin nomidagi davlat rassomlik, haykaltaroshlik va arxitektura akademiyasida o'qishni davom ettiradi. O.Komov, M.Anikushin singari tajribali ustozlar qo'lida uning ijodi mazmun va texnik jihatdan charxlanadi. Bu bilimlarning natijasi o'laroq Y.Safardiyor 1985-yilda sobiq ittifoq Badiiy Akademiyasining oltin medaliga sazovor bo'ladi. 1993-yilda I.Repin nomidagi davlat Badiiy Akademiyasini haykaltaroshlik yo'nalishini oltin medal bilan tamomlab, shu yilning o'zidayoq Londonga ko'chib o'tadi. Shundan buyon Buyuk Britaniyada yashab ijod qilayotgan haykaltarosh AQSH, Rossiya va Buyuk Britaniya kabi davlatlar buyurtmalari asosida akademik va zamonaviy talqindagi asarlar yaratib kelmoqda. Shu bilan birgalikda ko'plab xalqaro ko'rgazmalarda ham munosib ishtirok etib kelayotgan haykaltarosh o'zini ijod erkinligiga bag'ishlab noodatiy uslublarda modernizm yo'nalishlarida

bronza, mis, kumush, yog'och, tosh kabi materiallarga yangi hayot bag'ishlamoqda. O'zining shaxsiy ko'rgazmalarida esa yangi murakkab texnik usullardan va klassik an'analardan foydalanib, tomoshabinlarga tarixiy, mifologik, zamonaviy va portret uslubidagi asarlarini namoyish etadi.

Akademik ta'limni yuqori darajada egallangani, rassomning Zahiriddin Muhammad Bobur haykalini tugal, murakkab va mayda detallargacha inobatga olib ishlaganida namoyon bo'ladi. Asarning o'ziga xos jihati shundaki, ko'plab ijodkorlar Boburni shoir timsolida nozik tuyg'ular va ilhom qurshovidagi holatini nafislik bilan ishlagan. Safardiyor esa uning boshqa jihatini. ya'ni, shiddatli jangchi sifatida ifodalashni ma'qul ko'rgan. Va uning uddasidan chiqqan. O'tkir nigoh, olov va jasorat to'la ko'zlar, sarkardalarga xos shiddat- temir sovut kiygan ot ustida o'tirgan qo'mondonga tegishli. Bir qarashda mo'g'ul jangchilarini eslatuvchi obraz Chingizxonni eslatadi. Ya'ni haykaltarosh oldiga qo'ygan maqsadni uddasidan chiqqan, haqiqiy sarkardaning harakterini namoyish etgan. Qahramonni ot ustida jang qilayotgan holati ifodalangan. Hukmdorlarga hos dubulg'a, shoxona sovut va unga o'rnatilgan to'pponcha, shamshir ham mayda detallargacha tugal ishlangan. Sarkarda bir qo'lida xanjar yalang'ochlagan holda ikkinchi qo'li bilan otning jilovini boshqarmoqda. Sovutida arabiy xarflar bilan bezak berilgan, yelkasiga esa arslon terisi yopilgan. Shiddat va besaronjon egarlangan otga ham temir sovut yopilgan. Undagi to'qilgan har bir zanjir aniq o'yib chiqilgani taqsiinga sazovor. Asar eng mayda bezaklarigacha mukammalligi va qimmatbaho bronza

materiali orqali quyilgani bois asar qiymati juda yuqori baholangan.

Ijodkor yozuviga mansub yana bir asar “Sibirning zabt etilishi” deb nomlanib, u Novosibirsk aeroportidan o‘rin egallagan. Asardagi qahramon ham otda o‘tirgan holatda, jang lahzasida ifodalangan. Asar boshdan oyoq kuch va shiddatga to‘laligi bilan e‘tibor tortadi. Shamol shiddatida dars ko‘tarilgan otda muvozanat saqlab hayqirayotgan jangchining yurak urishigacha asar qamrovida aks etgan. Bugungi kundagi realizmda ishlangan har bir haykallarda shunday hissiyot singdirilsa, uning ta‘sir doirasi ham keng bo‘lishiga yuqoridagi asarlar misolida amin bo‘ldik.

Yunus Safardiyorning serqirra ijodkorligi shundaki, u faqatgina klassik haykaltaroshlik va realizmga aloqador ijod bilan chegaralanib qolmay, balki, zamonaviy art obyekt va monumental haykaltaroshlik ishlari bilan shaxarlar dizayniga zamonaviy ko‘rinish baxsh etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, nozik plastik san‘ati, iqtidori va uni amaliy jihatdan yuksak mahorat ila yorita olgan o‘zbek ijodkori Yunus Safardiyorning har bir

asari kishiga hissiyot ulasha oladi. Afsuslanarli jihati esa, bu kabi nodir asarlar O‘zbekistonda emas, AQSH, Britaniya va Rossiya singari davlatlar kolleksiyalaridan o‘rin olgan. Bizda yetishib chiqayotgan yosh ijodkorlar ham tarixdagi har bir buyuk siymolarni o‘rganib chiqishsa va ularni yangi sifatlari bilan kashf eta olishsa yurtimizda ham shu kabi qimmatli asarlar ortib borar edi. Kuchli va tajribali iqtidor egalaridan esa texnik usullarni o‘rganish faqatgina ijobiy tomonga yo‘l ochib beradi. Shaxrimiz xiyobonlarida ham mana shunday zamonaviy haykaltaroshlik ishlarini ko‘rish istagidamiz. Bugungi kun haykaltaroshlik san‘atidagi muammo ham iste‘dodli ijodkorlar O‘zbekistonda emas, balki boshqa davlatlarda ijod etayotgani desak adashmaymiz. Yunus Safardiyor, Javlon Yormuhamedov kabi iqtidorli haykaltaroshlarga yaxshi e‘tibor va sharoit yaratilmagani bois ular hozir vatanida emas. Lekin ular shu yerda tug‘ilgan, tahsil olgan va rassom bo‘lib shakllangan. Ularni yosh avlodga ta‘lim berish uchun jalb qilish, foydali yechim bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston haykaltaroshligi katalogi (1991-2006) / O‘zbekiston Badiiy akademiyasi. – T.: OOO MEDIA LAND, 2006.
2. Akilova K. Samarqand xalqaro haykaltaroshlik simpoziumi: realizmdan postmodernizmgacha.../// San’at. 2022. №3. –B. 18-23;
3. O‘zbekiston haykaltaroshligi katalogi (1991-2006) / O‘zbekiston Badiiy akademiyasi. – T.: OOO MEDIA LAND, 2006
4. O‘zbekiston tasviriy san’ati \ albom\ Kirish maqolasi muallifi K.Akilova. Dizayner K.Kolovershina . Moskva. “Galart” 2013

**O‘QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASHDA YANGICHA YONDASHUVLAR:
ePIRLS VA DIGITAL PIRLS
ОЦЕНКА ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ: НОВЫЕ ПОДХОДЫ ePIRLS
И DIGITAL PIRLS
NEW APPROACHES TO ASSESSING READING LITERACY: ePIRLS AND
DIGITAL PIRLS**

Shahnozaxon Asqarova

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti 2-bosqich magistranti

***Annotatsiya:** Raqamli ta’lim muhitida o‘qish qobiliyatlarini baholash nafaqat o‘quvchilar bilim darajasini aniqlashni, balki ularning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi. ePIRLS va raqamli PIRLS 2021 dasturlari ta’lim sohasida innovatsion yondashuvlar bilan ajralib turadi. Ushbu maqola orqali biz ushbu dasturlarning mazmuni, ularning maqsadlari, hamda ta’lim jarayoniga olib kirgan yangiliklarini batafsil tahlil qilamiz.*

***Аннотация:** Оценка навыков чтения в цифровой образовательной среде включает не только определение уровня знаний учащихся, но и развитие их цифровых компетенций. Программы ePIRLS и цифровой PIRLS 2021 выделяются инновационными подходами в области образования. В данной статье мы подробно анализируем содержание этих программ, их цели, а также новшества, которые они привнесли в образовательный процесс.*

***Annotation:** In a digital learning environment, the assessment of reading skills not only determines the level of students’ knowledge but also includes the development of their digital competencies. The ePIRLS and digital PIRLS 2021 programs stand out for their innovative approaches in the field of education. Through this article, we will provide a detailed analysis of the content of these programs, their objectives, and the innovations they have introduced to the educational process.*

***Kalit so‘zlar:** ePIRLS, Digital PIRLS, raqamli savodxonlik, xalqaro baholash, ta’limda raqamli texnologiyalar, interaktiv o‘qish, ma’lumotlarni tahlil qilish, adaptiv baholash tizimi, raqamli madaniyat.*

***Ключевые слова:** ePIRLS, Digital PIRLS, цифровая грамотность, международная оценка, цифровые технологии в образовании, интерактивное чтение, анализ данных, адаптивная система оценки, цифровая культура.*

***Key words:** ePIRLS, Digital PIRLS, digital literacy, international assessment, digital technologies in education, interactive reading, data analysis, adaptive assessment system, digital culture.*

Bugungi globallashtirish davrida ta'lim sohasi tez sur'atlar bilan raqamli transformatsiyani boshdan kechirmoqda. Zamonaviy texnologiyalar rivoji natijasida o'quvchilarning o'qish savodxonligini yanada samarali baholash va rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'lmoqda. Xalqaro miqyosdagi PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) dasturi bu borada muhim ahamiyat kasb etib, uning kengaytirilgan shakllari - ePIRLS va raqamli PIRLS 2021, o'quvchilarning zamonaviy raqamli dunyodagi kompetensiyalarini aniqlashga qaratilgan.

Hozirgi kun ta'lim tizimida o'quvchilarning matn bilan ishlash qobiliyatlari muhim ahamiyatga ega. Ushbu qobiliyatlar kitob o'qish bilan cheklanib qolmay, balki raqamli platformalarda ma'lumotlarni izlash, qayta ishlash va tushunish kabi jarayonlarni ham qamrab oladi. Shu sababli, ta'lim jarayonida raqamli savodxonlikni oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi. ePIRLS va raqamli PIRLS dasturlari ushbu vazifani hal qilishda samarali vositalardan biridir.

ePIRLS va raqamli PIRLS dasturlarining afzalliklaridan biri shundaki, ular o'quvchilarga real hayot sharoitlariga yaqin bo'lgan topshiriqlarni bajarish imkoniyatini beradi. Bu esa nafaqat o'quvchilarning o'qish qobiliyatlarini aniqlashga, balki ularni mustaqil fikrlash va ma'lumotlar bilan ishlashga o'rgatishga xizmat qiladi. Ushbu dasturlar o'qituvchilar va ta'lim mutaxassislari uchun ham katta ahamiyatga ega, chunki ular ta'lim jarayonini tahlil qilish va yaxshilash uchun zamonaviy vositalar bilan ta'minlaydi.

Shuningdek, ushbu dasturlar xalqaro miqyosda ta'lim sifatini baholash va milliy ta'lim tizimlarining kuchli va

zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Bu esa mamlakatlar o'rtasida tajriba almashish va ta'lim jarayonini takomillashtirishga yordam beradi. ePIRLS va raqamli PIRLS ning asosiy maqsadi - o'quvchilarni kelajakda raqamli dunyoda muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan ta'minlashdir. Shuning uchun ushbu dasturlarni o'rganish va ulardan foydalanish bugungi kunda har qachongidan ham dolzarbdir.

ePIRLS (electronic PIRLS) dasturi 2016 yilda xalqaro miqyosda taqdim etilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi 4-sinf o'quvchilarining internet orqali o'qish va ma'lumot izlash qobiliyatlarini baholashdan iborat. An'anaviy PIRLSdan farqli o'laroq, ePIRLS o'quvchilarni raqamli vositalar yordamida o'qish jarayonini yanada samarali qilish uchun imkoniyat yaratadi. Bu dastur doirasida o'quvchilar o'qish jarayoni uchun kerakligi topshiriqlarni bajaradilar. Masalan, ular ilmiy maqolalarni o'qish, onlayn resurslardan ma'lumot izlash, ma'lumotlarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish kabi ko'nikmalarni amalda qo'llaydilar.

ePIRLSning o'ziga xosligi uning o'quvchilarga zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali o'qish va bilim olish qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon berishidir. Bu dastur o'quvchilarni real hayotdagi muammolarni hal qilishda kerak bo'ladigan usullar bilan ham tanishtiradi. ePIRLS orqali o'quvchilarning quyidagi jihatlari baholanadi:

1. Matnni tushunish qobiliyati: O'quvchilarning turli matnlarni o'qib, ularning asosiy mazmunini tushunish darajasi.

2. Ma'lumotlarni izlash va tahlil qilish: Internetda kerakli ma'lumotlarni

topish va ularni o‘zaro bog‘lash ko‘nikmasi.

3. Raqamli vositalardan foydalanish qobiliyati: O‘quvchilarning zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish va ulardan maqsadli foydalanish qobiliyati.

Bundan tashqari, ePIRLS dasturi o‘qituvchilar uchun ham qimmatli manbadir, chunki u o‘quvchilarning individual yondashuvlarini tahlil qilish va ularga mos pedagogik strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Dastur o‘quvchilarning nafaqat akademik bilimlarini, balki ularning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va kreativ yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishni ham maqsad qilgan.

Shunday qilib, ePIRLS zamonaviy ta‘lim jarayonida innovatsion yondashuvni ifodalaydi va o‘quvchilarning raqamli dunyoda muvaffaqiyatli bo‘lishlari uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Digital PIRLS 2021-yildan boshlab joriy etilgan bo‘lib, u ta‘limda raqamli texnologiyalarni yanada kengroq joriy etish vazifasini bajaradi. Ushbu dasturorqali o‘quvchilar interaktiv matnlar bilan ishlash, ya‘ni grafikalar, audio va video materiallar orqali kengaytirilgan matnlar bilan tanishish, bir nechta manbadan olingan ma‘lumotlarni tahlil qilish va ularni birlashtirish, raqamli qurilmalar va vositalardan samarali foydalanish qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkin bo‘ladi. Shuningdek, dastur orqali o‘quvchilarning savollarga tezkor javob berish va xulosalar chiqarish qobiliyatlari baholanadi. Digital PIRLS doirasida o‘quvchilarga virtual muhitda ishlash imkoniyati yaratiladi, bu esa zamonaviy texnologiyalarni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

Digital PIRLS ta‘limda faqatgina o‘qish malakalarini emas, balki raqamli muhitdagi faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan keng qamrovli qobiliyatlarni ham o‘lchaydi. Ushbu tizimda o‘quvchilarning analitik fikrlash, muammolarni hal qilish va axborotni boshqarish qobiliyatlariga alohida e‘tibor qaratiladi.

Digital PIRLS ning asosiy komponentlaridan biri bu virtual sinov muhiti bo‘lib, unda o‘quvchilarga maxsus ishlab chiqilgan virtual platforma taqdim etiladi, bu orqali ularning matn bilan ishlash qobiliyatlari sinovdan o‘tkaziladi. Keyingi bosqichda interaktiv o‘quv resurslari: matnni tushunish bo‘yicha berilgan topshiriqlar grafikalar, diagrammalar va multimediali materiallar bilan to‘ldiriladi, digital PIRLS natijalari o‘qituvchilar va ta‘lim mutaxassislari uchun chuqur statistik ma‘lumotlarni taqdim etadi hamda sinov savollari o‘quvchining javoblariga mos ravishda murakkablashib boradi, bu esa individual baholash imkoniyatini oshiradi.

ePIRLS va Digital PIRLS ning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- ushbu dasturlar orqali o‘quvchilarning raqamli matnlarni tushunish va ulardan foydalanish malakalari aniqlanadi.

- interaktiv elementlar yordamida o‘quvchilarning ta‘limga bo‘lgan qiziqishini oshirish mumkin.

- bir vaqtning o‘zida bir nechta qobiliyatlarni baholash imkoniyati.

- turli mamlakatlar o‘quvchilarining o‘qish va raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha ko‘nikmalarini solishtirish imkoniyati.

Raqamli texnologiyalar bugungi kunning va ta‘limning ajralmas qismiga aylangan. ePIRLS va Digital PIRLS o‘qish ko‘nikmalarini an‘anaviy yondashuvlardan tashqariga olib chiqib,

o'quvchilarning raqamli savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Bu dasturlar nafaqat o'qituvchilar uchun o'quv jarayonini tahlil qilishga, balki ta'lim siyosatini belgilashda ham muhim ma'lumotlarni taqdim etadi.

ePIRLS va Digital PIRLS raqamli asrda ta'lim sifatini oshirish va

o'quvchilarning zamonaviy dunyo talablariga javob beradigan ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vositalardir. Ushbu dasturlar orqali o'qish savodxonligi bo'yicha yangicha yondashuvlar ishlab chiqiladi va kelajak avlodning raqamli madaniyati shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mullis, I.V.S., Martin, M.O., Foy, P., & Hooper, M. (2017). PIRLS 2016 International Results in Reading. Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center.
2. Martin, M.O., & Mullis, I.V.S. (2021). Digital PIRLS 2021 Assessment Framework. Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center.
3. OECD. (2020). PISA and the Relevance of Digital Literacy in the 21st Century. Paris: OECD Publishing.
4. Anderson, R.C., & Pearson, P.D. (1984). A Schema-Theoretic View of Basic Processes in Reading Comprehension. Handbook of Reading Research.
5. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA). (2022). PIRLS and ePIRLS Official Reports. IEA Publications.

O‘ZBEK TEATR SAN’ATINING OMMAVIYLASHISH BOSQICHLARI
ЭТАПЫ ПОПУЛЯРИЗАЦИИ УЗБЕКСКОГО ТЕАТРАЛЬНОГО
ИСКУССТВА
STAGES OF POPULARIZATION OF UZBEK THEATER ART

Axmedjanova Muqaddas Vaxabovna

O‘zbekiston davlat san’at va
madaniyat instituti professori,
falsafa fanlari doktori (DSc)

***Annotatsiya:** Maqolada milliy teatr san’atining ommaviylashish davrlarida yuz bergan tajribalarni tadqiq etish borasida olib borilgan izlanishlar, o‘zbek xalqining teatr sohasidagi tjarayonlar tarixiy-madaniy rivojlanish bosqichlari orqali tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu tajribalar xalqning, millatning borliqni badiiylik jihatdan anglashga va didini o‘zgartirishga qaratilgan amaliyot shakllari in’ikosi ekanligi ilmiy jihatdan dalillanadi, teatr san’atining ommaviylashish bosqichlariga nazar tashlanadi.*

***Аннотация:** В статье анализируется опыты узбекского народа в сфере театрального искусства через процессы историко-культурного развития. Также научно доказано, что эстетические опыты представляют собой восприятие народов и наций, формы практики, направленные на художественно-эстетическое осмысление и изменение существования; также рассмотрены этапы популяризации театрального искусства.*

***Annotation:** The article analyzes the experiences of the Uzbek people in the field of theatrical art through the processes of historical and cultural development. It has also been scientifically proven that aesthetic experiences represent the perception of peoples and nations, forms of practice aimed at artistic and aesthetic comprehension and change of existence; The stages of popularization of theatrical art are also considered.*

***Kalit so‘zlar:** og‘zaki va yozma dramaturgiya, ssenariy, an’anaviy teatr, teatrlashgan tomoshalar va marosimlar, hajviya, masxarabozlik.*

***Ключевые слова:** устная и письменная драматургия, сценарий, традиционный театр, театральные представления и ритуалы, сатира, клоунада.*

***Key words:** oral and written drama, script, traditional theater, theatrical performances and rituals, satire, clownery.*

O‘zbek teatr san’atining turli tarixiy bosqichlarida amalga oshgan tomosha yaratish tajribalarni tadqiq etish borasida ko‘plab izlanishlar olib borilgan. Bu o‘rinda Cho‘lpon, Fitrat, Behbudiy, A.Qodiriy, akademiklar M.Qori-Niyoziy va M.Rahmonov, G.Pugachenkova,

E.Rtveladze, A.Hakimov, san’atshunoslar G.Uvarova, M.Qodirov, T.Tursunov, T.Bayandiyev, H.Abdusamatov, B.Imomov, M.To‘laxo‘jayeva, I.Muxtorov, D.Raxmatullayeva, M.Axmedjanova, Sh.Rizayev, H.Ikromov, S.Tursunboyev, M.Umarov

kabilarning tadqiqotlarini eslash mumkin. Ularda o'zbek xalqining teatr sohasidagi etnoestetik tajribalari tarixiy-madaniy rivojlanish jarayonlari orqali tahlil qilinadi[1].

Tomosha, san'at asarlari yaratish tajribalari xalqning, millatning borliqni badiiy-estetik anglashga va didini o'stirishga qaratilgan amaliyot shakllari in'ikosidir. Ular teatr san'atining ommaviylashish va professionallashish bosqichlarida o'zining ifodasini topadi.

Madaniyat, san'at, ong, badiiy did bilan bog'liq har qanday fenomen, jarayon o'zining tarixi, genezisi va shakllanish xususiyatlariga ega. Shuning uchun ham ilmiy izlanishlarda mavzuga retrospektiv nazar tashlash qo'llab-quvvatlanadi, obyekt (predmet) taraqqiyotining bosqichlarini aniqlab olish vazifa qilib qo'yiladi. Bundan tashqari, obyekt (predmet) tarixini ko'zdan kechirish muammoning zamonaviy yechimini, bu yechimning kelgusi jarayonlarga ta'sirini ham oldin ko'ra olish, bashorat qilish imkonini beradi. San'atshunoslar va faylasuflarning ta'kidlashicha, ijtimoiy taraqqiyotda «ong va moddiy jarayonlar, istak, iroda, ehtiros va iqtisodiy mexanizmlar chuqur aralashib keladi»[2]. Obyekt (predmet) ushbu «chuqur aralashib» keladigan jarayonlar sintezi orqali tadqiq etilishi darkor, ana shunda muammoni obyektiv baholash va anglash mumkin. Bundan teatr san'ati, etnoestetik tajribalar ham istisno emas.

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi tarixiy-madaniy tajribalarga tayanish, milliy o'zlikni anglash mavzulariga murojaat etish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar orqali ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashga keng yo'l ochib berdi. Madaniy evolyusion rivojlanishni taraqqiyoti prinsipi qilib belgilagan subyekt (xalq, davlat, millat)

ijtimoiy-tarixiy rivojlanishdagi tadrijiy yondashuvni qo'llab-quvvatlashi tabiiy hol edi. Bu masalaga ilmiy-retrospektiv yondashuvdir.

Teatr san'ati mavjudlikni badiiy-estetik anglash, ong, did, tafakkur, yon-atrofnii go'zallashtirishga qaratilgan amaliyot shakllaridan biridir. U deyarli uch ming yildan beri madaniyat tarixida estetik tajriba sifatida mavjud. Ilmiy-retrospektiv nazar tashlasak, teatr san'ati uzoq o'tmishdan bugungi kungacha jamiyatdagi ilk ibtidoiy mifologik, naturfalsafiy qarashlar, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum, inson ongi va etnoestetik tajribalar ta'sirida paydo bo'lib, mazmunan va shaklan inversiv o'zgarib, rivojlanib kelganini ko'ramiz. Masalan, qahramonlari ma'budlar, turli maxluqlar, podshoh va qirollardan oddiy insonlargacha bo'lgan teatr san'ati, vaqt o'tgan sari, inson faoliyatining ma'lum bir ko'rinishiga, badiiy-estetik ongi, tafakkuri va tajribasi ifodasiga aylana borgan. Ushbu hol ijtimoiy ong, faoliyat, taraqqiyot va ma'naviyat bilan teatr san'ati o'rtasida permanent (uzluksiz, bir-biriga dialektik bog'liq, izchil) bog'liqlik borligini ko'rsatadi. Natijada teatr san'ati insondagi badiiy-estetik ong, tafakkur va tajriba mavjudligi(ekzistensiya)ning isboti sifatida shakllangan.

Teatr san'atining ommaviylashish bosqichi antik davrdan XIX asrning oxiri XX asrning boshlarigacha davom etdi. Bu davrda teatr san'ati Yevropadagidek maxsus yozma asarlar, ssenariy va bezatilgan sahnalar orqali uyushtirilmagan, balki ijtimoiy-ma'naviy hayotning uzviy qismi, xalqimizning milliy tajribalari, badiiy-estetik ongi va tafakkurining in'ikosi sifatida kelgan. Xalq o'yinlari, turli marosimlar va sayillar, ommabop tomoshalar, dorboz va masxarabozlarning harakatlari teatr san'atiga yaqin bo'lgan dramatik,

tragikomik ko‘rinishlarga ega bo‘lsa-da, ular o‘sha davrning ijtimoiy-ma‘naviy hayotini ifoda etuvchi ommaviy tomosha, etnoestetik tajriba sifatida qabul qilingan. M.Qodirovning yozishicha, o‘zbek teatri, «Yevropa shaklidagi yangi o‘zbek teatridan farqli o‘laroq, an‘anaviy teatr sifatida shakllangan. U ommaviy san‘at sifatida ibtidoiy jamoa davridayoq taqlidiy raqslar, tabiat kuchlariga topinish oqibatida yuzaga kelgan marosimlar doirasida paydo bo‘lgan. Bu «an‘anaviy teatr»ning ilk ko‘rinishlari tabiatga, qush va hayvonlarga, ruhlarga bo‘lgan e‘tiqodlar, zardo‘shiylik bilan bog‘liq urf-odatlar, marosimlar bilan aralashib, chatishib ketgan»[3]. Ushbu fikr etnoestetik tajribaga ham taalluqli, u teatr san‘atini badiiy-estetik ong va tafakkur bilan bog‘liq ekanini, shu asosda esa obyektning ekzistensial-falsafiy mohiyatini to‘g‘ri anglashga yordam beradi. Tadqiqotchining fikricha, bu etnoestetik tajriba uchta: «birinchisi – tomosha san‘atlari (an‘anaviy teatr, raqs san‘ati va xalq sirki) tizimi bo‘lib, san‘at turlari, turkumlari, shakllari (janrlari) negizida yuzaga kelgan. Ikkinchisi – maydonlarda o‘tadigan musobaqalar, o‘yinlar, teatrlashgan tomoshalar va marosimlar tizimi. Bunda san‘at ahli o‘z mahoratini chavandozlar, polvonlar, merganlar, o‘yinchilar bilan birga namoyish qiladi. Uchinchisi–bayramlar tizimi. Ya‘ni, yil davomida o‘tadigan mavsumiy, rasmiy, mintaqaviy, umumxalq, oilaviy va boshqa bayramlar, ularning tarkibida nishonlanadigan hayitlar, sayillar, tomoshalar, teatrlashgan marosimlar, namoyishlar o‘ziga xos tizim hosil qiladi. Mazkur tizimda an‘anaviy teatr va milliy badiiy-estetik ong juda katta o‘rin egallagan. Zotan, u har biri uch turdan, uch toifa sahnaviy tomoshalardan iborat: birinchisi – kulgu teatri, ikkinchisi – qo‘g‘irchoq teatri, uchinchisi–hikoya

teatri»[3]. Bu o‘rinda tadqiqotchi birinchidan, teatr san‘atining ilmiy va badiiy-estetik ongga oid jihatlarini qayd etsa, ikkinchidan, o‘zbek teatr san‘ati genezisidayoq ommaviylashish xususiyatlariga ega bo‘lganini ta‘kidlaydi. Ommaviylashish negizida keng ma‘nodagi etnomadaniy voqelik, jarayonlar, qadriyatlar yotadi, unga «xalqchilik» xos. Bu ommaviylashish xalqimizga xos bo‘lgan badiiy-estetik ong, tafakkur va etnostetik tajribalarni o‘ziga mujassam etadi. Ular umumiy madaniy-ma‘naviy jarayonlarning tarkibiy qismi sifatida keladi.

Ommaviylashishni istagan odam san‘at turlari bilan shug‘ullanib ketaveradi, degan tor, primitiv ma‘noda tushunmaslik kerak. «Ommaviylik» deganda biz teatr san‘atiga taalluqli ijodiy izlanishlarning barchaga, ommaga tushunarli va ularning hayotiga yaqinligini nazarda tutamiz. Bunda etnotajribalarning subyektivi (muallifi) ham, obyektivi (tomoshabini) ham xalq ommasi hisoblanadi. Badiiy-estetik ong va tafakkur o‘zini o‘zi «yaratish», o‘zini o‘zi «idrok etish» va o‘zini o‘zi «shakllantirish» tajribalarining ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Muallifi noma‘lum xalq tomoshalari etnotajribalarda milliy-madaniy hayotning atributiga aylanadi[4]. Ularda badiiy-estetik tafakkur va etnoestetik tajriba xalq ommasining umumiy ma‘naviy madaniyatiga va o‘zini o‘zi shakllantirish (ya‘ni milliy-madaniy va ma‘naviy boyliklarning ijodkori bo‘lish) tamoyiliga aylanadi. Professionallashuv davrida san‘at tor doiradagi auditoriyaga mo‘ljallanishi mumkin. Bu esa dramaturg, rejissyor, aktyor va retsipientdan maxsus tayyorgarlikni, badiiy-estetik ong, bilim, did va maxsus muhitni talab etadi.

«Islom dinining tarqalishi mintaqamiz xalqlari etnomadaniyati va

ongida yirik voqelik edi. Turli xalqlar madaniy an'analari bilan integratsiyalashuvi islomni san'atning ommalashuviga yordam beradigan ijobiy voqelikka aylantirdi. Shu bilan birga, islomda dogmatik yondanuv ham paydo bo'ldiki, u avvalo san'at (masalan, haykaltaroshlik, hajviya, masxarabozlik)ga salbiy ta'sir etdi. San'atning ommaviylashishi islom dogmatikasi ta'siri ostida bo'lganini unutish mumkin emas»[5].

Ilmiy-retrospektiv tahlillar ko'rsatadiki, turli davrlardagi marosim va tomoshalarda kulgili, qayg'uli, qiziqarli holatlar xalq og'zaki ijodi ijrochilari, xalq teatrlari qatnashchilari, qo'g'irchoqbozlar, masxarabozlar, dorbozlar, askiyachilar, taqlidchilar, qiziqchilar faoliyatida namoyon bo'lib, asta-sekin ommaviy xarakter va ekzistensial mohiyat kasb eta borgan. Chunki «insonning voqelikka, mavjudlikka munosabati avvalo uning mehnatida, amaliy faoliyati va kundalik turmushida yuzaga chiqadi. Ammo bu munosabatni juda kuchli va yorqin ifodalaydigan soha adabiyot va san'at»dir[6].

Temuriylar davrida ijtimoiy hayotning boshqa sohalari qatori madaniyat va san'at ham yuksalgan. Temuriy hukmdorlar, ayniqsa, Alisher Navoiy adabiyot, san'at, madaniyat vakillariga homiylik qilgan va shu orqali madaniy yuksalishga katta hissa qo'shgan. Diniy mutaassiblik avj olayotganiga qaramay, A.Navoiy san'atning ommaviylashishi tarafdori bo'lgan.

«Bitta o'zi yoki hamnishinlari bilan birga hayotiy va afsonaviy voqealardan hikoya qilib, xilma-xil qiyofalarni gavdalantirib, tomoshabinlarni goh kuldirib, goh yig'latuvchi ijrochilar o'zbek xalqiga azaldan tanish, – deb

yozadi san'atshunoslik fanlari doktori, professor M.Qodirov, – Qolaversa, xalqimizga o'tmishda ham o'ziga xos bino, tomoshagoh, sahna va dramaturgiya yot bo'lmagan. Alisher Navoiy yashagan davrda shu holni ko'ramiz» [4]. Buyuk shoir o'z asarlarida ommaviy tomosha san'ati vakillari ismlarini hamda shu sohaga doir atamalarni tilga olgan. Masalan, o'z davrining atoqli kulgi ustasi, an'anaviy teatrning mohir ijrochisi G'iyos masxara, musiqa va advor ilmida, sozandalik va go'yandalikda ilg'or bo'lgan Pahlavon Muhammad haqida so'z yuritgan. Turkiycha «o'yun» (o'yin) va arabcha «tamosha» iboralarini ko'p qo'llagan. Bu davrda tomoshalar ko'rsatiladigan bino, ko'shk va chortoqlar tarabxonalar (xursandchilik, shodlik joyi) deb atalgan. «Tamosha»lar ijrochilari - masxaralar, muqallidlar, qissaxonlar, voizlar, qo'g'irchoqbozlar o'z badiiy chiqishlariga maxsus tayyorlanishgan. «Ularning o'ziga xos dramaturgiyasi (tuguni, ixtilofi, echimi) bo'lgan og'zaki pesalarni maxsus kiyim-kechak (to'n, yaktak, salla, bo'rk, yasama soqol, toj, bo'yradan yasalgan kiyim-bosh kabi) va buyumlar (aso, tasbeh, qamchin, nosqovoq, ro'mol singari)dan foydalangan holda, tovush, so'z, harakat, yuz ifodalarini bo'rttirish, badihago'ylik bilan sahnalar, savol-javoblar to'qish asosida to'yxona va tarabxonalarda o'ynaganlar»[4]. M.Qodirovning ilmiy, tarixiy-estetik izlanishlaridan ma'lum bo'ladiki, Navoiy davrida o'ziga xos dramaturgiya, rejissura, aktyorlik, musavvirlik san'atidan yaxshi xabardor kishilar mavjud bo'lgan. Biroq ular dramaturgiya, sahna harakati, nutq madaniyati va aktyorlik mahorati kabilar bilan shug'ullanmaganlar, ular mavzuni xalqdan olib, xalqqa etkazish texnikasini egallaganlar.

«Xivada san'at turlari ichida masxarabozlik ham keng tarqalgan bo'lib, ular hajviy o'yinlar, tomoshalar ko'rsatishar, boshqa birovlarining ovozi, xatti-harakatiga taqlid qilishardi. Ayniqsa, oddiy xalq ommasi orasida tomoshalarda xon amaldorlarining noloyiq xatti-harakatlarini masxaralab ko'rsatish bilan dong chiqazishardi»[7]. Ushbu ma'lumotlar ijod vakillari san'at vositasida jamiyatdagi ijtimoiy muammo va illatlarga badiiy-estetik usullar vositasida munosabat bildirganini ko'rsatadi. O'z paytida F.V.Y. Shelling to'g'ri ta'kidlagan edi, «...falsafa faktlar, ya'ni miflar, o'yinlar, tomoshalar bilan cheklanib qololmaydi, u mazkur faktlardan yuqoriga ko'tarilishi, bu o'rinda ijtimoiy-ma'naviy va badiiy-estetik ong ifodasiga aylanishi zarur»[8]. Aslida san'at badiiy-estetik voqelik, falsafiy ekzistensiya sifatida faktlardan yuqori turadi. Teatr hayotni faktlar orqali tasvirlasa, san'at falsafasi ushbu faktning, teatrning ham, ekzistensial mohiyatini «butun» darajasida anglashga undaydi. Ommaviylashish davrida teatr san'ati xalqqa yaqinligi bilan «butun» darajasiga ko'tarila olgan. Bu aslida uning ijtimoiy-ekzistensial borliqqa, badiiy-estetik ongga daxldorlik belgisidir.

Movarounnahrda vujudga kelgan diniy tariqatlar, tasavvuf vakillarining Oллоh jamoliga erishish yo'lidagi harakatlarida ifodalilikka, hissiyot va ehtirolarga keng o'rin berilishi jihatdan teatrlashtirilgan tomoshalarga o'xshaydi. M.Qodirovning ta'kidlashicha, zamonaviy «o'zbek aktyorlik san'ati maktabi ko'proq tasavvuf bilan bog'liq»[4]. Bu fikrlarga qo'shilmaslik mumkin emas. U etnoestetik tajribaga oid xulosasini quyidagilar bilan isbotlaydi.

Birinchidan, XIX asrning 70-yillarida O'rta Osiyoning yirik shaharlari bo'ylab sayohat qilgan amerikalik

diplomat Yujin Skayler o'z qaydlarida Toshkentning turli joylaridagi masjidlarda Jahriya tariqati marosimlariga guvoh bo'lganini yozadi. Ushbu marosimlar haftaning belgilangan kunlari aniq vaqtlarda o'tkazilgan. O'ttiz chog'li kishi qatnashgan marosimlarga eshon boshchilik qilgan. Ular tiz cho'kib, qiblaga qarab o'tirishgan. Baland ovozda tovush chiqarib, gavdalarini jazavali silkitishgan, atrofdagi odamlar ham shu holatga kirishgan. Barchalari yoddan diniy-ilohiy so'zlarni qaytarishgan. «Bu so'zlar yarim musiqiy past ohangli xirgoyi bilan aytilar va shunga monand boshlarini chap elka osha yurakka qarab qattiq silkitishar, so'ng orqaga, keyin o'ng elkaga, so'ng pastga barcha harakatlar yurak tomonga qaratilgan edi»[9]. Darveshlarning oldinga va orqaga tinimsiz harakatlanishlari, hayajonli raqslari, hofizning doston kuylashi mazkur marosimlarda badiiy-estetik ijroga alohida e'tibor qaratilganini ko'rsatadi. Yujin Skaylarning yozishicha, «Tovushining ohangi juda ajoyib, kuylayotganda imo-ishoralar qilib, ovozini imkoni boricha uzoqroqqa etkazish uchun biror kitob yoki qo'lini og'zi yonida tutib turardi» [9]. Demak, tariqat marosimlarida doston o'qiydigan yoxud ta'sirli voqeani gapirib beradigan hofizlarning ovozi uni eshituvchilarga yoqimli bo'lib, ular o'z faoliyatlarida jest va mimikaga, ovozining barchaga aniq etib borishiga katta e'tibor qaratishgan. Bunga tinglovchilar o'ziga xos munosabat bildirib, baqiriqlar bilan ularga jo'r bo'lishgan, oh-voh chekib, bo'zlab yig'lashgan, demak, estetik munosabatga kirishishgan. Eng muhimi, marosim pir yoki eshon tomonidan, xuddi rejissyor kabi, boshqarilib turilgan hamda ushbu tadbirning qiziqarli o'tkazilishiga harakat qilingan [9].

Ikkinchidan, ijrodagi aniqlik, ifodalilik, marosimning boshqarilishi, uni qiziqarli o'tkazishga bo'lgan urinish kabi xususiyatlarning barchasi darveshlarning milliy badiiy-falsafiy mohiyatga ega ommaviylashgan teatr tomoshasi edi. Ushbu sahnaviy ko'rinishlar darveshlar, tasavvuf vakillari, mazkur marosimlar ishtirokchilari va tomoshabinlarning etuklikka intilish, Olloh jamoliga erishish vositasi edi. Sahna psixologiyasidan xabardor kishigina bunday xatti-harakatlarda ommaviylashishga intilish borligini sezadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bunday ko'cha tomoshalari ommaga mo'ljallangan ma'naviy-ruhiy ta'sir etish vositalariga qurilgan. Musulmon mistitsizmini o'rgangan A.Knish darveshlar, so'fiylar o'z xatti-harakatlarida ommaga ta'sir etishning psixologik, ma'naviy-emotsional usullarini yaxshi egallaganlarini qayd etadi[10]. Zamonaviy teatr ham psixologik, badiiy-emotsional vositalar orqali tomoshabinning, retsipientning ongini, qalbini poklash (katarsis) va forig'lantirishga, tafakkurini charxlashga, boyitishga harakat qiladi.

Teatr san'ati, ekzistensial borliqni badiiy-estetik anglash shakli sifatida, insonning ongi, dunyoqarashi, o'y-tashvishlari, orzu-armonlari, perseptiv va sensitiv kechinmalarini, shuningdek, jamiyatdagi o'zgarishlarni, evrilishlarni, ziddiyat va to'qnashuvlarni so'z va harakatlar, xarakter va badiiy obrazlar orqali ifoda etadi. Masalan, antik san'at mualliflari ham «o'zlari yashab turgan davrning muhim masalalarini hal qilishga intilganlar, mifologik qahramonlarning kurash va to'qnashishlari, ularning xatti-harakatlari o'sha zamon tomoshabinlari uchun axloq va odobning namunasi, ijtimoiy xulqning andozasi sifatida talqin etilgan»[11]. Bundan ko'rinadiki, teatr san'ati ekzistensial borliqdagi nafosatni,

ulug'vorlikni, jo'shqinlikni badiiy-estetik anglashga qaratilgan ijod, faoliyat turi bo'lib kelgan. U go'zallikni, odamiylik va mehr-oqibat kabi tuyg'ularni ulug'lashga, tomoshabinni kamchiliklar, xunuklik, badaxloqlik ustidan kulishga undagan. Unda qadim zamonlardan oq jamiyat uchun zarur olijanoblik, ma'naviy etuklik va estetik foydalilik, keraklilik kabi hayotiy muammolar, g'oyalar ilgari surilgan. Shuning uchun «Sofokl istagan olijanob inson konkret hayotdan uzoq, mavhum bir shaxs emas, balki o'zini tamomila Afina davlatining manfaatlariga tikkan, shu davlatning talabi bilan yashagan, uning qonunlarini muqaddas bilgan va g'oyalari uchun jonini fido qilgan tirik bir odamdir»[11]. Demak, teatr san'ati, ekzistensial borliqni badiiy-estetik anglash usuli sifatida, jamiyat talablariga befarq bo'lmagan, insondagi go'zallikka, olijanoblikka, mardlikka bo'lgan estetik tuyg'ular va ideallarni ifoda etgan, shu tariqa u badiiy-estetik ong va qadriyatlar bilan permanent bog'liq rivojlangan.

Tadqiqotchi U.Saidovning yozishicha, «makon va zamoni unut bo'lgan Edip qadimdan to bugungi kunga qadar turli faylasuflar (Suqrotu-Aflotundan tortib Shillergacha) va hatto inson ruhiyati ustida bosh qotirgan psixoanalitiklar (masalan, Freydning «Edip kompleksi» haqidagi fikrlarini eslash kifoya) uchun inson va hayot haqidagi falsafiy fikrlarni tasdiqlovchi siymoga aylangan. «Shoh Edip» tragediyasida o'lmas g'oya, inson ma'naviyatiga oid so'ngsiz fikr yashirin»[12]. Haqiqatan ham, barcha rejissyorlar va aktyorlar uchun hanuz Edip obrazi badiiy-estetik orzu, olamni, ekzistensial borliqni, ushbu borliqda insonning o'rnini anglash imkoni, vositasi bo'lib keladi. Faylasuf E.Frommning yozishicha, «Edip nafaqat antik davrdagi

hokimiyat masalalariga, shaxslararo munosabatlarga, shuningdek, barcha davrlar uchun muhim inson taqdiri va irodasiga, ma'naviyatiga taalluqli muammoni kun tartibiga qo'yadi[13]. Shu tariqa mif va Edip retsipientni insonning ekzistensial borliqdagi o'рни, qanday ma'naviy-aksiologik normalar bilan yashashi zarurligi haqida o'ylashga majbur etadi. Fojia aslida o'sha davrda ro'y berayotgan siyosiy, axloqiy va ijtimoiy ongdagi o'zgarishlarning ifodasi edi. Edip qalbidagi oliyjanoblik, insoniylik ulug'vor fazilatga aylanadi.

Etnoestetik tajribalarni, teatr san'atining ommaviylashish bosqichlarini o'rganish ko'rsatadiki, teatr borliqni maxsus tomoshalar, obrazlar, simvollar va xatti-harakatlar orqali ifoda etuvchi san'at turidir. U tomoshabinni hayotning, mavjudlikning mohiyati haqida o'ylashga, ulug'vorlik va tubanlik, fojiviylik va kulgililik kabi voqeliklarni farqlashga, mavjud hayotiy muammolarini estetik ideallar orqali baholashga o'rgatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Рахманов М. Узбекский театр с древнейших времен до 1917 года. – Ташкент: Издательство Литературы и искусства имени Г.Гуляма, 1971.;
2. Философия. Основные идеи и принципы. –М.: Издательство политической литературы, 1990. –С.169.
3. Кадыров М. Труды по истории зрелищных искусств Узбекистана. Том 1. – Ташкент: Санъат, 2010.; Хакимов А.А. Искусство Узбекистана: история и современность. – Ташкент: Санъат, 2010.
4. Qodirov M., Qodirova S. O‘zbek teatri tarixi. – Toshkent: Niso Poligraf, 2019. – В.10-11.
5. Арипова Э. В поисках души... //Театр. -Тошкент, 2021. - №2. –С.31.
6. Erkayev A. Estetik ong va badiiy bilish. //Jahon adabiyoti. – Toshkent, 2015. - №11. – В. 134.
7. Abdurasulov A. Xiva: (Tarixiy-etnografik ocherklar). – Toshkent: O‘zbekiston, 1996. – В. 100.
8. Шеллинг Ф.В.Й. Сочинения в двух томах. Том 2. – М.: МЫСЛЬ, 1989. – С.162.
9. Skayler Yu. Turkiston: Rossiya Turkistoni, Qo‘qon, Vuxoro va G‘uljaga sayohat qaydlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. –В. 120-122.
10. Книш А. Мусульманский мистицизм.-М.: Восточная литература, 1998. – С.34-47.
11. Alimuhamedov A. Antik adabiyot tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1975. – В. 111-112.
12. Saidov U. Edip aybdormi yoxud insonlik mas’uliyati haqida. //Jahon adabiyoti. – Toshkent, 2000. -№12. – В. 165.
13. Фромм Э. Душа человека. – М.: Республика, 1992. – С.268-269.

MUZEYLAR VA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH
МУЗЕИ И НАЦИОНАЛЬНАЯ ИДЕНТИЧНОСТЬ
MUSEUMS AND NATIONAL IDENTITY

Bosit Umarxodjaye

O‘zbekiston davlat san’at va
madaniyat instituti mustaqil izlanuvchisi

***Annotatsiya:** Maqolada, muzeylarda milliy o‘zlikni anglash bilan bog‘liq masalalar yoritilgan. Respublikadagi 1200 dan ortiq muzeylar ishi, bu sohadagi islohotlar natijasi, zamonaviy texnologiya bilan ta‘minlanishi jarayonlari bayon etilgan. Milliy o‘zlikni anglash jarayonida muzeylarning faoliyatidagi o‘zgarishlar, tarixiy va ajdodlarimiz merosi bilan bog‘liq yangi maskanlarning ochilishi haqida keltirilgan. O‘zbek xalqining o‘z tili, tarixiy ajdodlari merosini asrash, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda muzeylarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan.*

***Аннотация:** В статье освещаются вопросы, связанные с реализацией национальной идентичности в музеях. Описана работа более 1200 музеев республики, результаты реформ в этой сфере, процессы обеспечения их современными технологиями. В процессе реализации национальной идентичности упоминаются изменения в деятельности музеев, открытие новых мест, связанных с историческим и наследием наших предков. Анализируется роль и значение музеев в сохранении наследия узбекского народа, его языка, исторических предков, формировании патриотических чувств.*

***Annotation:** The article covers issues related to the implementation of national identity in museums. The work of more than 1,200 museums of the republic, the results of reforms in this area, and the processes of providing them with modern technologies are described. In the process of implementing national identity, changes in the activities of museums, the opening of new places associated with the historical and heritage of our ancestors are mentioned. The role and importance of museums in preserving the heritage of the Uzbek people, their language, historical ancestors, and the formation of patriotic feelings are analyzed.*

***Kalit so‘zlar:** muzey, milliy o‘zlik anglash, til, tarix, meros, qadriyat, “Audiogid”, “Blokcheyn”.*

***Ключевые слова:** музей, национальная идентичность, язык, история, наследие, ценность, “Аудиогид”, “Блокчейн”.*

***Key words:** museum, national identity, language, history, heritage, value, "Audio Guide", "Blockchain".*

Milliy o‘zlikni anglash, aslida hamda ijtimoiy hodisadir. Ushbu ijtimoiy milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi hodisa bevosita davlat mustaqilligini bilan yonma-yon yuz berayotgan jarayon qo‘lga kiritgan O‘zbekistonning ham

siyosiy, ham madaniy islohotlarida yaqqol ko'zga tashlandi. Milliy o'zlikni anglashda, milliy qadriyatlarni tarqatishda, kishilar tafakkuri, dunyoqarashini o'zgartirish hamda inson ma'naviyatini shakllantirishda madaniy muassasalar qatorida muzeylarning o'rni va ahamiyati katta hisoblanadi. "Muзей – millatning asrlar davomida shakllangan madaniyatini namoyon etuvchi noyob maskandir"[6]. Ayniqsa, ma'rifiy-madaniy, ilmiy va dam olish maskani bo'lgan muzeylar o'tmish va bugungi kun o'rtasida bog'lovchi xalqa hisoblanadi. Hozirda Respublikada 1200 dan ortiq muzeylar ana shunday vazifani bajarib kelmoqda. Berilgan vakolat, yuqori turgan organlar va moliyalashtiradigan tashkilotlar tomonidan tashkil qilingan davlat, xususiy, notijorat fond va jamoat, ta'lim muassasalari qoshidagi muzeylarga ajratib olish mumkin. Muzeylar asosan ijtimoiy manfaatlarni ko'zlab faoliyat yuritadilar. Shuning uchun ham ushbu faoliyatning barcha jihatlari jamiyat oldidagi majburiyatlarga munosib bo'lishi kerak. Muзей insonlar va davlatning madaniy, tabiiy va ilmiy meroslarini saqlovchisi sifatida o'z zimmasiga alohida mas'uliyatni oladi va benuqson ish olib borishi kerak. Hukumat strukturasi bir qismi bo'la turib muзей rahbarlik qiluvchi organining boshqaruv tizimiga muvofiq ishlashi kerak bo'lsa ham, lekin bir vaqtni o'zida muзей ishining hamma qabul qilgan amaliy usullarini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Muzeylar – (yunon tilida "saqlash uyi") esdalik, xotira, meros predmetlarini yig'ish, saqlash va tabiiy tarixiy ashyolarni moddiy va ma'naviy madaniyat namunalarini va boshqa qator eksponatlarni namoyish qilish, shuningdek, ma'rifiy ilmiy ishlarni ommaga tanitish bilan shug'ullanuvchi

muassasa hisoblanadi. Dastlab muzey deganda san'at, tarixiy va ilm-fan eksponatlari va predmetlari kolleksiyasi nazarda tutilgan va XVIII asrlardan boshlab u eksponatlarni o'z bag'rida saqlaydigan bino va inshootlarni ham qamrab olgan. XIX asrlarda esa muzeylarda o'tkaziladigan ilmiy-tadqiqot ishlari ham tobora ommashib borgan. XX asrning

60-yillariga kelib muzeylar bilan bog'liq pedagogik faoliyat ham yo'lga qo'yila boshlagan. Bu faoliyatda bolalar va ma'lum toifadagi guruhlar uchun ham maxsus o'quv loyihalari yo'lga qo'yilgan.

O'tmishdagi ulug' ajdodlarimizga hurmat-ehtirom hissini kuchaytirish, yosh avlodni moziy voqealariga oshno etish maqsadida 1992-yil O'zbekiston tarixi davlat muzeyi qayta ochildi, 1996 yil Temuriylar tarixi davlat muzeyi tashkil etildi.

Xalqimizning boy tarixi, ajoyib an'analari va qadriyatlari, ulkan ma'naviy salohiyatini namoyon etuvchi ushbu muassasalar tizimida mustaqillik sharofati tufayli bunyod etilgan Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Qatag'on Qurbonlari xotirasi muzeyi, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, Termiz Arxeologiya muzeyi alohida va o'ziga xos o'rin egallaganini ta'kidlash zarur[4].

Tarixiy dunyoqarashni rivojlantirishda milliy ma'naviy qadriyatlarning o'rnini alohida e'tirof qilmoq kerak. Zero, milliy o'zlikni anglash va tarixiy dunyoqarashni qaror toptirishda ma'naviy qadriyatlar muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Milliy o'likni anglash va tarixiy dunyoqarashni rivojlantirishda milliy qadriyatlarning ta'sirini yanada kuchaytirish o'z navbatida milliy madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishni taqazo qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ilk marotaba Prezident

etib saylangach, birinchi imzolagan qarorlaridan biri ham bevosita yangi muzeyni ochilishi bilan daxldor bo'ldi. Ya'ni, elimizning suyukli farzandi, zabardast shoir, taniqli davlat va jamoat arbobi, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov tavalludining 80 yilligini nishonlash to'g'risida maxsus qarorga binoan Farg'ona viloyati, Oltiariq tumani "Beglar" mahallasida Erkin Vohidov uy-muzeyi ochildi[5]. Birgina shoir timsolida butun millat adabiyoti, ma'naviyatiga ko'rsatilgan bunday ulkan e'tibor va g'amxo'rlik yurtimiz ziyolilarini behad hayajonga soldi. Harakatlar strategiyasi dasturiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

"2017-2027 yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida" 2017 yil 11-dekabrda 975-sonli qarori bilan tasdiqlangan manzilli dasturga asosan 2018 yilda Qoraqolpog'iston Respublikasida Mo'ynoq Ekologiya muzeyi, Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahrida "Maqom muzeyi", Buxoro shahrida Mutal Burxonov uy-muzeyi tashkil qilindi. Shuningdek, Surxondaryo viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyida rekonstruktsiya ishlari amalga oshirildi. Respublikada Qo'qon shahridagi Buyuk allomalar muzeyi, Samarqand shahridagi Sadridin Ayniy yodgorlik uy-muzeylari, Chirchiq shahar tarixi muzeylarida mukammal ta'mirlash ishlari olib borildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "O'zbekiston Respublikasi milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2018 yil 28 noyabridagi PQ 4038-son qarori hamda 2020-yil 26-maydagi

"Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF 6000-son Farmonining qabul qilinishi ayni muddao bo'lgan. Ushbu muzeylar faoliyatining yo'lga qo'yilishi mo'yqalam sohiblarini ham ilhomlantirdi, tarixiy mavzudagi asarlarga qiziqish kuchaydi. Shuningdek, mustaqillik yillarida tasviriy san'atning grafika, kitob naqqoshligi, xattotlik kabi turlari qayta tiklandi. Uzoq tarixga ega bo'lgan miniatyura san'atiga e'tibor kuchaydi. Mamlakatimizda muzey sohasini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda. Buning uchun muzeylardagi ashyo va kolleksiyalarni chuqur o'rganib, ularning bebaho qadr-qimmatini xalqimizga ochib berish, bular to'g'risida yoshlar ongida nazariy bilimlarni boyitish lozimdir. Hukumatimiz tomonidan bu sohani rivojlantirish bo'yicha 2017-2027 yillarga mo'ljallangan dastur ishlab chiqilishining belgilanishi, yurtimizning taraqqiyot dasturi bo'lmish — Harakatlar strategiyasida muzey sohasini rivojlantirishning ko'rsatib o'tilganligi bejiz emas albatta.

Muzeylar orqali ona vatanimizning ko'hna tarixi naqadar moddiy madaniyat yutuqlariga boy ekanligini, ajdodlarimiz bilim va tafakkuri, dunyoqarashi, san'ati, mahorati, iqtidori yuqori darajada ekanligini butun dunyoga namoyish etib berish mumkin. 2017 yil Jizzax shahrida atoqli davlat arbobi Sh. Rashidov, taniqli shoirlar Hamid Olimjon va Zulfiya memorial muzeylarining, 2018-yil Toshkentda Islom Karimov memorial muzeyining tashkil etilganligi keyingi yillarda muzey sohasida olib borilayotgan islohotlar mamlakatimizda bu sohaga e'tiborning naqadar katta ekanligini ko'rsatadi.

Madaniyatning ijtimoiylashuvi funktsiyasi bilan milliy o'zlikni anglash

o‘zaro hamoxang, bir yo‘nalishdagi ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Aynan madaniyatning ushbu funksiyasi qadimgi odamni sivilizatsiya kishisiga aylantirib boradi. Jamiyat ichida o‘zining “meni”ni qidirgani kabi millat o‘zining “o‘zligini” topishga harakat qiladi. Jamiyatga ijtimoiylashuv deganda odamlarning bir xil fikrlashi, bir xil tarzda hayot tarzini shakllantirish tushunilmaydi. Inson harqanday sharoitda ham o‘zining individul “qiyofasi”ni saqlab qolishga madaniyatning mazkur funksiyasi yordam berganidek, har bir millat, xalqni milliy o‘zligini anglab, uni saqlab qolishga yo‘naltiradi. Milliy o‘zlikni anglash tuzilmasida uning muhim elementlari bo‘lgan tarixiy xotira, ona tili, milliy madaniyat, umumiy tarixni ham e‘tiborga olish zarur[5].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev yoshlarimizning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish bilan bog‘liq vazifalarga qisqacha to‘xtalib, ta’kidladiki, “Bu borada biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an‘analarimizga ajdodlarimizning boy ma’naviy merosiga tayanamiz”[2]. Bugungi zamon muzeylardan axborotlashgan, professional, mantiqiy, mamnuniyat keltiruvchi va ijtimoiy faol muassasa bo‘lishini talab qilmoqda. Yangi talablarga javob berish uchun muzey rahbariyati iqtisodiyot, xuquq, sotsiologiya, psixologiya, axborot kommunikatsion texnologiyalari kabi turli sohalardagi davlat boshqaruvi va biznesning ilg‘or amaliyoti va tadqiqotlaridan boshqaruvning zamonaviy tamoyillarini o‘zlashtirishi lozim. 2019-yildan 30 ta muzeyning “Virtual muzey” bazasini yaratish va O‘zbekiston muzeylari yagona portalini yaratish ishlari yakunlanadi.

“Audiogid” va “Blokcheyn” texnologiyalari joriy etiladi. Mazkur masalalarga umumiy hisobda 6.1 mlrd.so‘m miqdorida mablag‘ talab etiladi.

Shuningdek, 106 ta muzeydagi 2,5 mln.ga yaqin nodir muzey ashyosini to‘liq elektron katalogini yaratish va muzeylarni xorijlik sayyohlar uchun qiziqarli bo‘lishi yo‘lga qo‘yiladi.

Muzeylarda saqlanayotgan nodir va noyob ashyolarning katalogi tayyorlanadi hamda milliy muzey kolleksiyalarining ilmiy kataloglari yaratiladi. Muhtaram yurtboshimiz ta’kidlaganidek, “Bir xaqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak: mamlakatimizda madaniyat va san‘at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi, avvalo, milliy madaniyatimizga, qarab baholanadi. Biz O‘zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni, avvalo, milliy madaniyatimizni rivojlantirishdan boshlashimiz lozim”[1].

Xullas, bugungi tezkor jarayonda XXI asr insoniyat oldiga qator umumbashariy muammolarni ko‘ndalang qilib qo‘ymoqda. Milliy o‘zlikni anglash va milliy madaniyatimiz ham barcha ijtimoiy hodisalar singari o‘shida, o‘zgarishda va taraqqiy etishda bardavom bo‘ladi. Milliy madaniyatning shakl, mazmun, uslub va g‘oyaviy jihatdan o‘zgarishi, yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilishi, bevosita transformatsion jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lib, ayni murakkab davr mustabid tuzum mafkurasidan holi bo‘lgan mustaqillik sharoitida, madaniyatning zamonaviy muammolari hamda uning rivojlantirish kontseptsiyalari, muzeylarning milliy o‘zlikni anglash hodisasi bilan bir vaqtda shakllantirish bilan uyg‘unlikda o‘rganish hamda ular haqida ilmiy xulosalar berish zarurligini taqazo etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий олами юксалтиришнинг муҳим пойдеворидир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси. // “Халқ сўзи” газетаси, 2017 йил, 4 август, 153-сон, 3-бет.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-том. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 126.
3. Шавкат Мирзиёевнинг 2016 йил 7 декабрдаги “Ўзбекистон халқ шоири Эркин Воҳидов таваллудининг 80 йиллигини нишонлаш тўғрисида”ги қарори // “Халқ сўзи” газетаси. 8 декабрь 2016 йил.
4. Очилдиев А. Маданият фалсафаси. – Тошкент: Мухаррир, 2010. – Б.91.
5. Сапаров Б.Б. Миллий ғоя тизимида миллий ўзликни англашнинг тузилмавий-функционал таҳлили. Ф.ф. бўйича фалсафа доктори (PhD) учун тайёрланган диссертацияси. – Тошкент., 2019. – Б. 35.
6. Энди “Аудиогидлар” гапиради // Маданият газетаси. 4.01. 2019 №1.

ВОПРОС О НАЦИОНАЛЬНОЙ ИНТОНАЦИИ В УЗБЕКСКОЙ МУЗЫКАЛЬНОЙ ЭСТРАДЕ

QUESTION ABOUT NATIONAL INTONATION IN UZBEK MUSICAL VARIETY

Мулладжанов Давлат Мавланович
Доцент кафедры "Искусствоведение и культурология"
Государственного института искусств и культуры
Узбекистана, кандидат искусствоведения

***Аннотация:** в данной статье рассматривается значение жанров музыкальной эстрады в духовно-нравственном воспитании молодого поколения. Анализируются различные стили и художественные направления, возникшие в узбекской эстраде.*

***Annotation:** this article discusses some issues of spiritual education of the younger generation because of genres of musical variety. In this context, different styles and artistic trends emerged in the sphere of Uzbek variety art.*

***Ключевые слова:** музыкальная эстрада, духовность, культура, просвещение, воспитание, гармонично развитое поколение, сотрудничество, джаз-рок, техно-поп, панк, хард-рок, регги, бард.*

***Key words:** musical stage, spirituality, culture, education, upbringing, cooperation, jazz-rock, techno-pop, punk, hard rock, reggae, bard.*

В 1990-х годах узбекская музыкальная эстрада переживала сложный процесс. В это время, наряду с экспериментами по внедрению образцов традиционной музыки на эстрадную сцену, можно было наблюдать влияние мелодий и ритмов Ближневосточной, Среднеазиатской, Латиноамериканской, Североамериканской и Западноевропейской популярной музыки.

Как известно, у каждого народа, каждой нации есть свой уникальный темперамент. Умение художественно выразить внутренний духовный мир народа, его уникальный менталитет – одна из самых важных творческих задач, стоящих перед каждым представителем искусства. От того, насколько успешно эта задача решена,

зависит и ценность художественного произведения. Таким образом, вопрос формирования народного стиля с национальной основой в узбекской музыкальной эстраде, можно сказать без преувеличения, является сегодня одним из наиболее важных.

Так какова же в нашей эстраде ситуация в этом направлении? В последние годы в узбекской музыкальной эстраде появляются такие жанры и стили, как «джаз-рок», «техно-поп», «панк», «хард-рок», «регги», «бардовская песня» и другие [1]. Хотя в этом процессе были достигнуты определенные заметные результаты, вызывает тревогу увеличение числа произведений, не соответствующих высокому художественному вкусу и уровню узбекского народа. На наш

взгляд, одной из самых больших проблем в этом вопросе является недостаточное решение проблемы национального стиля в эстрадной музыке. Среди множества написанных и исполненных песен только немногие заслуживают внимания с точки зрения этой проблемы. Среди них можно выделить отдельные песни групп, такие как «Қарс» («Чипродалли-далли», «Ёр-ёр, ёроней»), «Тошкент» («Бедана»), «Мазур» («Мени ёр дема»), «Нола» («Назокат», «Сесан севарим»), «Шахзод» («Ўйнайсан», «Келинчак»), «Сидериз» («Унутма»), «Аср» («Қурбон бўламан»). Однако в большинстве случаев так называемый «национальный стиль» оказывается поверхностным, а по сути – художественно примитивным, «слепым» подражанием зарубежной эстраде.

Не секрет, что в рассматриваемый период в эстраду пришло множество любителей, не обладавших достаточной музыкальной грамотностью. Среди них есть те, кто быстро добился популярности, «завоевав» большие сцены. Заниматься искусством молодёжи – это, конечно, хорошо. Однако не стоит забывать, что «большая сцена», рассчитанная на миллионы слушателей, требует от каждого талантливого артиста огромной ответственности. Сегодня эстрада также превратилась в одну из таких больших сцен, а это значит, что каждый певец или группа, работающие в её рамках, должны обладать определённым уровнем мастерства и теоретической подготовки. Знание богатого музыкального наследия нашего народа – народных песен и мелодий, а также классических макамов, – все это является одним из важных показателей.

На наш взгляд, одной из причин, почему многие эстрадные исполнители или группы решают проблему «национального стиля» через подражание и следование образцам зарубежной эстрады, является их неспособность глубоко прочувствовать узбекскую национальную музыку. Более того, им зачастую не хватает необходимых знаний и практических навыков в этой области.

Если обратить внимание на творчество большинства молодых исполнителей на эстрадной сцене, можно заметить, что они чаще бессознательно копируют и подражают. Вроде бы «что в этом плохого?». На наш взгляд проблема в том, что вопрос национальной интонации играет крайне важную роль в воспитании молодого поколения на основе национальных ценностей. В этом контексте мы хотим обратиться к словам профессора Абдурауфа Фитрата из его книги «Узбекская классическая музыка и её история»: «При записи наших мелодий с помощью нот при поддержке европейских музыковедов старайтесь не следовать методам записи европейской мелодики. Пусть наши мелодии сохраняют свой собственный стиль, не теряя своей этнографической ценности и узбекской самобытности (В.А.Успенский имеет в этом большой опыт)» [2].

Таким образом, национальная мелодия – это важный социально-духовный фактор. Высококачественные музыкальные произведения, пропитанные национальным колоритом, будь то песня, напев или другой музыкальный жанр, позволяют народу чувствовать себя единым целым. Это также имеет огромное значение в формировании

национальной идеологии независимого Узбекистана.

Сегодня, когда музыкальная эстрада занимает центральное место на самых больших сценах и находится в центре внимания всей нации, к ней необходимо подходить с большой ответственностью. Это означает, что каждый артист на эстраде должен осознавать высокое искусство исполнения.

Национализация музыкальной эстрады подразумевает глубокое освоение национальных музыкальных традиций, достижений нашего музыкального наследия, развивавшихся веками, а также способность органично интегрировать достижения мировой эстрадной музыки, подчиняя их национальному стилю. Это вопрос, который может быть решён только благодаря творческой смелости великих артистов.

Во многих произведениях известных эстрадных исполнителей мы также наблюдаем следование или подражание известным мировым хитам. Таким образом, создание национального стиля в музыкальной эстраде прежде всего связано с практическим и научным изучением национального музыкального наследия. Во-вторых, это требует осознания мировых достижений в эстрадной музыке с точки зрения национального стиля и их умелой адаптации. Для более чёткого понимания этого процесса уместно привести следующее параллельное сравнение.

Великий талант, властитель газелей Алишер Навои, наряду с богатством тюркской лексики, использовал персидские, индийские и греческие слова. Но если бы он просто следовал этим словам и их стилям, не стремясь раскрыть их суть в контексте языка, его наследие не было бы для нас

столь ценным. Великая заслуга Алишер Навои в том, что он заимствовал достижения поэтических стилей других древних поэтов, но так органично интегрировал их в тюркский язык, что эти иностранные элементы стали служить узбекской поэзии. Такая адаптация под силу только гениальным талантам.

В музыке также наблюдаются подобные явления. Например, в наших макамах присутствуют такие ладовые ступени, как Ирак, Исфакан, Хиджаз, Рок и другие [3]. Однако не стоит думать, что эти ладовые ступени произошли из Ирака или других регионов. Они были популярными в других странах Востока, но в нашем музыкальном наследии макамы с названиями других стран звучат как свои собственные. Почему это происходит? Потому что наши великие устозы – мастера переработали музыкальные элементы других народов с точки зрения национального стиля, подчинив их узбекскому музыкальному искусству.

Часто встречаются такие примеры в таких произведениях как «Курбон ўлам» на стихи Фузули, «Жазоир» или даже «Андижанская полька», были интерпретированы узбекистанскими артистами в национальном духе. Музыка, способная передавать разнообразные состояния души, она формирует эстетический вкус человека и возвышает его духовность. Поэтому слушатель в таких произведениях находит не только отражение своих личных переживаний, но и черты, которые обогащают его душу. Это – результат творчества великих талантов. Именно поэтому такие примеры остаются ценными и продолжают занимать достойное место в музыкальном наследии.

Чувство национальной интонации тесно связано с интонацией речи каждого народа. Игнорирование этой связи, а также грубое нарушение тонких связей между ними через пропаганду лёгких и поверхностных песен может в конечном итоге снизить ценность национального в музыкальном наследии в глазах общества. Молодёжь, отдалённая от национальных мелодий и воспитываемая на чуждых мотивах, со временем может утратить способность понимать и ценить народные узбекские песни. Последствия такого духовного отчуждения сложно даже представить. Таким образом, отдаление от национальных мелодий в определённой степени означает и отдаление от национальных ценностей.

Для более ясного понимания этого можно привести пример. Известно, что в школах во времена бывшего Союза узбекской музыке уделялось крайне мало внимания. Это было неслучайно. Человек, чьё сердце наполнено национальными мелодиями, быстрее осознаёт ценность своей нации и начинает гордиться своей национальной идентичностью. Национальные мелодии можно назвать «семенами», которые с детства сеются в нашу душу через колыбельные песни матери и многовековые обрядовые напевы. Колонизаторы прекрасно это понимали [4].

Поэтому, несмотря на частые заявления о том, что музыка является инструментом эстетического воспитания, учебные программы и пособия того времени были составлены так, чтобы максимально исключить влияние национальной музыки [5]. Утверждалось, что европейская и русская классическая музыка,

необходимы как воздух и вода для воспитания детей в духе интернационализма. При этом образцы национальной узбекской музыки считались незначительными и маловажными.

В настоящее время ситуация кардинально изменилась. На сегодняшний день музыкальная эстрада стала, если можно так выразиться, основным «носителем» интонаций. В таком случае, в интересах нашей независимости и укрепления приоритетных направлений национальной идеологии необходимо развивать музыкальную эстраду в соответствии с этой целью.

Не стоит забывать, что мы, узбекский народ, являемся наследниками макамов. Маком – это наше духовное богатство, заключённое в прекрасных мелодиях. Таким образом, наш народ богат мелодиями и уникальными ритмами. Следовательно, музыкальная эстрада также должна быть насыщена духовными интонациями и утончёнными ритмами. Как мы связываем поэзию и литературу с Хазратом Алишером Навои, а архитектуру – с прекрасными древними памятниками, так и узбекская музыкальная эстрада должна ассоциироваться с уникальными, изысканными восточными мелодиями, наполненными красотой и оригинальностью.

Ещё один аспект, связанный с восприятием национальных мелодий и ритмов, касается тенденции исполнения народных песен или классических макамов в эстрадной манере. Однако в этом подходе часто ощущается недостаточное знание традиций [6]. На самом деле уникальные народные песни – это «чистые родники» художественного

творчества. Если эстрадные исполнители и «творцы» не обладают глубоким пониманием национального наследия и не получили должного наставничества, они могут превратить даже редкие народные песни в безвкусные произведения из-за поверхностной переработки. Поэтому к музыкальному наследию необходимо подходить с особой ответственностью.

Стоит отметить, что в зарубежной эстраде также были времена, когда произведения классических композиторов, таких как И.С. Баха, В.А. Моцарта, Л. Бетховена и других, исполнялись в эстрадной манере, сильно упрощались и иногда утрачивали свою художественную ценность [6].

В этом отношении заслуживает внимания подход русских композиторов, таких как В. Успенский, Р. Глиэр, В. Козловский, Г. Мушель, которые внесли значительный вклад в

формирование узбекской композиторской школы. Эти композиторы, приехав в Узбекистан, не спешили сразу создавать произведения на основе национальных мелодий. Вместо этого они, в первую очередь, знакомились с народными бастакорами, певцами и музыкантами, слушали их исполнение и тщательно изучали узбекские мелодии. Лишь после этого используя художественные методы они начинали с осторожностью перерабатывать образцы музыкального наследия. Позже они создавали произведения в крупных жанрах «необычной» композиторской музыки, таких как опера, музыкальная драма, симфония и другие. Их стремление к глубокому изучению национальных музыкальных традиций и осознанию их художественной ценности, а также применение этих знаний на практике является примером для всех творцов музыки.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Беков О.А., Муллажонов Д.М. “Ўзбек миллий эстрадаси”. Ўзбекистон санъати (1991-2001 йиллар). Тошкент, “Шарқ” нашриёти-матбаа акциядорлик компанияси, 2001 й., 139-140 бб.
2. А.Фитрат. Ўзбек классик музыкаси ва унинг тарихи. Тошкент, “Фан” 1993 й., 52 б.
3. Ражабов И. Мақомлар. Тошкент, “SAN`AT” нашриёти, 2006 й., 246, 259 бетлар.
4. Забродин Г.Д., Александров Б.А. Рок искусство или болезнь? М., “Советская Россия” 1990 г., стр. 4.
5. Иброҳимов О.А. “Миллий тарбиянинг музыка асослари”. // Журнал “Соғлом авлод учун” 1997 й., №7., 7-8 бб.
6. Муллажонов Д.М. Ўзбек эстрадасида музикаий мерос талқини. // Журнал “SAN`AT” 2002 й., №4., 38-39 бб.

О‘ЗБЕК КИНОКОМЕДИЯЛАРИДА ФOLKLOR AN‘ANALAR
FOLKLORE TRADITIONS IN UZBEK KINOKOMEDIAS
ФОЛЬКЛОРНЫЕ ТРАДИЦИИ В УЗБЕКСКИХ КИНОКОМЕДИЯХ

Muhayyo Muxtorova

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti
katta o‘qituvchisi, san‘atshunoslik fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek kinokomediyalarining shakllanish davrida eng muhim rol o‘ynagan filmlarda, qahramonlarning xarakterini ochishda folklor an‘analarning o‘rni va ahamiyati borasida taxlilij fikrlar keltirilgan.*

***Аннотация:** В статье узбек рассказывает о важной роли, которую он сыграл в фильме, о героях, о характере традиционного фольклора и о значении анализа кельтской мысли.*

***Annotation:** In the article, the Uzbek talks about the important role he played in the film, about the characters, about the nature of traditional folklore and the importance of analyzing Celtic thought.*

***Kalit so‘zlar:** kino, kinokomediya, film, qahramon, xarakter, folklor, janr, milliy g‘urur.*

***Ключевые слова:** кино, кинокомедия, кинофильм, герой, характер, фольклор, жанр, миллий гордость.*

***Key words:** cinema, comedy, motion picture, hero, character, folklore, genre, milli pride.*

O‘zbekiston kino san‘atida komediya janridagi filmlar shakllanishida milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, folklor an‘analarimizning kinoda aks etishi, albatta o‘zlikni anglash, milliy g‘ururni uyg‘otish shuningdek, siyosiy mafkurani xalq ongiga singdirishga bo‘lgan urinishlar bilan bog‘liq edi. Bir tomondan komediya janridagi filmlar tomoshabopligi bilan ustunlikka ega bo‘lsa, boshqa tomondan xalqning askiyaga, xazil-mutoyibaga bo‘lgan moyilligi bu janrdagi filmlarning xalq orasida tezda ommalashishiga olib keldi. Shu sababli ham rejissyorlar bu janrga qo‘l urar ekan, xalqning ko‘ngliga yaqin bo‘lgan folklor an‘analardan “unumli” foydalanishga, ularni voqealar rivojida,

obrazlar xarakterida, rassom ishi va musiqada ham namoyish etishga urindilar.

O‘zbek kinokomediyalari avval boshda xalq najotkorlarini aks ettirish, xalqqa umid berish, sinfiy tengsizlikka qarshi isyon, mehnatkashlarning “yorqin hayoti”ni ifodalash kabi g‘oyalarni komik tarzda o‘zida singdirish bilan boshlangan bo‘lsa-da, keyingi yillarda suratga olingan komediyalarda ko‘tarinki ruhiyat, kelajakka ishonch, har sohada yoshlarning o‘rni, yoshlarning orzu-umidlari musiqiy bezaklar bilan ekranga olib chiqildi. Yo‘ldosh A‘zamov tomonidan 1958-yilda suratga olingan “Maftuningman” (Turob To‘la va Mixail Melkunov ssenariysi asosida) kino kartinasi shunday

filmlarning debochasi bo‘ldi deyish mumkin.

“Maftuningman” film ichida film tarzida suratga olingan bo‘lib, uning syujetida suratga olinishi rejalashtirilayotgan yangi film uchun yosh va go‘zal iqtidor egalarining xalq orasidan izlanishi bilan bog‘liq voqealar ko‘rsatiladi. Yosh va iqtidorli bo‘lgan turli sohaga oid yoshlarning bir filmda suratga tushish uchun Respublikaning turli viloyatlaridan kelib, bir yerda tanishishlari va bu tanishuvning ularning kelajagida katta burilish yasashi kabi voqealar katta qiziqish bilan qabul qilindi.



Jamiyatda yoshlarning o‘rnini mustahkamlash va ularda o‘zlariga bo‘lgan ishonchni kuchaytirish kabi g‘oyalar ilgari surilayotgan vaqtda “Maftuningman” filmi ham aynan shu jihatlarni o‘zida singdiradi. Filmida komik ruhiyat dialoglarda ham, harakatlarda ham, hattoki rasmlarning “jonlanib” so‘zga kirishida ham kuzatiladi.

Film “muvaffaqiyatiga asosiy sabab u rangli, musiqiy-lirik komediya” [1. 286-b.]. bo‘lish bilan birga romantik unsurlarga ham ega. Zero, ikki muhabbat liniyasining shakllantirilishi va film yakunida bu ikki juftlikning orzulari ushalishi bilan bog‘liq hodisalar tomoshabinlarga ham ko‘tarinki kayfiyat uyg‘otadi. Shuningdek, o‘lmas mavzulardan bo‘lgan muhabbat va shu mavzu atrofida kechadigan qiziqarli voqealar qahramonlarning romantik qiyofasini ochish barobarida, filmga romantik kayfiyat ham beradi.

Filmida milliy kolorit an‘analarda, munosabatlarda, liboslarda va

xarakterlarda ham ko‘zga tashlanadi. Jumladan, Usmon Turdiyevich (Nabi Rahimov)ning “Ertagayoq Yulduzni Toshkentga jo‘nating” deganda tikuv fabrikasi rahbari (Sabohat Karimova) “Ertagayam, indingayam ketolmaydi. Qizlarim har chorshanba radioda konsert berishadi, ishchilar o‘rganib qolishgan, kutishadi,” – deydi. Yoki Usmon Turdiyevich Xorazmda Sharif Jumaniyozov (San‘at Devonov) va uning hamkasblarini “Hammasini olamiz”, deganida rais “Iya, paxtaga o‘zlari qaraydilarmi?”, – deb mas‘uliyatni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bundan anglash mumkinki, tikuvchi qizlarning har chorshanba konsert berishi bir an‘anaga aylanib qolgan bo‘lsa, tomoshabinlarni o‘ylash ishchilarga nisbatan hurmat, o‘sha davr odamlari uchun mas‘uliyat va majburiyat birinchi o‘rinda ekani berib ketilgan.



Liboslarda ham atlas, adras kabi matolardan keng foydalanilgan, hatto, yigitlarning belida belbog‘larida ham milliy bo‘yoqlarga urg‘u berilgan bo‘lib, shu detallar filmga milliy kayfiyat bergan. Qahramonlar ko‘rinishi ham o‘zbekona qiyofada bo‘lib, bu filmni tomoshabiniga yana-da yaqin, yana-da qadrdon bo‘lishiga xizmat qilgan. Filmdagi har bir qahramon xoh u ishchi bo‘lsin, xoh traktorchi yoki tikuvchi o‘ziga xos xarakterga ega bo‘lib, san‘atsevar qilib ko‘rsatilgan. Bu esa xalqimizning san‘atga bo‘lgan muhabbatini va hurmatini ifodalash bilan bir vaqtda san‘at turlarini targ‘ib qilish

ham koʻzda tutilgandek taassurot uygʻotadi.

Bakir Nazarov (Turgʻun Azizov) va Zamira (Raʼno Hamraqulova) tandemi oʻziga xos kontrastda koʻrsatiladi, biri qishloqning sodda va samimiy yigiti boʻlsa, boshqasi tibbiyot institutini tugatgan boʻlishiga qaramasdan qishloqqa berilgan yoʻllanmani mensimasdan, aktrisa boʻlishni orzu qilgan kalandimogʻ qiz. Yulduz Xoʻjaeva (Klara Jalilova) va Sharif Jumaniyozov (Sanʼat Devonov) juftligi ham mutlaqo teskari. Yulduz – uyatchan, oʻziga ishonchsiz va tortinchoq tabiatli boʻlsa, Sharif – choʻrtkesar va dangal tabiat. Ularning dunyoqarashlarida shuncha tafovut boʻlishiga qaramasdan rejissyor mana shu juftliklar orasida iliq tuygʻularni shakllantiradi va tomoshabinni ham bunga ishon tiradi.

Shuningdek, Zamira va Yulduz, Bakir va Sharif obrazlari bilan oʻz davri yoshlarining dunyoqarashlari, ularning oʻy-fikrlari olib chiqilishi barobarida, yoshlar va kattalarning dunyoqarashlari oʻrtasidagi tafovut ham aks ettirilganligi uni tomoshabinga yanada yaqinroq boʻlishiga xizmat qilgan. Zamirani otasi (Razzoq Hamroev) “Qizing meditsina institutini tugatdi, Fargʻonaga yoʻllanma oldi. Endi boʻlsa, ona-bola davlatni aldash bilan ovora.” – degan gaplaridan bunday ziddiyatni bilish mumkin. “...“Maftuningman” (Y.Aʼzamov, 1958), “Mahallada duv-duv gap” filmlari qiziqarli va kinokomediyaning eng yaxshi anʼanalari boʻyicha suratga olingan. 1950-yillarning oxiri va 1960-yillar boshidagi komediyalar ijtimoiy muammolarning yechimini yengil tarzda ifoda etdi”[3. 30-b.].

Filmda musiqa vaziyat va xarakterlarni ochishda juda mos tanlangan.

Kompozitorlar I.Akbarov, M.Burxonov, M.Leviyev tomonidan yaratilgan musiqalar va qoʻshiqlar har bir qahramon xarakterini toʻla ochgan va qoʻshiqlardagi quvnoq aytishuvlar ham filmning badiiy yaxlitligiga xizmat qilgan. Natijada bu kuy-qoʻshiqlar tomoshabinlarning eng qadrdon oxanglari sifatida ularning koʻnglidan joy olib, oradan necha yil oʻtgan boʻlishiga qaramasdan xirgoyi qilib kelinmoqda. Hattoki, xonandalar tomonidan turli bayram va tomoshalarda qayta kuylanmoqda. Bu esa kompozitorlarning mahorati va film bilan musiqa (qoʻshiq) bir-birin toʻldirganligining isbotidir. Yana bir eʼtiborli jihat oʻsha davr komediyalarida muallifning filmda bevosita ishtiroki hali qoʻllanilmagan boʻlib, aynan “Maftuningman” kartinasida bu borada ilk tajriba – epilog kiritilgan. Muallif yoshlarning syomkalardan soʻng oila qurib, Fargʻona va Xorazmga qaytganligini aytib oʻtadi. Keyinchalik esa epilog boshqa bir qator kinokomediyalarda ham kuzatildi.

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, oʻzbek kinosi tarixida Yoʻldosh Aʼzamov, Latif Fayziev, Shuhrat Abbosov, Damir Salimov, Ali Hamroyev, Ravil Botirov, Melis Abzalov, Eduard Xachaturov, Isamat Ergashev kabi rejissyorlarning ijodiy faoliyati, izlanishlari tufayli milliy kinokomediyaning oʻziga xos shakli va yoʻnalishi vujudga keldi. Rejissyorlarning shaklan rang-barang yondashuvlariga qaramay, mohiyatan milliy komediya xalq vakillarining oʻziga xos xarakterlarini ochib berishga xizmat qilib, insoniy tuygʻular ifodachisiga aylandi. Bunda folklor anʼanalardan unumli foydalanish muhim rol oʻynadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абулкасымова Х. Тешабаев Д. Мирзамухамедова М. Кино Узбекистана. – Т.: Издательство литературы и искусства имени Г.Гуляма. 1985. 286-б.
2. Абулқосимова Х. Кино санъати асослари. – Тошкент: М.Уйғур номидаги ЎзДСИ, 2008. – 98 б.
3. Каримова Н. “Ўзбекистон бадиий кинематографининг шаклланиши ва тараққиёти”/ С.Ф.Д.диссертацияси автореферати.Т.: 2019 й. 30-бет.
4. Мухторова М.Мелис Абзалов: The problem of time and hero. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. Belgium, 2023. P. 25.
5. Мухторова М. Ўзбек кинокомедияси 80 ёшга тўлди! Замонавий илм-фан ва таълим истиқболлари. Илмий-амалий конференция материаллари тўплами. 06.10.2023. 190-196-б.
6. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8412728>

**ZAMONAVIY SENOGRAFIYA MASALALARI VA SPEKTAKLLARDA
RASSOMNING O'RNI
РОЛЬ ХУДОЖНИКА В ВОПРОСАХ СОВРЕМЕННОЙ СЦЕНОГРАФИИ И
СПЕКТАКЛЕЙ
THE ROLE OF THE ARTIST IN MODERN SCENOGRAPHY ISSUES AND
PERFORMANCES**

Feruza Kobilova

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy
rassomlik va dizayn instituti,
“San’at tarixi va nazariyasi”

kafedra katta o‘qituvchisi, s.f.f.d., (PhD)

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada, O‘zbekiston qo‘g‘irchoq teatrlarida zamonaviy ssenografiya transformatsiyasi nisbiylikda shakllanayotgani borasida so‘z boradi. Qo‘g‘irchoq teatrlarining bugungi ko‘rinishi Sharq va G‘arb qo‘g‘irchoq teatrlarining o‘zaro bir biriga ko‘rsatgan ta’siri natijasidir. S.V.Obraztsov boshchiligida kirib kelgan Yevropa tipidagi qo‘g‘irchoq teatrining akademik xususiyati saqlanib kelmoqda. XXI asrning boshlarida teatr spektakllarining intellektual boyishi kichik yoshli tomoshabinlardan kattalar auditoriyasiga qisman o‘tishga olib keldi. Bunday falsafiy yoki ijtimoiy tag ma’noli spektakllar 20 asr ikkinchi choragida zamonaviy tipdagi qo‘g‘irchoq teatri o‘z qoidalari bilan kirib kelguniga qadar Sharq xalqlarida mavjud bo‘lgan an’anaviy qo‘g‘irchoq teatrlarining birlamchi vazifasiga qaytishiga olib keldi.*

***Аннотация:** В данной статье изучены вопросы, касаемые процесса трансформации современной сценографии кукольных театров Узбекистана. На сегодняшний день, облик кукольных театров, является результатом симбиоза Западных и Восточных культур. В главе С.В.Образцова, сохранился тип академического Европейского кукольного театра. В начале 21 века театральные спектакли интеллектуально обогатились, в следствии чего, контингент изменился из юных зрителей на взрослую аудиторию. Такие спектакли с философским и социо-культурным контекстом, во второй четверти 20го века, привели к тому, что до того как пришли в обиход современные кукольные театры со своими канонами, имеющиеся традиционные кукольные театры Восточных народов вернулись к своим основным функциям.*

***Annotation:** This article examines issues related to the process of transformation of modern scenography of puppet theaters in Uzbekistan. Today, the appearance of puppet theaters is the result of a symbiosis of Western and Eastern cultures. At the head of S.V.Obraztsov, the type of academic European puppet theater has been preserved. At the beginning of the 21st century, theatrical performances were intellectually enriched, as a result of which the contingent changed from young spectators to an adult audience. Such*

performances with a philosophical and socio-cultural context, in the second quarter of the 20th century, led to the fact that before modern puppet theaters with their own canons came into use, the existing traditional puppet theaters of the Eastern peoples returned to their main functions.

Kalit soʻzlar: transformatsiya, tovush, musiqa, maxsus effekt, konstruktsiya.

Ключевые слова: Трансформация, звук, музыка, спецэффект, конструкция

Key words: Transformation, sound, music, special effect, design.

Zamonaviy sanʼat avvalgi funksiyalarini yoʻqotib bormoqda va uning ijtimoiy hayotdagi roli mutloq oʻzgarib bormoqda. Birinchidan, hayot surʼatining sezilarli tezlashishi sababli zamonaviy inson mumtoz sanʼatga xos jiddiylik, mulohazakorlikni idrok etishga, borliq haqidagi abadiy savollar haqida tafakkur qilishga vaqt topa olmayotgani natijasida oʻyin-kulguni afzal bilishi, asosan zavq va tez taassurotlarini qidirish qoʻgʻirchoq teatr repertuarlarining mazmunan va shaklan transformatsiyasiga jiddiy taʼsir koʻrsatmoqda. Ikkinchidan, zamonaviy hayotning deyarli barcha sohalarining umumiy tijoratlashuvi qoʻgʻirchoq teatri sanʼatiga ham zararli taʼsir koʻrsatdi. Respublikadagi davlat teatrlari byudjetning taqchil mablagʻlari hisobiga nochor ahvolga tushib qoldi. Natijada, spetsifik sahna, yoritilish va uskunalarga ega boʻlmagan bogʻcha, maktablarda sayyor qoʻgʻirchoq teatr truppalari “jon saqladi”. Shuningdek, jahon miqyosida sanoatning rivoji, yangidan yangi teatr badiiy gʻoyalarini va estetik oqimlar, qoʻgʻirchoq tayyorlashda yangi xom ashyo va texnologiyalarning paydo boʻlishi yarim professional qoʻgʻirchoq kabarelari hamda teatrlarining rivojiga taʼsir koʻrsatdi. Bularning barchasi qoʻgʻirchoq teatrlari oʻz funksiyasini qayta koʻrib chiqishi, spektakl mavzusi va tomosha usullarini oʻzgartirish masalasini koʻndalang qoʻydi. Bugungi kunda teatr transformer spektakllar yaratishni boshladi (“Soya”,

“Choʻp qoʻgʻirchoq”, “Shiroq”, “Yurt tumori – Toʻmaris”, “Bahrom va Dilorom”, “Gurgut ushlagan qizcha”, “Chodir hayol” spektakllari). Sahnalashtirilgan asarlarda zamonaviy audiovizual effektlardan foydalanilmoqda. Yorugʻlik oʻyinlari, tovush va shovqinlar, videoproeksiyalar tomoshabinlarni hayolot olamiga olib kirishga, tasviriy yechim va qoʻgʻirchoq liboslari asar gʻoyasini chuqur anglashga yordam beradi. Spektaklda ishlatilgan qoʻgʻirchoqlar zamonaviy teatrning imkoniyatlari va shakllari turli tuman ekanligini koʻrsatadi. XXI asrning boshlarida teatr spektakllarining intellektual boyishi kichik yoshli tomoshabinlardan kattalar auditoriyasiga qisman oʻtishga olib keldi. Bu oʻz navbatida XX asr ikkinchi choragida zamonaviy tipdagi qoʻgʻirchoq teatri oʻz qoidalari bilan kirib kelguniga qadar Sharq xalqlarida mavjud boʻlgan anʼanaviy qoʻgʻirchoq teatrlarining birlamchi vazifasiga qaytishiga olib keldi.

Oʻzbek Milliy qoʻgʻirchoq teatri repertuaridan katta yoshdagi tomoshabinlar uchun sahnalashtirilgan spektakllar ham mavjud. Ular orasida teatr tarixida 30 yilda ilk marotaba qoʻyilgan rus dramaturgi Yevgeniy Shvartsning “Soya” Pyesasi asosida Dinara Yuldasheva tomonidan sahnalashtirilgan shu nomli spektaklni alohida eʼtirof etish mumkin. Asosan kino va teatr postanovkalarida qoʻyilgan mazkur Pyesa ilk marotaba 2010 yilda qoʻyilgan va hattoki ayrim

sabablarga ko‘ra premyerasi ham bo‘lmagan, jamoaviy ko‘rik bilan yakuniga yetgan. Ammo, yetti yildan so‘ng fashizm mavzusi dolzarblashadi va 2017 yilda keng tomoshabinlar e‘tiboriga havola etiladi. Spektakl inson va hokimiyat, yolg‘on va haqiqat, bilim va jaholat, sadoqat va xiyonat, mehr va shavqatsizlik, g‘azab, tuhmat kabi abadiy mavzularni ochib beruvchi falsafiy ertakdir. D.Yuldasheva mazkur mavzuga murojatining asosiy sababini quyidagicha izohlaydi: “Soya”da g‘ayrioddiy insoniy “Men”i bor va inson uni qay tarzda bo‘ysundirishi noma‘lum. Bu uni to‘liq mahv etdi degani emas, ammo Soyani chiqib ketishiga va hokimiyatni egallashiga yo‘l qo‘ymaslikka harakat mavjud. Chunki, Soya hokimiyatni zabt etsa, bu nafaqat xalq, balki butun mamlakatlar fojeasidir. Insonni asl maqsadidan chalg‘ituvchi narsalar, jaholat, shaxsiyatga “soyalarning” ta‘sir talafoti bugungi kunda dolzarblashgan”. Spektakl og‘ir va jiddiy mavzuni ko‘targan bo‘lsa-da, myuzikl ertak janrida o‘yin-kulgu kesimida taqdim etilgan. Spektakldagi bitta qahramon-qo‘g‘irchoq uchta aktyor tomonidan boshqariladi – bu aktyorlar birligi, ularning hamkorlikda ijod qilishligi namoyonidir. “Ular yaxlit organizmdек fikr yuritishi kerak”, deydi aktyor Saidmurod Jo‘raev. Shunday qilib qo‘g‘irchoq teatrida ifodaviylik yetakchilik qilib rejissyor, rassom, aktyor, tomoshabin tuzilishida transformatsiyaga uchradi. So‘nggi o‘n yillikda teatrdagi yangi repertuar vazifalari yechimi, dramaturgiyasining rivoji va boyib borishi uning moddiy-texnik bazasini takomillashtirish va rivojlantirish bilan parallel kechmoqda. Pyesaning syujet qurilishi qanchalik murakkab bo‘lsa, qahramonlar xarakterining psixologik to‘yinganligi qanchalik rang-barang bo‘lsa pirovard natijada qo‘g‘irchoqlar, ularning

o‘yin imkoniyatlari va texnik kamolotiga shu qadar talab ortadi. Tabiiyki, qo‘g‘irchoq teatrida repertuarining kengayishi, uning texnikasining rivojlanishi aktyorlik va rejissyorlik mahoratining, umuman qo‘g‘irchoq teatrining butun badiiy madaniyatining yuksalishi bilan yonma-yon kechadi.

Shuningdek, so‘nggi yillarda sahnalashtirilayotgan spektakllar sahnaviy yechimi tomoshaviylikga katta ta‘sir ko‘rsatib rejissyorning bosh g‘oyasini tomoshabinga to‘liq ochib berishda birlamchi vazifani egalladi. Rassom yaratgan sahnaviy yechim va qo‘g‘irchoqlarning individ obrazlari mahoratli aktyorlar tomonidan “jonlanib”, tugal sifatli spektakllar yaratilmoqda. Ayniqsa, qo‘g‘irchoq teatrining ssenografiyasida eng muhim komponent bo‘lgan ovoz, tovush qo‘llanishi juda ham muhim. Bugungi o‘zbek qo‘g‘irchoq teatri asosan yosh tomoshabinlar auditoriyasiga mo‘ljallanganligi uchun aynan musiqa bolalar asarni chuqurroq anglashiga hamda asosiy voqealarni eslab qolishiga yordam beradi. Mustaqillik yillarda ijodiy faoliyatini olib borgan rejissyor Sh.Yusupov, F.Xodjaev, D.Yuldasheva, stsenograf V.Akudin, S.Seduxin, M.Ivanyan, M.Ro‘zmetova, V.Apuxtin va kompozitor A.Ikromovlar hamkorligi, ijodiy birligi mumtoz va zamonaviy asarlar talqinlarida turli tajribalar o‘tkazib, milliy, ma‘naviy qadriyatlarni tiklashda xizmat qilishmoqda. Ijodiy jamoaning hamjihatligi, hamkorligi, bir tandem va konsepsiya asosida ijodiy hamkorlikda ishlash spektakl muvaffaqiyatining yana bir asosiy omili sanaladi. Bunda muvaffaqiyatli “uchlik”ni; rejissyor Sh.Yusupov, sahnalashtiruvchi rassom V.Akudin va bastakor A.Ikromovning ijodiy hamjihatligi, hamfikrlikda yaratgan asarlarni alohida e‘tirof etmoq darkor. Ular yaratgan ko‘plab spektakllar bugungi

kungacha repertuarlardan tushmay kelmoqda. Rejissyorning oliy maqsadi, bosh g'oyasi uchun tasvir va musiqalardan o'rinli yechim taklif qilgan mazkur ijodkorlar bugungi kundagi zamonaviy qo'g'irchoq teatrini rivojlanishida bemisil xizmat qilishdi. Bundan tashqari bastakor Alisher Latifzoda yaratgan musiqalar xam o'z xalqchilligi bilan ajralib turadi ("Shum bolaning sarguzashtlari" rejissyor M.Ashurova, rassom M.Ivonyan). U yaratgan musiqalar tasvirga xamohang holda, obraz fe'l-atvorini yorqinroq ochishda, asar g'oyasini ifodalashga xizmat qilgan.

Rejissyor D.Yuldasheva, rassom S.Seduxin, bastakor A.Ikromov hamkorlikda yaratgan "Yana Andersen" spektakli xam mana shunday muvaffaqiyatli asarlardan biridir. Rassom S.Seduxinning yaratgan muhiti, iztirobli qalbning berahmlilik, beparvolik hukm surayotgan davrning qurboniga aylanayotgani, spektakl avvalidanoq fojea muqarrar ekanligini ko'rsata oladi. S.Seduxin dramatik ruhga mos tasviriy, ifodaviy vositalardan iborat badiiy yechim izlab topgan. Misol uchun, ishlatilgan effektli pristavkalar – bu tabiiy yog'ingarchilik (qor, yomg'ir, yong'in)larni ifodalovchi illyustratsiyalardir. Mazkur pristavkalar murakkab sahnaviy texnik jarayon bo'lib, kuchli ifodaviy hissiyotni uyg'otadigan, dinamik proyeksiyadir. O'zganing g'amiga beparvo olomon ko'rinishi asarning bosh g'oyasini ochishda xizmat qilgan. Bunda asosiy shirma ortidagi yordamchi shirma dekoratsiyalarida o'zi bilan ovora olomon uylaridagi xursandchiliklar, oilasi bag'riga shoshayotgan obrazlardan unumli foydalanilgan. Spektakl ruhiy holati o'ta iztirobli damlarda chiroqlarning yoritilishi va qo'llanilgan musiqa yordamida kuchaytirilgan. Spektaklda tasvirlar

musiqa maxsus effektlari yordamida boyitilib, voqelikni ta'sirchanligi oshirilgan.

Tovush va shovqinlar dekoratsiya, ijro, voqea izchilligini to'ldiruvchi asosiy komponentga aylanib bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Tovush va shovqinlar; tabiat tovushlari (yomg'ir, shamol, qushlar sayrog'i, momaqaldiroq); ishlab chiqarish tovushlari (zavod, fabrika); transport shovqinlari (avtobus, poezd, samolyot); batal shovqinlar (o'q tovushi); maishiy shovqinlar (soat, pol g'irchillashi, oyna jarangi) kabi bir necha turlarga bo'linadi. Mazkur tovush va shovqinlar bir necha tipdagi spetseffektlarda qo'llanadi. Tovushli spetseffekt asosan bo'lib o'tayotgan voqeani asoslab berishda xizmat qiladigan qadam tovushi, liboslar shitirlashi, idishlar tovushi kabi effektlarga kiradi.

Qo'g'irchoq teatrlarida sahnaga to'g'ri yo'naltiriladigan chiroqlarning ham o'rni katta. Texnologiyaning ta'siri badiiy sahnaviy obrazlarda yangi interaktiv shakllar yaratishda yordam bermoqda. Sahnadagi voqealarning izchilligini, tomoshabin tasviriy yechimni chuqur his qilishida chiroqlarning o'rni beqiyos. Aynan yorug'lik dinamikasi yordamida sahna chegaralarni buzish, murakkab sahnaviy makon yaratish, sahna satxini uzaytirish yoki aksincha kichraytirish mumkin. Yorug'lik dinamikasi deganda, yorug'lik nuri badiiy muhitni svetoproektsiya (dioproektor va epidiaskop yordamida ekranda harakatlanuvchi tasvir effekti), kinoproektsiya va golografiyalar yordamida ta'sir kuchini oshirish tushuniladi. Ssenograf qo'g'irchoqlar tasvirlariga ham o'zgacha yondashgan.

Qo'g'irchoq teatri tarixchisi, Varshava va Belostok akademiyasi professori, UNIMA (Xalqaro qo'g'irchoq teatri xodimlari uyushmasi) komissiyasi a'zosi,

Poznan (Polsha) shahri qo'g'irchoq teatri direktori Marek Vashkel hamkorligida yaratilgan bog'cha yoshdagi va katta yoshli auditoriyalarga mo'ljallangan zamonaviy spektakllar yangi texnik imkoniyat va postmodernik g'oyalardan tashkil topgan bo'lib, ushbu spektakllarda Yaponiya bilan hamkorlikdagi minimalizmda ishlangan spektakllarni, ssenografiya harakati va aktyorlar plastikasiga qurilgan spektakllar, so'zsiz spektakllar va hattoki provakatsiya uyg'otuvchi spektakllarni ko'rishimiz mumkin.

Krasnoyarsk qo'g'irchoq teatrining 80-yilligiga rejissyor Nikola Zavishich, rassom Nataliya Burnos hamkorligida katta yoshli tomoshabinlar uchun "Transformatsiya" spektakli namoyish etildi. Ushbu spektakl zamonaviy va antik tomoshalardagi allyuziyani (kinoya, hazil) yaxshi tushunadigan, avangard san'at bilan tanish bo'lgan tomoshabinlarga mo'ljallangan. O'zbekiston qo'g'irchoq teatrlarida mazkur postmodernistik tendensiyalar afsuski to'liq qo'llanilmaydi. So'ngi yillarda katta yoshli tomoshabinlar uchun mo'ljallangan spektakllar sahnalashtirilayotgan bo'lsada Yevropa va Rossiya teatrlari qo'llayotgan transformatsiyalaridan ortda qolmoqdamiz. "Manqurt" (rej. Sh.Yusupov, ras.Z.Yodgorov), "Shiroq" (rej.Sh.Yusupov, ras.M.Ro'zmetova), "Soya" (rej.D.Yuldasheva, ras.Sh.Abdumalikov), "Yurt tumori To'maris" (rej.Sh.Yusupov, ras.M.Ro'zmetova), "Bahrom va Dilorom" (rej.Sh.Yusupov, ras. V.Apuxtin) kabi spektakllar yangi tendensiyalarni qisman o'zida jamlagan asarlardir. "Bahrom va Dilorom" (T.Mirzo instsinirovkasi) asarida rejissyor Shomurod Yusupov g'oyalarni yoritishda rassom Viktor Apuxtin videoproektsiyadan, yetti rangdagi

saroylarni ifodalashda papemashedan ishlangan gumbazli butaforiyalar ichiga joylangan yetti xil rangdagi chiroqchalardan foydalangan. Chiroq nuri gumbazlarga o'yib ishlangan islmiy naqshlardan spektaklga mistik rux bag'ishlab jilolanadi. Qahramonlar psixologik holatidan kelib chiqib sahnaga qaratilgan asosiy chiroqlar ranglari o'zgarishi sahnaviy makonda hissiyotli atmosfera uyg'otadi. Asarda an'anaviy teatr elementlari bilan birga ovoz, chiroq va performans innovatsiyasi qo'llanilgan. Rejissyorning tanlagan multimediya turlari, ta'sirli musiqa va asarda dekoratsiya almashtirishda raqqosalarning nafis raqslari asar jozibasini yanada oshirgan.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston qo'g'irchoq teatrlarida zamonaviy ssenografiya transformatsiyasi nisbiylikda shakllanmoqda. Jahonda ro'y berayotgan. Qo'g'irchoq teatrlarining bugungi ko'inishi Sharq va G'arb qo'g'irchoq teatrlarining o'zaro bir biriga ko'rsatgan ta'siri natijasidir. Bunday ta'sir bugungi kunda xam davom etib kelmoqda. Yevropa, Rossiya, Yaponiya qo'g'irchoq teatrlarida paydo bo'layotgan yangi tendensiyalar asta-sekinlik bilan O'zbekiston qo'g'irchoq teatrlariga xam o'z ta'sirini ko'rsatmoqda va aksincha. Mintaqamiz qo'g'irchoq teatrlarining sal kam bir asrlik rivojlanishda teatr makonining evolyutsiyasi jamiyatning iqtisodiy tuzilishi ta'sirida kuzatildi. Shunday bo'lsada S.V.Obraztsov boshchiligida kirib kelgan Yevropa tipidagi qo'g'irchoq teatrining akademik xususiyati saqlanib kelmoqda. 21 asrning boshlarida teatr spektakllarining intellektual boyishi kichik yoshli tomoshabinlardan kattalar auditoriyasiga qisman o'tishga olib keldi. Bunday falsafiy yoki ijtimoiy tag ma'noli spektakllar 20 asr ikkinchi choragida

zamonaviy tipdagi qo‘g‘irchoq teatri o‘z qoidalari bilan kirib kelguniga qadar Sharq xalqlarida mavjud bo‘lgan an’anaviy

qo‘g‘irchoq teatrlarining birlamchi vazifasiga qaytishiga olib keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Н.Смирнова. Искусство играющих кукол. Смена театральных систем. М. Искусство. 1983 г.
2. М.Вашкель. Вопросы театра, федеральное государственное научно исследовательское учреждение Государственный институт искусствознания, 2018 (ВАК)
3. Берман Вероника Львовна “Театральная реальность и ее трансформация в эпоху постмодерна (на материале театра кукол)” автореферат диссертациясии, Омск 2009
4. Н.Генсицкая, Н.Клен. Основы кукольной скульптуры. 2009 г/-88 с.: ил- (Серия “История одной куклы”)

**O‘ROL TANSIQBOYEV UY-MUZEYI FAOLIYATINING ZAMONAVIY
RIVOJLANISH ASPEKTLARI**
**СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДОМА-МУЗЕЯ
УРОЛА ТАНСЫКБАЕВА**
**ASPECTS OF THE MODERN DEVELOPMENT OF THE ACTIVITIES OF THE
OROL TANSIKBOEV HOUSE-MUSEUM**

Raxmatullayeva Nigoraxon Nizomiddinovna
O‘zbekiston amaliy san’ati va hunarmandchiligi
tarixi davlat muzeyi bosh mutaxassisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘rol Tansiqboyev uy-muzeyi faoliyatining zamonaviy rivojlanish aspektlari turli maxalliy va xorijiy ko‘rgazmalar, tadbirlar hamda tadqiqot-targ‘ibot ishlari kesimida tadqiq etilgan. Shuningdek, uy muzey so‘nggi yillardagi amalga oshirgan ishlari qamrovi va natijalari muzeyga tomoshabinlarni jalb etishdagi ahamiyatli jihatlari atroflicha tahlil etilgan.*

***Аннотация:** В данной статье рассмотрены современные аспекты развития деятельности Дома-музея Орола Тансыкбаева на стыке различных отечественных и зарубежных выставок, мероприятий и научно-пропагандистской работы. Дом также подробно проанализированы масштабы и результаты работы, проделанной музеем за последние годы, и их значимость для привлечения посетителей в музей.*

***Annotation:** In this article, the aspects of the modern development of the activities of the Orol Tansikboyev House-Museum were studied in the cross section of various special and foreign exhibitions, events and research and propaganda works. Also, the coverage and results of the work carried out by the House Museum in recent years are analyzed in detail about the significant aspects in attracting spectators to the museum.*

***Kalit so‘zlar:** mohir kolorist, birinchi milliy rassom, memorial uy-muzeyi, “Eksperimental she‘riyat” klubi, reekspozitsiya loyihalari, metsenatlik jamg‘armalari, klub, muzey turizmi.*

***Ключевые слова:** опытный колорист, первый национальный художник, мемориальный дом-музей, клуб экспериментальной поэзии, проекты реэкспозиции, фонды меценатства, клуб, музейный туризм.*

***Key words:** skillful colorist, First National Artist, memorial House-Museum, Club “experimental poetry”, reexposition projects, metsenatlik foundations, club, museum tourism.*

O‘.Tansiqboyev XX asr boshida, ilk dastgohli rangtasvir shakllanishi davrida birinchi milliy rassom, mohir kolorist (rangtasvir ustasi) sifatida tan olingan.

O‘.Tansiqboyevning uy muzeyi dastlab O‘zDSMning filiali sanalgan bo‘lib, bugungi kundagi fondining asosini muzey to‘plamidagi asarlar tashkil qilar edi. Bu

muzey uchun katta merosdir, chunki O‘.Tansiqboyev XX asr boshida, ilk dastgohli rangtasvir shakllanishi davrida birinchi milliy rassom, mohir kolorist (rangtasvir ustasi) sifatida tan olingan. O‘z davrining og‘ir masalalariga u munosib tarzda javob qaytarib, rassomning eng yaxshi asarlari esa – milliy madaniyat tarixidagi atoqli ustaning mahoratidan dalolatdir.

“O‘.Tansiqboyevning fenomeni O‘zbekistonda ilk mahalliy milliy rassom sifatida o‘sha davr uchun unikal va vaqtdan ilgari, rivojlanish yo‘lidan o‘zib ketgan hodisa edi. G‘ayritabiiy tezlik bilan u o‘ziga xos, patriarxal yoki diletantcha emas, balki chuqur milliy dunyoqarashli yorqin ijodiy shaxs sifatida shakllandi. 1934 yilning o‘zidayoq moskvalik tanqidchilar uni butun zamonaviy rangtasvir qobig‘ida ko‘rib chiqib “O‘zbekistonlik koloristlarning yetakchisi” deb atashgan. Uning tezlik bilan shakllanishiga shubha yo‘qki umuman boshqa muhit ta‘sir ko‘rsatgan – u shahar muhitida, Toshkentda, faol badiiy hayot shakllanayotgan makonda yashagan va ijod qilgan, yorqin iqtidorli avangard ustalarining so‘zsiz ta‘sirini boshidan kechirgan”[1]. 1934-yilda Moskvada, shundan keyin AQShning Filadelfiya shahrida O‘zbekiston san‘at asarlari bo‘lib o‘tgan. Bu o‘rgazmalarda O‘rol Tansiqboyevning has asarlari namoyish qilingan. Shundan so‘ng bu rassom asarlari “o‘zbek rangshunosligining cho‘qqisi” deb e‘tirof etilgan.

1967-yildan boshlab rassom va uning rafiqasi Yelezaveta Yakovlevna yashagan xonadon uy-muzeyiga aylantirilgan. Uning asarlar, o‘zi foydalangan ish va uy jihozlari shu yerda saqlanadi. Rassomning mazkur uyi 1981-yil 16-yanvardan uy-muzey sifatida faoliyat boshlagan bo‘lsa-da, uning ish

ustaxonasi avvalroq 1978 yildan yodgorlik binosi deb e‘lon qilingan edi[2].

Muzeyda jami 4550 eksponat mavjud bo‘lib, rassomga tegishli bo‘lgan hujjatlar, kutubxonasi va yozishmalari kiradi [2]. Muzey binosi 1967-yilda qurilgan bo‘lib (1965-yildagi Toshkent zilzilasidan so‘ng davlat tomonidan rassom uchun maxsus qurilgan), O‘zbekiston xalq rassomi, O‘zbekiston Badiiy Akademiyasining xaqiqiy a‘zosi O‘rol Tansiqboyev xayotining so‘nggi yillarida, 1967-yildan 1974-yilgacha, ya‘ni oxirgi yetti yil mobaynida ushbu uyda yashab ijod qilgan. O‘rol Tansiqboyev vafotidan so‘ng 1979-yilda rassom yashab ijod etgan uyni muzeyga aylantirish to‘g‘risidagi g‘oya uning rafiqasi Yelezaveta Yakovlevna tomonidan ilgari suriladi va ushbu uyni o‘z loyixasiga asosan ekspozitsiya qilish ishlarini olib boradi. Shu asosida uy jixozlari hamda mavjud asarlarni binonalariga joylashtirib, ekspozitsiya zallari ko‘rinishiga keltiriladi. Shundan so‘ng O‘rol Tansiqboyev uy-muzeyi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashining 1979-yil 13 yanvardagi 838 sonli qaroriga asosan tashkil etiladi. 1981-yil 16 yanvardan boshlab Toshkentdagi O‘zbekiston Davlat San‘at muzeyi filiali sifatida O‘rol Tansiqboyev uy-muzey tomoshabinlar uchun ochiq deb e‘lon qilingan[3].

Tansiqboyev memorial uy-muzeyini uning hayoti va ijodi misolida saqlash, o‘rganish va ommalashtirishga qaratilgan. Muzeyning memorial qismida rassom umrining oxirgi yetti yilini (1967-1974) o‘tkazgan. Galereya qismi 1994-yilda rassom tavalludining 90 yilligi munosabati bilan foydalanishga topshirilgan.[4].

O‘rol Tansiqboyev ijodiy merosini targ‘ib etishni yanada kuchaytirish, O‘zbekiston davlat san‘at muzeyi va

O‘.Tansiqboyev uy-muzeyining xo‘jalik faoliyatini tartibga solish, rassom qalamiga mansub bo‘lgan asarlarning asosiy qismini bir joyda to‘plash, saqlash va ularni ilmiy ro‘yxatdan o‘tkazish maqsadlarida, O‘.Tansiqboyev uy-muzeyining 1999-yil 2 avgustdagi xatiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligining 2000-yil 9 maydagi 111-sonli buyrug‘iga asosan O‘zbekiston davlat san‘at muzeyi tarkibidan chiqarilgan va alohida uy-muzeyi sifatida faoliyatini boshlagan. Shuningdek O‘rol Tansiqboyev uy-muzeyi 2005-2017 yillar mobaynida Madaniyat va sport ishlari vazirligi negizida, 2017-2021 yillar davomida Madaniyat vazirligi, 2021 yilda Turizm va sport vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi, 2022 yilda Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi bo‘ysunuvida va 2023-yildan to hozirgu kungacha O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi tasarrufida faoliyat yuritib kelmoqda[3].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6 apreldagi PQ-5054-son qaroriga asosan tashkil etilgan Turizm va sport vazirligi huzurida o‘z faoliyatini boshlagan Madaniy meros agentligining tizim tashkiloti sifatida muzey yangi rivojlanish bosqichiga o‘tdi. Jumladan shu yildan boshlab O‘.Tansiqboyev uy muzeyi faoliyatini samarali tashkil etish, rivojlantirish, targ‘ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirish, muzeylar faoliyatida katta ahamiyatga ega bo‘lgan madaniy-marifiy va ko‘rgazmali tadbirlar va maqsadli reja hamda ishlanmalar, muzeyning rivojlanishida ilmiy-uslubiy ishlar yangi bosqichga ko‘chdi[5].

Hotira va qadrlash kuni munosabati bilan O‘rol Tansiqboyev va Sergey Yesenin uy-muzeylari hamkorligida "Jasorat" nomli ko‘rgazmali tadbir

o‘tkazildi. Tadbir davomida O‘rol Tansiqboyevning urush yillarini o‘zida aks ettirgan asarlari fotolaridan tashkil topgan ko‘chma ko‘rgazma ham tashkil etildi. Muzeyga tashrif buyurgan mehmonlar nafaqat asarlarni tomosha qilib qolmay, urush yillarida yuz bergan muhim voqealar, jasorat ko‘rsatgan askarlarimiz va shunday olovli yillarda turli millat bolalarini asrab olgan o‘zbek halqining jasorati haqida gapirib o‘tdilar. Shuningdek jasorat ko‘rsatgan va xalok bo‘lgan askarlarimizga atab yozilgan she‘rlar o‘qildi.

"Olovli yillar" ko‘rgazmada O‘rol Tansiqboyev qalamiga mansub ikkinchi jahon urushi yillarida yaratilgan asarlar namoyish etildi. Front orti manzaralarni o‘zida aks ettirgan ushbu asarlar ikkinchi jahon urushi davrida front va front ortidagi voqealarlar haqida so‘zlaydi. Shunday olovli yillarda jasorat ko‘rsatgan askarlarimizni faxr bilan yodga soladi. Ko‘rgazmaga tashrif buyurgan mehmonlar uchun uzoq yillardan beri ilk marotaba namoyish qilingan ushbu asarlar katta taassurot qoldirdi. Uy-muzeyi shuningdek Sergey Yesenin uy-muzeyi bilan hamkorlikda "G‘alabaning o‘chmas mayog‘i" madaniy-ma’rifiy tadbiri tashkil etildi. Tadbirda 9 may Xotira va qadrlash kuni doirasida 1941-1945 yillardagi ikkinchi jahon urushida ko‘p millatli o‘zbek xalqining jang maydonlarida va front ortida ulkan jasorat va matonat ko‘rsatib, fashizm ustidan qozonilgan g‘alabani ta’minlashga munosib hissa qo‘shganligi haqida ma’ruzalar o‘qildi va ularni madx etuvchi she‘rlar tinglandi. Muzeyda "Eksperimental she‘riyat" klubi ham tashkil etilgan. Klub ishtirokchilari insoniyatning asosiy ekzistensial muammosini mumtoz va zamonaviy adabiyot prizmasi orqali ko‘rib chiqadilar.O‘z adabiy mulohazalari bilan turli debatlar tashkil etib kelmoqda[6].

O'zbekiston Respublikasida muzeylarga oid qaror va farmonlar bajarilishi yuzasidan ham bir nechta ishlar amalga oshirildi. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19-iyundagi PQ-5150-son qarori yettinchi ilovasiga muvofiq 2021-2023 yillarda davlat muzeylaridagi muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini elektron identifikatsiya qilishning maqsadli ko'rsatgichlari yuzasidan O'rol Tansiqboyev uy-muzeyi tomonidan so'nggi yillar davomida uch mingdan ortiq muzey ashyolari milliy muzey fondi elektron bazasiga kiritildi. Shuningdek muzeyga yil davomida besh mingga yaqin tomoshabinlar tashrif buyurdi. Tashrif buyurgan chet ellik sayyohlarga kun bo'yi ingliz va fransuz tillarida ekskursiyalar olib borilmoqda.

2022-yil 22-noyabrda Parijdagi Arab dunyosi institutida O'zbekiston xalq va amaliy san'atining XIX asr o'rtalari – XX asr boshlarigacha bo'lgan davrda yaratilgan noyob asarlari ko'rgazmasi ochiladi. Nukus shahrida joylashgan Saviskiy davlat san'at muzeyi eksponatlari ko'rgazma negizini tashkil etadi. Ular orasida XX asrda ijod qilgan o'zbekistonlik rassomlarning Turkiston avangardi oltin fondiga kiritilgan asarlari ham bor. Tanlab olingan eksponatlar orasidan O'rol Tansiqboyev mo'yqalamiga mansub asarlar joy olgan. Muallif o'ziga xos rassomlik uslubi asosida Sharq va uning rang-barangligidan ilhomlanib yaratilgan va shu mavzu atrofida birlashtirilgan. Shuningdek O'rol Tansiqboyev uy muzeyi O'zbekiston madaniy merosini o'rganish saqlash va ommalashtirish bo'yicha butunjaxon jamiyatining "Kelajak uchun meros" yillik taqdimoti laureati deb topildi va sertifikat bilan taqdirlandi.

Uy muzeylar orasida maxalliy ko'chma ko'rgazmalar tashkil etish borasida ham O'rol Tansiqboyev uy-muzeyi yetakchi muzeylardan sanaladi. Angren shahar tarixi muzeyidagi⁵⁴ ko'rgazma doirasida uy muzeylari o'zlarining bir qator eksponatlari va tarqatma materiallari bilan ishtirok etdilar. Jumladan O'rol Tansiqboyev uy-muzeyi ham o'zining noyob rangtasvir asarlarining fotonusxalari bilan ko'rgazma ekspozitsiyasini boyitdi. Tashrif buyurgan tomoshabinlar O'rol Tansiqboyev uy-muzeyi va rassom tarafidan yaratilgan asarlar bilan yaqindan tanishishga baxtiga muyassar bo'ldilar hamda katta tassurot va ko'plab ma'lumotlatga ega bo'ldilar. 2022 yil 18 may "Xalqaro muzeylar kuni" ga bag'ishlab O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyida "Uy muzeylariga sayohat" nomli fotoko'rgazma bo'lib o'tdi. Ushbu tadbirda O'rol Tansiqboyev uy-muzeyi ham bevosita ishtirok etdi. Ushbu fotoko'rgazmadan ko'zlangan maqsad Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan uy muzeylari bilan ommani yaqindan tanishtirish, ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish. Xaftalik doirasida Toshkent shahridagi uy muzeylar tomonidan 24-25-26 may kunlari mahorat darslari o'tkazilishi va sayyohlik firmalari bilan memorandumlar imzolash ishlari olib borildi. Milliy rassomlik va dizayn instituti talabalari hamda O'rol Tansiqboyev uy-muzeyi xodimlari ishtirokida "Manzara sehri" nomli videorolik tayyorlandi. Ushbu videorolik onlayn tarzda tashkil etilgan halqaro tanlovda ishtirok etib, tayyorlangan videorolik hakamlar hay'atining maxsus mukofoti bilan taqdirlandi[6].

2023-yilda esa Quqon shahrida bo'lib o'tgan ikkinchi Xalqaro hunarmandchilik festivali doirasida,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-maydagi 261-sonli “Muzeylarda xizmat ko‘rsatish sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini bajarish maqsadida, Toshkent shahridagi Yu.Rajabiy, A.Qodiriy, Oybek, M.Ashrafiy, A.Qahhor, O‘. Tansiqboyev, G‘.G‘ulom, S.Borodin, S.Esenin, Tamaraxonim uy-muzeylarining madaniy merosga oid “Muzeylar — tarix ko‘zgusi” deb nomlangan sayyor fotoko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi. Har bir muzey eksponatlarining noyob ashyolari va kolleksiyalari fotonusxasi, video roliklari va tarqatma materiallari, jumladan, buklet flaer, bannerlardan tashkal etilgan sayyor fotoko‘rgazmani “O‘zbekiston Badiiy akademiyasi Qo‘qon ixtisoslashtirilgan san‘at maktabi” o‘quvchilari, “Qo‘qon shahar Buyuk allomalar muzeyi”da tashrif buyurgan umumta‘lim maktabi o‘qituvchi va o‘quvchilari, turli mamlakatlardan kelgan festival ishtirokchilari hamda xorijiy sayyohlar katta qiziqish bilan tomosha qildilar[7].

PQ-5150-son qarori yettinchi ilovasiga muvofiq 2021-2023 yillarda davlat muzeylaridagi muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini elektron identifikatsiya qilishning maqsadli ko‘rsatgichlari yuzasidan O‘rol Tansiqboyev uy-muzeyida 2022-yil davomida muzey ashyolarining barchasi milliy muzey fondi elektron bazasiga to‘liq kiritildi. Shuningdek ushbu qarorning 4 ilovasi 19 bandida nazarda tutilgan muzeylar faoliyatini keng targ‘ib qilish maqsadida tajribali ekspert, mutaxassis va dizaynerlarni jalb etib, muzeyning berendbuk va reklama mahsulotlarining dizayni yaratildi, Wikipedia ommaviy ochiq ensiklopediyasida O‘rol Tansiqboyev uy-muzeyi haqida ma‘lumot tayyorlandi va 6

ta jahon tilida material joylashtirildi. Undan tashqari muzeyning Youtube, Facebook, Twitter, Telegramm va Instagramm hamda boshqa ijtimoiy tarmoqlarda akkauntlarini tashkil etildi. Aholidagi madaniy boyliklarni davlat muzeylari tomonidan qabul qilib olishni rag‘batlantirish va ommalashtirishga qaratilgan «Milliy merosga mening hissam!» umumxalq aksiyasi doirasida A.Batikov tomonidan xayriya sifatida taqdim etilgan bir dona rangtasvir asari qabul qilib olindi.

2024-yilga kelib esa muzey faoliyatida Fransiyaning “Dualest” kompaniyasi tomonidan ikki mamlakatning turizm, madaniy meros, muzey va ijodiy soha vakillari o‘rtasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va tijorat aloqalarini o‘rnatish bo‘yicha bo‘lib o‘tgan halqaro konferensiyada muzey raxbar va xodimlari faol qatnashdilar. Konferensiyadan so‘ng Gyoma Dyubyui va Mounira Sedira tomonidan O‘rol Tansiqboyev uy-muzeyi bilan muzeylarni rivojlantirish borasida aytilgan fikr mulohazalar hamda kelgusidagi rejalar to‘g‘risida, shuningdek Moon Travel sayyohlik agentligi bilan yaqin kunlar ichida hamkorlikda amalga oshiriladigan ishlar va memorandumlar imzolanishi yuzasidan kelishib olindi[8]. Muzeyga bugungi kunda xalqaro metsenatlik jamg‘armalari jalb qilinib 2024-yil 3—7-may kunlari O‘rol Tansiqboyev uy-muzeyida O‘zbekiston Madaniyat va san‘atni rivojlantirish jamg‘armasi, Milliy meros instituti va Madaniy meros agentligining madadi bilan rassom qalamiga mansub 18 ta rangtasvir asarlarini restavratsiya qilish bo‘yicha qo‘shma dasturini amalga oshirish ishlari olib borildi. Ushbu ezgu ishga texnik ekspert, rangtasvirga ixtisoslashgan merosni muhofaza qilish bo‘yicha



mutaxassis Patrisiya Verges va rangtasvir bo'yicha konservator-restavrator Klaudiya Sindako ilmiy rahbarligida Milliy meros instituti vakillari jalb qilindi. Shuningdek asarlarni qayta tiklash ishlarida I.V. Saviskiy nomidagi Davlat san'at muzeyi xodimlari ishtirok etdilar. Hozirgi kunda metsenatlik jamg'armalari asosida Madaniyat va san'atni

rivojlantirish jamg'armasi hamda Madaniy meros agentligi yordamida mahalliy va horijiy mutaxassislarni jalb etgan xolda muzey binosini kapital ta'mirlash va reekspozitsiya qilish loyihalari tayyorlanib, ushbu loyihalar ustida keng hajmdagi ishlar olib borilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Н.Р.Аҳмедова. Живопись Центральной Азии XX века: Традиция, самобытность, диалог. Т. 2004.
2. O‘zbekiston milliy arxivi, M 7-fond,1-ro‘xat, 981-ish, 3 varaq.
3. O‘rol Tansiqboyev uy muzeyi yillik hisobotlarining kirish qismida keltirilgan ma’lumotlardan foydalanilgan.
4. Байгануров Р. Музею Тансыкбаева - 25 лет //Новости Узбекистана. 27 июля 2018 г.
5. O‘rol Tansiqboyev uy muzeyi direktori F. Abdullaev tomonidan tayyorlangan 2021 yil hisobotlaridan foydalanilgan. B.2.
6. O‘rol Tansiqboyev uy muzeyi direktori F. Abdullaev tomonidan tayyorlangan 2022 yil hisobotlaridan foydalanilgan. B.4.
7. O‘rol Tansiqboyev uy muzeyi direktori F. Abdullaev tomonidan tayyorlangan 2023 yil hisobotlaridan foydalanilgan. B.4.
8. O‘rol Tansiqboyev uy muzeyi direktori F. Abdullaev tomonidan tayyorlangan 2024 yil hisobotlaridan foydalanilgan. B.4

**MARKAZIY OSIYO XUDUDIDA ILK O'RTA ASR LIBOSLARI
RIVOJLANISHI**

**DEVELOPMENT OF EARLY MEDIEVAL DRESSES IN CENTRAL ASIA
РАЗВИТИЕ РАННЕСРЕДНЕВЕКОВОЙ ОДЕЖДЫ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ**

Avezova-Alimova Gulchexra Gafurovna
P.Benkov nomli Respublika
Ixtisoslashtirilgan rassomlik maktabi

***Annotatsiya:** Maqolada Markaziy Osiyo xududida ilk o'rta asr davrida libos shakllarining rivojlanish bosqichlari yoritilgan bo'lib, o'sha davr zamondoshlarining yozma manbalaridagi so'zlarga tayanilgan. Ilk o'rta asr xarbiy liboslari, saroy a'yonlari, qadimgi turkiy qavmlarning liboslari shakllari haqida so'z boradi.*

***Аннотация:** В статье на основе слов письменных источников современников того времени описываются этапы развития форм одежды в раннем средневековье на территории Средней Азии. Рассказывается о военной форме раннего средневековья, придворных, формах униформы древнетюркских народов.*

***Annotation:** The article describes the stages of development of clothing forms in the early Middle Ages in the territory of Central Asia, based on the words of the written sources of the contemporaries of that time. It talks about the military uniforms of the early Middle Ages, courtiers, and the forms of the uniforms of the ancient Turkic peoples.*

***Kalit so'zlar:** Qadimgi turkiy qavmlar, Ilk o'rta asr liboslari, qadimgi xarbiy liboslar, islom tamadduni, miniatyura san'ati, mo'gullar bosqini.*

***Ключевые слова:** древние тюркские народы, раннесредневековые костюмы, древние военные костюмы, исламская цивилизация, искусство миниатюры, монгольское нашествие.*

***Key words:** Ancient Turkish peoples, early medieval costumes, ancient military costumes, Islamic civilization, miniature art, Mongol invasion.*

Ilk o'rta asr liboslarini tadqiq qilish zamonaviy Markaziy Osiyo liboslari tarixining uzoq o'tmishi an'alariga bog'liqligini ko'rishga imkon berdi. Qadimgi Turkiy qavmlar xayot tarzi, siyosiy islohotlari, janglari tarixi bilan birga ularning kiyib yurgan liboslari haqida yanada batafsilroq ma'lumotlarni olish yo'lida L.N.Gumilyovning ilmiy asari e'tiborga loyiqdir, u yerda ilk o'rta asrlik askar va zodagonlarning liboslariga to'liqroq tavsif olishimiz mumkin.

Ermitajda qadimgi turkiylarga xos askarlari aks ettirilgan sopol xaykalchalar saqlanadi. Bu haykalchalarning yasalgan vaqti VII asr oxiri VIII asr boshiga borib taqaladi. Haykalchalar Turfon yaqinida bir xitoy a'yoni qabrida (Tuyuq mozar, Tuyuq darasidagi yer osti maqbarasi) saqlangan ekan. Piyodalarga ham, otliqlarga ham bir xil – otda yurishga moslashtirilgan kiyim – ko'ylak kiydirilgan. Xarbiy libos – bosh kiyim va zirxdan iborat bo'lib, bosh kiyim metall lavxlar bilan qoplangan, chetlarida

qizg'ish mo'ynadan xoshiyalar bo'lgan. Jangchilarga kiydirilgan choponning yoqalari yuqoriga chiqqan bo'lib, engakka tegib turadi. Choponning uzunligi boldirgacha yetadi. Tugmalari o'ng tomonda bo'lib, qadalganda choponning chap tomoni ustiga chiqadi. Chopon ustidan metall lavxlardan tikilgan zirx kiydirilgan, uning xoshiyalarida qizg'ish tasma bor. Zirxning uzunligi tizzagacha bo'lib, ingichka kamar bilan belidan boq'langan, yenglar kalta – tirsak yuqorisida bo'lgan. Yaroqlarning ushbu turi to vazni yengilroq bo'lgan pishiq va qulay sovut ko'ylaklar uni siqib chiqarmaguncha keng tarqalgan. Jangchilarga sariq ola shalvarlar (extimol sirtlon yoki bars terisidan) kiydirilgan. Poyabzallari qora, yumshoq bo'lib, xozirgacha Tibet yoki g'arbiy Turkistonda kiyiladigan oyoq kiyimga o'xshaydi. Turkiylarning zirxli suvorilaridan tashqari yengil qurollangan chavandoz-kamondozlari ham bo'lib, ularning bronza to'qaga ishlangan tasvirini S.V. Kisilyov 1939-yilda Kopen qishloqidagi qazishmalari jarayonida topib o'rgangan. «Suvoriy bosh kiyimsiz, uzun sochlarini shamol hilpiratardi. Orqa tomoniga bog'langan tasma uni ushlab turadi. Sal uzunroq kaftanini belbog'i siqib turibti. Poyabzali yumshoq, poshnasiz, o'ng biqinida quyiga qarab kengayib turgan sadoq (pryajka) osilib turibdi. Kamoni murakkabroq bo'lib M xarfini eslatadi...» [1]. Turkiylarda zirxli suvoriylar bo'lishi ularning oson muvaffaqiyatlari sababini tushuntirishga yordam beradi. Aholisi asosan chorvachilik va ovchilik bilan shug'ullanganligi sababli kiyim-boshlarida ko'plab xayvon mo'ynalari va terilaridan foydalanilganligini tushunish mumkin. Aslzodalar va saroy a'yonlari orasida esa,

mo'yna va terilardan tashqari qimmatbaho ipak gazlamalardan xam kiyim-bosh kiyish urf bo'lgan.

Shunisi qiziqki, ilk o'rta asrlarda Turkiy hukumdor saroyi va uning kiyinish tavsifi haqida qisman bo'lsada tasavvur xosil qilishimiz uchun, bizga tavsilotlarni elchilar emas, balki xon tomonidan iliq va e'tibor bilan qabul qilingan budda roxiylari yozib qoldirgan [1]. 626-yilda xon xuzuriga besh nafar yo'ldoshi bilan Hind tashviqotchisi Prabhakarmitra keladi va o'rtadagi ajoyib tartib va namunali intizom ustidan chiqadi. Bir necha yildan so'ng esa boshqa bir budda ruxoniysi – xitoylik Syuan Szan keladi. Xami voxasiga qadami yetishi bilanoq u Kagan-stupga, ya'ni Beshbaliqqa taklif etiladi. Xozirgi To'qmoq shaxri yaqinidagi bir joyda ziyoratchimiz ov bilan ovunayotgan Tun Jabg'uxon bilan uchrashadi. Zotli otlarning ko'pligi Syuan Szanni xayratga soladi, «Xonning egnida yashil atlas to'n, bo'rksiz (bosh kiyimsiz), ensiz ipak tasmacha bilan peshonasi tang'ilgan bo'lib, uzun, yelkasiga tushadigan sochlari to'zitmaslik vazifasini xam o'tardi. Xonni parchadan kiygan ikki yuz nafar suvori arkonlari o'rab olgan eli. Ularni sochlari o'rilgan. Boshqa bir jangchilar tuya va otlarga minib olishgan bo'lib, kiyimlari mo'ynadan yoki gazlamalardan tikilgan edi...»[1].

Bu manzara qarbiy turkut xonining boy va dabdabali saroyining tashqi tomonidan ko'rinishini tasavvur qilish imkonini beradi. Saroy va shoxona liboslarning rangin tovlanishi xam ziyoratchilarning diqqatini tortadi: «Atlas bilan ipak uyg'unlashadi, parcha quyosh nurida tovlanadi, mo'ynalar mayin yaltiraydi; to'q uchqur otlar deysinadi, tuyalar kallasini vazmin chayqaydi. Hamma narsa

bayramona va turli-tuman, xatto sochlarini taralishida ham bir qabila udumiga amal qilingan. Shularning hammasi bilan birga zakovatga boʻlgan beqiyos extirom ham bor. Qashshoq bir roxibni kutib oladilar, yediradilar, diqqat bilan tinglaydilar va nixoyat manzili – Hindistonga yetib olishga sharoit yaratadilar, u esa oʻsha yerdan zigʻirdek xikmat keltirish vaʼdasini beradi...»[1].

L.N. Gumilyovning tadqiqotidagi qiziqarili va muxim bir maʼlumotga koʻra: xozirda Xitoy milliy kiyimidagi taqilmaning chap tomonda joylashib beliga belboq bogʻlanishi odati qadimgi turkiylar liboslariga xos bichim xisoblangan. Uning yozishicha VII asrning 20 chi yillarida Chanʼanda turkiylarning oʻn ming oilasi doimiy yashar edi. II yuzyillikda rimliklar olmon didiga ergashgani kabi, Xitoy aslzodalar kiyinishida va axloqda turklarga taqlid qila boshlaydilar. Yil sayin koʻchmanchilar odati urfga aylanishi mustaxkamlanib, saroy aʼyonlari turmushiga kirib borguncha davom etgan. Turklarning yoqali, tugmasi chapga qadalgan, belboq bilan bel tarafda bogʻlanadigan, yashil yoki jigarrang choponi Tan davrida odatiy kiyimga aylandi[1].

Mashxur arab tarixchisi Al-Muqandasiy Markaziy Osiyodan qoʻshni mamlakatlarga chiqarilgan mollar toʻgʻrisida yozar ekan, yozma manbalarda ilk marotaba X asrda Markaziy Osiyodan eksport qilingan maxsulotlar ichida yoʻl-yoʻl gazlamadan tikilgan Xorazm choʻponlari xam boʻlganligi xaqida maʼlumot beradi[2].

Xadisi shariflarda xam kiyinish odobi boʻlimlarida bir necha liboslar nomlarini uchratish mumkin: faruj – musulmon erkaklar kiyimining ustidan kiyiladigan

yengil yaxtak; xibara – yamanda tayyorlanadigan, paxta tolasidan boʻlgan yashil rangli chopon; mirt – jun, qil yoki kanopdan tayyorlanadigan va tananing kindikdan pastiga tutib olinadigan kiyim; mulabbada – turli parchalarni bir-biriga ulab qilingan kiyim[3]. Shuningdek Al-Buxoriy xadislarda «Kiyimning oqini kiying. Albatta ular kiyimlaringizning xayirlisidir...» degan jummalarga eʼtibor qaratish mumkin, chunki musulmon erkaklari orasida chindan xam oq rangli kiyimlar (yaxtaklar) sevilib kiyilgan.

XI asrda yashab oʻtgan mashxur tilshunos olim Maxmud Qoshgʻariyning «Devoni lugʻati turk» asarida xam juda koʻplab kiyimlar va ular uchun ishlatilgan gazlamalar nomlarini bergan. Qimmatbaho ipak, baʼzi kimxoblar pul muomalasi vositasida ham ishlatilgan. Asarda shuningdek kiyinish madaniyatiga oid boʻlgan 225-ta soʻz keltirilgan. Bu esa turkiy xalqlarning kiyinish madaniyati yuqori boʻlganligini koʻrsatadi. Jumladan, «Devon» da turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan yalma – yopinchiqli paxtali toʻn, didak – kelinni begona koʻzlardan yashirish uchun moʻljallangan yopinchiq, kiduk- paxtadan tikilgan bosh kiyim, burunchuk – ayollar peshonabogʻi, baqirdaq - ayollar koʻkragiga tutadigan kiyim (siynaband), terinchak – xotin qizlarning engi yuq ich kiyimi, partu – yaxtak, qulan – kamar, oʻrtan – ishton, kabi soʻzlar bayon qilingan[4].

Oʻrta asr liboslarini taxlil qilishda miniatyura asarlarining xam oʻrni beqiyos axamiyatga ega manbaalardan biri xisoblanadi. XII asr oxiri- XIII asr boshlarida yaratilgan miniatyuralarda tasvirlangan erkak va ayollar liboslarining etagi bir muncha keng tunikasimon bichimli boʻlgan. Erkak va ayollar

kiyimlari tashqi jixatdan o'xshash bo'lsada, ularda farqli jixatlari mavjuddir. Ayollar kiyimlarida ko'pincha yenglarining pastga kengayib, ust kiyimlarining bel chizig'ini bildirib pastga kengayib tushganligini, lozimlari keng bo'lganlib uchlari jiyaklarga o'xshash bezaklar bilan bezalganligini ko'rish mumkin. Erkaklar liboslarida yenglar uzun bo'lib pastga torayib ketgan, shalvarlarning pochasi uzun bo'lib, qunji baland etikka tiqib qo'yilgan. Bosh kiyimlari salladan iborat, askarlarda kiyim ustidan kiyilgan sovutni uchratish mumkin[5].

PowerPoint taqdimotlari o'qituvchilarga sinf tushunchalarini joriy etishga imkon berish orqali samarali o'rganishni osonlashtiradi. O'qituvchilar grafikalarini talab qiladigan g'oyalarni taqdim etish uchun slaydlardan foydalanadilar. Bundan tashqari, ular talabalarni jamoalarda ishlashga va o'zlarining topilmalarini PowerPoint dasturida hujjatlashtirishga undaydi. Ushbu tadbirlar sinf mashg'ulotlarida faol ishtirok etishga yordam beradi.

Virtual imtihonlar va baholash -
Axborot texnologiyalari testlarni samarali boshqarish va baholashni kuchaytiradi. Bundan tashqari, PowerSchool kabi tizimlar o'qituvchilar va yordamchilarga baholarni joylashtirish

va har bir talabaning ish faoliyatini tahlil qilish imkonini beradi.

Ta'limni boshqarish - Ta'lim muassasalari o'quvchilarning taraqqiyotini kuzatish uchun Listserv kabi dasturlardan foydalanishlari mumkin. Texnologiya o'qituvchilar va ota-onalarga o'quv kunlari kabi kelgusi maktab faoliyati to'g'risida muhim yangiliklarni yuborish va qabul qilish va o'quvchilarining farovonligini muhokama qilish orqali o'zaro aloqada bolish imkonini beradi[8].

NATIJARLAR. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, axborot texnologiyalari ta'lim sifatini oshirishda ulkan kuchga ega. XXI asr axborot texnologiyalari asri ekanligini hisobga olgan holda barcha jabhalarda AKT ga talab va ehtiyoj juda katta. Bundan tashqari ta'lim tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjud:

- Dars jarayonoda o'quvchilarga taqdim qilinayotgan o'quv materiallarini takroriy namoyish qilish imkoniyati mavjudligi
- Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini video, audio va animatsiyali vositalar orqali qiziqarli tashkil qilish imkoniyatining mavjudligi;
- Ta'lim oluvchilar o'zlashtirish darajasining yuqori bo'lishligi;
- Ta'lim oluvchilarning individual bilimlarini baholash, nazorat qilish va boshqa imkoniyatlarni mavjudligi;
- O'quv materiallardan ommaviy tarzda foydalanish ya'ni, tarmoq texnologiyalari yordamida bir yoki bir necha auditoriyada va guruhlarda foydalanish imkoniyatining mavjudligi;

- Masofaviy o'qitish uchun asosiy vositalardan biri sifatida foydalanish;

Xorijiy davlatlar tajribasini o'tganar ekanmiz, dunyo mamlakatlarida AKTning o'rni va samaradorligi salmoqli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni aqlan va ruhan yetuk insonlar qilib tarbiyalashda, milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz mohiyati bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda ular da buyuk ajdodlarimizning boy ma'naviy me'roslarini o'rganishda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim rol o'ynaydi. Kompyuter va axborot texnologiyalari vositalari orqali pedagog xodimlar hamda o'quvchilar juda ko'p miqdorda ma'lumotlarni olish, izlash qayta ishlash va o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Kompyuter texnologiyalari turli xil interaktiv xarakterdagi topshiriqlardan foydalanish imkoniyatini beradi. Masalan, o'quvchilar voqealarni xronologik ketmaketlikda joylashtirish, fanga oid atamalar va tushunchalarni to'g'ri izohlash yoki o'ng va chap qatordagi atamalar va ularning ma'nosini mos ravishda strelka bilan ko'rsatish yoki berilayotgan mavzudagi tayanch so'zlarni to'ldirish, test topshiriqlarini bajarish, krosvordlarni yechish kabi topshiriqlarni qanday ajarganliklarini katta ekranda multimedia yordamida tushirilgan javoblar bilan taqqoslab, bilib borishlari mumkin bo'ladi.

MUHOKAMA. Kompyuter va kommunikatsiya texnologiyalarining integratsiyasi tabiiy ravishda an'anaviy rasmiy ta'limda, xususan, ikki jihatda - o'rganish sub'ektlarining pedagogik o'zaro

ta'siri va ta'lim mazmunida o'zgarishlarni keltirib chiqardi. O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar turlarining o'zgarishi o'qitish usullarining o'zgarishiga olib keladi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tajriba an'anaviy dars doirasida AKTni didaktik jihatdan to'g'ri qo'llanilgan hollarda o'quv jarayonini individuallashtirish va differentsiyalash uchun cheklanmagan imkoniyatlar paydo bo'lishini ko'rsatdi. Ular o'quvchilarga axborot manbalaridan foydalanish, mustaqil ishlar samaradorligini oshirish, ijodkorlik, malaka va ko'nikmalarni egallash va mustahkamlash, ta'limning yangi shakllari va metodlarini amalga oshirishga imkon beradi.

Har bir o'quvchida shaxsiy o'quv yo'nalishini rivojlantirishni ta'minlaydi. O'quv jarayonida uni muvaffaqiyatli bilim olish uchun zarur bo'lgan asosiy jarayonlar sifatida fikrlashni, tasavvurni rivojlantirishga yo'naltirilgan katta o'zgarishlar sodir bo'ladi; o'quvchilarning idrok etish faoliyatlarini samarali tashkil qilish ta'minlanadi. AKTdan foydalanilganda ta'limda shaxsga-yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish oson bo'lib qoldi, butun o'quv jarayonini samarali tashkil qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Dars jarayonida tayyor multimediali mahsulotlari va kompyuter ta'limi dasturlaridan, o'quv va sinfdan tashqari ishlarda Internet tarmog'i vositalaridan foydalanib, multimediali ta'lim dasturlari va taqdimotlar, loyihalar yaratildi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'quvchilarni qiziqarli olamga olib kirishda o'qituvchining

imkoniyatlarini kengaytiradi, bunda o'quvchilar axborotlarni mustaqil ravishda izlab topadilar, oladilar, tahlil qiladilar va boshqalarga yetkazadilar. O'quvchini axborot bilan ishlashga, o'qishga o'rgatish -zamonaviy pedagogning muhim vazifasi hisoblanadi.

XULOSA. AKT imkoniyatlarini joriy etish zamonaviy ta'lim jarayonining samaradorligi va jozibadorligini oshiradi. Axborot texnologiyalari faqat o'qituvchi tomonidan to'g'ri foydalanilgandagina ta'lim samaradorligini oshiradi. Aks holda, xorijiy va mahalliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, axborot texnologiyalari ta'lim jarayonidan chalg'itadi va uni murakkablashtiradi. Axborot texnologiyalaridan muvaffaqiyatli foydalanish natijasida o'quvchilarning o'ziga bo'lgan hurmati oshadi, o'qituvchi

va talaba o'rtasida teng huquqli hamkorlik muhiti shakllanadi. Shu bilan birga axborot texnologiyalaridan kerakli vaziyatda va kerakli sohalarda qo'llay olish ham muhim hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, butun jahonda axborot texnologiyalarining o'rni va salmog'i beqiyos axborot texnologiyalari bugungi kunda zamon talabi sifatida baholanmoqda va uning ta'limdagi o'rni nihoyatda katta, xususan, o'quvchi internet tarmog'idan istalgan mavzuda ma'lumot topa olishi mumkin, Axborot texnologiyalari va internetdan oqilona foydalanish orqali o'quvchi, talabalar o'zlari uchun zarur dunyoviy bilimlarga ega bo'lishlari mumkin, ammo o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish muhimligini ta'kidlar ekanmiz, ulardan foydalanish qoidalarini ham unutmasligimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sh.M.Mirziyoyev nutqidan 2023-yil 20-dekabr (gazeta.uz)
2. Позднеев Б.М. Разработка и гармонизация международных и национальных стандартов по информационным технологиям в образовании / Б.М. Позднеев // ИТ – Стандарт 2013 Сборник IV Международной конференции. – 2013. – С. 38.
3. Осин А. В. Открытые образовательные модульные мультимедиа системы / А. В. Осин. – Москва: Агентство «Издательский сервис», 2010. – С. 32.
4. Ronald Autrey WHAT IS ICT IN EDUCATION AND ITS IMPORTANCE techlatestap.pages.dev 06.11.2022
5. Xolmatov T., Taylaqov N.; Informatika va hisoblash texnikasi Toshkent, 2001.
6. Tolipov U.K., Sharipov Sh.S. O‘quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. – T., Fan, 2012 2. Yo‘ldashev J.
7. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T: Fan va texnologiya, 2008.
8. M Chatterje Importance of ICT in Education and Teaching-Learning process 16.04.2021
9. Minamatov Y. E., & Nasirdinova M.H (2022). Application Of Ict In Education And Teaching Technologies. Scientific progress, 3(4), 738-740.
10. nsportal.ru
11. scienceforum.ru

AQLIY TARBIYANING SHAKLLANISH OMILLARI
ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПСИХИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ
FORMATION FACTORS OF MENTAL EDUCATION

Mahmud Ravshanov

Navoiy davlat konchilik va
texnologiyalar universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

***Annotatsiya:** Maqolada hozirgi sharoitda aqliy tarbiyaning shakllanish omillari tadqiq etiladi. Bunda asosiy e'tibor aqliy tarbiyaning shakllanish bosqichlari tashqi, ma'lumotlar, ichki ma'lumotlar, xotira va muhokama masalalarining tavsifiga bag'ishlanadi.*

***Аннотация:** В статье исследуются факторы формирования умственного воспитания в нынешних условиях. При этом основное внимание уделяется описанию внешних, данных, внутренних данных, воспоминаний и обсуждений этапов формирования умственного воспитания.*

***Annotation:** The article examines the factors in the formation of mental education in current conditions. In this case, the main attention is paid to the description of external data, internal data, memories and discussions of the stages of formation of mental education.*

***Kalit so'zlar:** aqliy tarbiya omillari, tashqi manbalar, ichki manbalar, aql, idrok, fikr.*

***Ключевые слова:** факторы умственного воспитания, внешние источники, внутренние источники, ум, восприятие, мысли.*

***Key words:** factors of mental education, external sources, internal sources, mind, perception, thoughts.*

Aqliy tarbiya shaxs kamolatida bilim, fikr va dunyoqarash bilan qurollantirilishi asosida shakllanishi asoslangan va isbotlangan. Nafaqat aqliy tarbiya jarayoni, balki tarbiyaviy jarayonlarning boshqa nazariy asoslari rivojlanishiga tadqiq etayotgan mavzumiz bevosita va bilvosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki tarbiya jarayonidagi tarbiya tasnifi masalasida hozirgacha bir ma'lum to'xtamga kelinmagan.

Aqliy tarbiyaning asosiy oqimlari va xususiyatlarining to'g'ri yo'lga qo'yilishi esa bilim oluvchilarning barcha aqliy

faoliyat ko'nikmalarini chiniqtiradi. Bu masalada asosan bilim, insonga o'zligini va dunyoni anglashda, mustaqil fikr esa insonning oliy maqsadlarga erishishida va nihoyat teran dunyoqarash esa hayotda o'z o'rnini topishda tayanch bo'ladi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'z asarlarida, "aql" tushunchasining 27 darajasi va 27 sifatini bayon etib, ularning komil inson tarbiyasida muhim tayanch nuqta bo'lishini ta'kidlagan. Bundan yetakchi olimlar shunday xulosaga kelishganki, ...aqlning o'zi bitta, lekin insonlarning aqliy darajarai xilma-xildir.

Bular quyidagicha tavsiflanib, nekbin aql egalaridagi aql insoniyatga ezgulik keltiradi,, aksincha xudbin aql esa faqat o‘z egalariga naf keltiradi[1.43-106].

Yetakchi olim Abdurauf Fitrat esa, aqliy tarbiya tizimida odamning zehni, aql va idrokini kamolga yetkazish deb hisoblaydi. Fitratning fikricha, inson aqlining kamoli yaxshi bilmoq, yaxshi o‘rganmoq va yaxshi fikrlamoqdir. Bu ilmiy xulosadan shu narsa ayon bo‘ladiki shaxs ko‘z, quloq, til, burun va teri vositalari asosida ma‘lumotlar olishi, ana shu beshta hissiy sezgi a‘zolarini yaxshi tarbiya etib, ularni har xil kasalliklardan saqlab kamolga yetkazish lozim degan fikrga keladi[2.67-89].

Demak, tadqiqotlarimiz natijasida aqliy tarbiyada quyidagi to‘rtta masalaga diqqatni qaratish joyiz degan xulosaga kelishimiz zarurligi kasbiy-professional faoliyatlarimizda isbotlangan:

- tashqi ma‘lumotlar;
- ichki ma‘lumotlar;
- xotira;
- muhokama kabilar.

Bu tasnifiy-tarkibiy qismlar xususiyatlari esa quyidagicha tavsif topadi. Insonning kitob, matbuot va turli axborot vositalari yordamida oladigan tashqi ma‘lumotlarining haqqoniyligini ta‘minlash lozim bo‘ladi. Aynan hozirgi globallashuv jarayonida ma‘naviy tahdidlarga zarba berishning muhim omili sifatida qaralishi zarur. Jumladan, hozirgi internet saytlaridagi ma‘lumotlarning aksariyat ko‘plari isbottalab ma‘lumotlardan iborat ekanligi sir emas. Buning uchun shaxs kamolatida haqqoniy ma‘lumotlarni farqlab olish ko‘nikmasini hosil qilish lozim bo‘ladi. Haqqoniy bilim esa ustoz-murabbiylar ta‘lim darajalari hamda kitob manbalaridan olinadigan bilim mazmuni va darajasi bilan belgilanishi lozim. Yoshlarda chinakam kitobxonlik madaniyatiga rag‘bat

uyg‘otish, asl, aniq, asoslangan ma‘lumotlarga mushtoqlik hissini shakllantirish asosiy masaladir.

Aqliy tarbiyada ichki ma‘lumotlarning ham o‘rni beqiyosdir. Bu dolzarb masala kishilarning histuyg‘ularini, zehni va idrokini rivojlantirib, dunyoqarashini to‘g‘ri shakllantirish bilan amalga oshadi. Zehnli va idrokli kishi ma‘lumotlarini tahlil qilib, ko‘rib, haqqoniy va kerakli xabar va ma‘lumotlarni ajrata olishi ham bu jarayonda muhim omildir.

Zero, zehn va idrok etish odamlarda har xil bo‘lganligi uchun ham bilimlilik va fikrlash, dunyoqarash ham har xil bo‘ladi.

Xotira aqliy tarbiyada hal qiluvchi ahamiyatga ega. Unda olingan ma‘lumot va axborotlarni esda saqlash bilan aqlni o‘stiradi. Zakovat, iroda va tasavvurot, ya‘ni dunyoqarash aynan xotira tufayli paydo bo‘ladi. Ayrim yetakchi manbalarda qayd etilishicha, xotira tarixiy dalillarning isbottalab xususiyatlarini tahlil etishda asosiy manba va tayanch bo‘ladi desak, xato qilmaymiz.

Aqliy tarbiyada muhokama qobiliyati ham muhim o‘rin tutadi. Muhokama – bu olingan ma‘lumotlarni tahlil qilishdir. Aynan muhokama vositasida kishilar fikrlashga o‘rganadilar. Muhokamaga ko‘nikmagan odamlar mustaqil fikrga ega bo‘lolmaydilar.

Shuningdek, Fitratning aqliy tarbiya kontseptsiyasida ham aqliy tarbiya ma‘naviy tahdidlarning oldini olishda asosiy pedagogik omillardan biri bo‘la olishi ilmiy-amaliy asoslanganligini e‘tirof etgan holda, shunday fikrga kelish mumkin: aqliy tarbiya shaxsni g‘oyaviy-ma‘naviy tahdidlardan muhofaza qiladi va bunda tashqi hamda ichki ma‘lumot va axborotlarni to‘g‘ri yoritish, xotirani kuchaytirish va muhokama ko‘nikmasini hosil qilish zaruratidir.

Abu Nasr Farobiyning fikricha, insonda faol aql va amaliy aql mavjud bo'lishi ta'kidlanadi. Bu ta'limot mazmunida faol aql tug'ma bo'ladi, amaliy aql esa o'qish o'rganish va ta'lim jarayonida hosil qilinadi. Shu bois odamga bilim va ta'lim berilishi dolzarb hisoblanadi. Bilim va ta'lim vositasida amaliy aql hosil qilinib, faol aqlga aylanishi bir qancha tadqiqotlarda o'z isbotini topgan[3.62-79].

Demak, aqlning o'sishi va rivojlanishi bor gapdir. Inson bolaligida ko'p narsani anglamaydi – bu uning aqliy o'sishidan dalolatdir.

Buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy o'zining “Buyuk didaktika” asarida, ...haqiqatdan ham biz bu olamga sof va pok aql bilan kelamiz, bu xuddi oq taxtaga o'xshaydi, nima qilishni,

gapirishni va tushunishni bilmaymiz, degan fikr bor. Bularga faqat mashaqqat evaziga erishiladi.. bu sof aql eng zaruriy va kerakli bilimlar asosida rivojlantirilishi zarur. Ba'zilar ongli ravishda yoshlarning pokiza aqlga mutaassibona tushunchalarni tiqishtirishga urinayotganliklari sir emas. Pokiza aqlga donishmandlik va ezgulik urug'i ekilmasa, u tagi puch orzu-havaslariga to'lib ketadi[4.19-67].

Shunday qilib, shaxsni voyaga yetkazishda aqliy tarbiya tadrijiylik va izchillik qoidasiga asoslanishi ham zaruriy holdir. Chunki ba'zilarning aqli tez o'sadi va keyin zaif o'sadi, o'zgalarning aqli dastlab sekin o'sadi va keyin rivojlanadi. Shu sababli aqliy tarbiya jarayonining takomillashuvida esa, izchillik va uzviylik tamoyillariga tayanish va rioya etilishi muhim xususiyatlardandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alisher Navoiy “Xamsa”, “Hayrat-ul abror” dostoni. T.: 2003, 23-104 b.
2. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. T.: 2001. 43-89.
3. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. T.: 2003.
4. Yan Amos Komenskiy. “Buyuk didaktika” asari. T.: “Великая дидактика” M.1955.

ZAMONAVIY O‘QITUVCHI FAOLIYATINIG MUHIM QIRRALARI
ВАЖНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СОВРЕМЕННОГО
УЧИТЕЛЯ
IMPORTANT EDGES OF MODERN TEACHER'S ACTIVITY

Rustam Xudayberganov
Kamoliddin Behzod nomidagi
MRDI professori

***Annotatsiya:** Maktab o‘qituvchisi tasviriy san’at fanini o‘qitishda o‘zining kasbiy mahorati, bilimi va bolalar bilan ishlashda ularning yoshiga qarab bilimini oshirishga qaratilgan usullardan foydalanishga qaratilgan.*

***Аннотация:** Учитель школы стремится использовать свои профессиональные навыки, знания и соответствующие возрасту методы работы с детьми при обучении изобразительному искусству.*

***Annotation:** Uchitel shkoly strives to use their professional skills, knowledge and age-appropriate methods of work with detmi pri obuchenii izbrazitelnomu ikusstvu.*

***Kalit so‘zlar:** tasviriy san’at, o‘qituvchi, o‘quvchi, maktab.*

***Ключевые слова:** изобразительное искусство, учитель, ученик, школа.*

***Key words:** visual art, uchitel, uchenik, school.*

Zamonaviy ixtisoslashtirilgan rassomlik va san’at maktablari, shuningdek, umumta’lim maktablari tashabbuskorlik, ijodiy fikrlash va nostandart yechimlarni topish, hayot davomida o‘z-o‘zini tarbiyalashga tayyor bo‘lish kabi muhim fazilatlarga ega shaxsni shakllantirishga yordam berishi kerak. Davlatimiz tomonidan qo‘yilayotgan vazifalarning asosiy bandi ta’lim dasturlariga, ta’lim natijalariga qo‘yiladigan talablar va bu natijalarga erishish uchun yaratilishi shart bo‘lgan shart-sharoitlarni o‘z ichiga olgan yangi ta’lim standartlariga o‘tish ekanligi bejiz emas.

Ta’lim standartlarida o‘qituvchilarga qo‘yilgan talablar; o‘quvchilarda "umumjahon ta’lim harakatlari, o‘rganish qobiliyati, o‘z-o‘zini takomillashtirishni rivojlantirish vazifasini qo‘yadi. Bularning barchasiga o‘qituvchilarning tajribasi, ijtimoiy ongli, faollikni egallashi orqali

erishiladi. Shu bilan birga, bilim, qobiliyat va ko‘nikmalar maqsadga muvofiq tegishli harakatlarning turli hosilalari sifatida qaraladi, ya’ni o‘qituvchilarning o‘zlari faol harakatlari bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi. Shuning uchun o‘quv jarayonini o‘quv-uslubiy ta’minlanishi alohida ahamiyatga ega.

Dasturda eng avvalo boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun badiiy ijodning turlari bo‘yicha ishlanma namunalari, sinflar bo‘yicha yillik darsni rejalashtirish keltirilgan, maktab o‘quvchilarining badiiy va ijodiy faolligini rivojlantirishni ta’minlaydigan eng samarali pedagogik sharoitlarni yaratish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Tasviriy san’atni o‘qitishda maxsus xonalarni tashkil etish, fanlararo bog‘lanish, ijodiy muhit tashkil etish, muammoli vaziyatlar va turli vazifalarni bajarishga e’tibor berilmog‘i zarur.

Tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy faoliyati o'quv, ilmiy-uslubiy va madaniy-ma'rifiy ishlarni o'z ichiga oladi. U o'quvchilarni badiiy san'at vositalari orqali tarbiyalash va rivojlantirishga qaratiladi.

Mohir o'qituvchi tasviriy san'atning chizmatasvir, rangtasvir, kompozitsiya, turli rangtasvir texnikasini, shuningdek, san'at tarixi, pedagogika va psixologiyani bilishni taqoza etadi. Har bir yaxshi rassom muvaffaqiyatli o'qituvchi bo'la olmasligi mumkin. Ammo o'qituvchilik mahorati maxsus kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishni va mashaqqatli mehnatni talab qiladi.

Tasviriy san'at ta'limida o'quvchilar ijodiy o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan ilg'or texnologiyalarga ega bo'lishi, ularning san'atni anglashi va shaxsiy tajribani egallashi, fanga qiziqishi va ijodkorlik ko'nikmalariga ega bo'lishi muhim hisoblanadi.

Ta'lim san'atida o'qituvchidan fanning o'zini yaxshi bilishni va pedagogika, psixologiya, fiziologiyaning asosiy tamoyillarini o'zlashtirishini va o'quv jarayonini tashkil etish metodologiyasi qonuniyatlarini tushunishni, o'qitish amaliyoti bilimlarining barchasidan ijodiy foydalanish qobiliyatini talab qiladi.

Pedagogik mahorat darhol emas, balki kundalik mashaqqatli mehnat jarayoni orqali erishiladi. O'qituvchi doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, yangi metodlarni o'zlashtirishi, ilg'or tajribalarni o'rganishi lozim. O'qituvchi ta'lim berish uslubiga ijodiy yondashsa, kutilmagan vaziyat bilan bog'liq holda o'quv jarayonini qayta tashkil etishni bilsa, o'qitish san'atga aylanadi.

Tasviriy san'at darslarida o'quvchi shaxsini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalarini, o'quv maydonini badiiy vositalar bilan tashkil etish, sinfda hissiy

jihaddan qulay muhit yaratish, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi dialogik aloqa, milliy qadriyatlarga asoslangan munosabatni o'z ichiga oladi.

Bolalarda badiiy didni rivojlantirishda tasviriy san'at darslarining ahamiyati katta. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarni estetikaning asosiy tamoyillari bilan tanishtirishi, tasviriy san'at durdonalaridan foydalanishi, amaliy ishlarda, ya'ni chizmatasvir, haykaltaroshlik va boshqa bezakli buyumlarining go'zallik mezoniga mos kelishini ta'minlashi zarur.

O'qituvchining kasbiy va pedagogik tayyorgarligi uchun unga ijodiy fikrlash fazilatlarini kerak, chunki o'qituvchining o'qituvchilik faoliyati davomida hal qiladigan amaliy muammolari murakkab va ko'p qirrali vazifalardir. Ularni hal qilishda o'qituvchining muayyan faoliyat holatini tashkil etuvchi barcha xilma-xil shartlarni hisobga olishi muhim. Shuning uchun nazariy bilimlarni amaliyotga o'tkazish bevosita emas; u yaxlit va ko'p qirrali xususiyatga ega bo'lgan muayyan amaliy muammo atrofida birlashgan va o'qituvchining amaliy harakatlari bir qancha o'tish davri bo'g'inlarini o'z ichiga oladi. Ijodiy fikrlaydigan o'qituvchi, agar kerak bo'lsa, qanday tezlikda bir harakat usulidan ikkinchisiga o'tishni, o'qitish usullarini har tomonlama rivojlantirishni, turli xil o'quv vazifalarni hal qilishning yangi usullarini topishni, nazorat qilishni bilishi shart.

O'quvchilarning aqliy faoliyati jarayonini va natijalarini tahlil qilishi zarur. Dars davomida o'qituvchi o'quvchilarning bilim va ijodiy faoliyatiga bevosita va bilvosita rahbarlik qiladi: ko'rgazmali materialni namoyish etadi, suhbatlashadi, tushuntiradi, amaliy ish usullarini ko'rsatadi, bolalarning mustaqil ishlarini kuzatadi va nazorat qiladi.

Yangi ilmiy va nazariy kashfiyotlar, qo'shimcha manbalarning ko'payib borishi o'qituvchidan o'quv-rejasidagi mavzudan tashqari tayyorgarlikni ham talab etadi.

Amaliyot bilan bog'lik fanlarda dars oldidan o'quv-ustoxonalar jihozlari, mehnat qurollari, ish anjomlarini shay holga keltirish tayyorgarlikning ilk bosqichi hisoblanadi. Amaliy mashg'ulotlar uchun sharoit yaratishni talab qiladi.

O'qituvchi o'zining o'quv ishlarini va o'quvchilar mehnatini turli xil mustaqil faoliyatiga, izlanish va ijodiy xarakterdagi faoliyatning ustuvorligiga yo'naltiradi.

O'qituvchi texnik vositalardan, slaydlardan, videolavxalardan foydalangan holda darsga tayyorgarlik ko'rsa, ko'zlangan natijaga erishish yanada osonlashadi. Interfaol usullar, innovatsion texnologiyalardan foydalanish ham yaxshi samara beradi. An'anaviy ta'limda o'quvchi faqat tayyor bilimlarni egallagan bo'lsa, za'monaviy pedagogik texnologiyalar bilimlarni mustaqil qidirib topishga, tahlil qilishga, xulosa chiqarishga o'rgatadi. Bunday darsda o'quvchi bosh kahramon bo'ladi.

Darsga puxta tayyorgarlik ko'rgan, mahoratli o'qituvchining sinfida past o'zlashtiruvchi o'quvchi bo'lmaydi. Chunki u turfa fe'lli o'g'il-qizlarni o'z faniga qiziqтира oladi. O'quvchilar o'rtasida ba'zida "Mana bu dars yaxshi, mana bu darsga kirgim kelmaydi", degan gaplarni eshitib qolamiz. Aslida, bu fanga emas, o'qituvchiga berilgan baho. O'qituvchi mashg'ulotlarga mas'uliyat bilan tayyorlansa, bolalar shu darsni intiqlik bilan kutadi.

O'qitish -ikki barobar ko'prok o'qish, izlanish demakdir. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish didaktikaning asosiy tamoyillariga javob beradigan usullarini talab qiladi. Dastur qanday tuzilgan bo'lishidan qat'iy nazar, qanday usullardan foydalanilmasin, o'quv jarayonida o'quvchi sifatli bilim, ko'nikma va malakalarni yagona, izchil tizimda egallashi kerak.

Tasviriy san'atni o'qitishning asosiy vazifasi maktab o'quvchilarini nazariy bilim va amaliy faoliyat orqali san'atga qiziqtirish va bog'lash, estetik tarbiya berish bilan birga shaxsning ijodiy salohiyatini, hissiyotini, ma'naviyatini, dunyoqarashini rivojlantirishdan iborat bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдирасилов.С.Ф. Тасвирий санъат ва уни ўқитиш методикаси. ”ИЛМ ЗИЁ”. Т.: 2010.
2. Апухтин О.К. Тасвирий санъат асослари. Т., “Ўқитувчи”. 1967.
3. Дунина М. В. Микеланджело-воспитатель: особенности творческой индивидуальности и система преподавания // сб. науч. статей. Вып. 9.
4. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз – Т.: “Ўзбекистон”. 2017. – 592 б.

**ZAMONAVIY SANOAT VA INTERYER DIZAYNIDA BADIY YECHIM
MASALASI**

**ПРОБЛЕМА ХУДОЖЕСТВЕННОГО РЕШЕНИЯ В СОВРЕМЕННОМ
ПРОМЫШЛЕННОМ И ИНТЕРЬЕРНОМ ДИЗАЙНЕ**

**THE QUESTION OF AN ARTISTIC SOLUTION IN MODERN INDUSTRIAL
AND INTERIOR DESIGN**

Ma'suddin Salaxiddinov

Respublika dizayn maktabi direktori
San'atshunoslik fanlari falsafa doktori (PhD)

***Annotatsiya:** Zamonaviy global industrializatsiya sharoitlarida dizayn jamiyatning iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy sohalariga o'z ta'sirini o'tkazib, ularning rivojida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sanoat industriyasi ko'p tarmoqli, faol rivojlanayotgan soha bo'lganligi sababli jahonda XX asr oxiri – XXI asr boshlarida dizayn nazariyasi va amaliyoti, dizayn ta'limiga doir muammolar yanada dolzarblashdi. Mazkur maqolada zamonaviy sanoat va interyer dizaynida badiiy yechim masalasi ko'rib chiqiladi.*

***Аннотация:** В условиях современной глобальной индустриализации дизайн приобретает все большее значение в их развитии, оказывая влияние на экономическую, культурную и социальную сферы общества. В связи с тем, что индустрия промышленности является многопрофильной, активно развивающейся отраслью, в мире в конце XX – начале XXI века стали более актуальными проблемы теории и практики проектирования, дизайнерского образования. В данной статье рассматривается вопрос художественного решения в современном промышленном и интерьерном дизайне.*

***Annotation:** In the conditions of modern global industrialization, design takes its influence on the economic, cultural and social spheres of society and is instrumental in their development. Since Industrial industry is a multidisciplinary, actively developing field, problems with design theory and practice, design education in the late 20th – early 21st centuries have become more relevant in the world. This article will consider the issue of an artistic solution in modern industrial and interior design.*

***Kalit so'zlar:** Sanoat, industriya, dizayn, interyer, badiiy yechim, marketing, san'at, texnologiya.*

***Ключевые слова:** промышленность, индустрия, дизайн, интерьер, художественное решение, маркетинг, искусство, технологии.*

***Key words:** Industry, design, interior, artistic solution, marketing, art, technology.*

Industrial dizayn tarixi texnika rivoji elektromotor, havoda uchish nafaqat tarixi bilan chambarchas bog'liq. Bug' mashina qurilishida yangidan-yangi dvigateli, ichdan yonish dvigateli, sohalarning paydo bo'lishiga ta'sir

ko'rsatdi, balki dizayn rivojining tarixiy davrlariga aylandi. Dizayner sanoat mahsulotlarini loyihalashtirish jarayonida mahsulotning potensial iste'molchilarining hayot tarzi, odatlari, didi va qiziqishlari kabi tushunchalari bilan ishlaydi. Shuningdek, maishiy buyumlar loyihasida birinchi rejaga mahsulotlarni sotish masalalari chiqadi va shu sababli dizayn savdo-sotiq xarakterini kasb etadi. Dizayn zamonaviy jamiyatning va inson yashash muhitining tarkibiy qismiga aylanishga ulgurdi. Zamonaviy bosqichda kreativ va bir vaqtning o'zida ergonomik buyumni yaratish, maksimal tarzda buyumning texnologik va funksional sifatlarini saqlab qolish professional dizaynning asosiy vazifasiga aylandi[1].

1969-yilda ICSID (International Council of Societies of Industrial Design), Sanoat dizayni jamiyatining xalqaro uyushmasi dizaynni sanoatda ishlab chiqariluvchi buyumlarning shakli va mazmunini belgilashni maqsad qilgan "ijodiy faoliyat" sifatida belgilab berdi [2]. Unga ko'ra dizayn nafaqat buyumlarning tashqi ko'rinishini belgilab beradi, balki funksional va konstruktiv xususiyatlari, ergonomik talablarga muvofiqligi, texnologik xususiyatlari, qo'llashda qulaylik va xavfsizlik masalalarini majmuaviy qamrab oluvchi faoliyat turi hisoblanadi. Shu o'rinda ICSID tarixiga to'xtalib o'tish joiz. Uyushma 1957-yilda sanoat dizayniga qaratilgan xalqaro tashkilotlar guruhidan tashkil topgan va o'z maqsadini jahonda dizayn rivojiga qaratgan. Hozirda bu jamiyat WDO (World design organization) – Xalqaro dizayn tashkiloti deb nomlanib, unga 40 ta mamlakattan 170 ta tashkilot kiradi va 150 000 ta dizaynerlarni o'zida birlashtiradi. Assotsiatsiyaning asosiy maqsadi dizayn sohasini xalqaro darajada rivojlantirish, hayot sifatini oshirish sanalib, sanoat

dizaynidagi iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash uchun global jozibadorlik bo'yicha qator tashabbuslarni amalga oshiradi.

WDO rahbarligida ikki yilda bir marotaba shahar hududini takomillashtirishga muvaffaq bo'lgan va innovatsion dizaynni samarali qo'llagan shahar tanlab olinadi. Mazkur tashabbus natijasida Turin (2008 y.) shahari birinchilardan bo'lib Jahon dizayni poytaxti sifatida tan olingan. Undan so'ng Seul (2010 y.), Xelsinki (2012 y.), Keyptaun (2014 y.), Taybey (2016 y.), Mexiko (2018 y.), Lill Metropol (2020 y.), Valensiya (2022 y.) shaharlari ijtimoiy, ekologik, madaniy va iqtisodiy ko'lamda hududda yashash sharoitini yaxshilagani sababli jahon dizayni poytaxti sifatida belgilangan. Mazkur mukofotda asosan sanoat dizaynidagi yutuqlar e'tiborga olinadi.

World design organization tomonidan har yilning 29-iyun sanasida tashkil etilayotgan Xalqaro sanoat kuni sanoat dizaynerlari, olimlar, talabalar va hattoki dizaynerlik sohasiga qiziquvchilarning barchasini o'zida jamlab, mazkur sohaning turli mamlakatlardagi kommunikatsiyasi, yangi axborotlar almashinuvini ta'minlaydi. Jahon bozorida dizayn sohasining barqaror rivojiga WDO tashkiloti faoliyati o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, sanoat dizayni marketing, san'at va texnologiya elementlarini o'zida mujassamlashtiradi. Dizayn buyumning yaralish jarayonining texnologik va konstruktiv tomonlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Professional vazifalarga ijodiy yondashuv va muammolarga kasbiy malaka bilan optimal yechim topa oluvchi yuqori salohiyatli dizayner-mutaxassislariga zamonaviy talablarga mos buyumni badiiy-ijodiy loyihalashtirish va uni yaratishning

uddasidan chiqadilar. Yetakchi dizaynerlar, studiyalar, dizayn byurolarining ijodiy faoliyati tizimini anglash, shuningdek, buyumni badiiy loyihalash tamoyillari haqida ilmiy tasavvurga ega bo'lish bo'lajak sanoat va interyer dizayni mutaxassislari malakasining zaruriy talabiga aylanmoqda.

Radioelektronika asbob-uskunalari va turli radioelektronika mahsulotlari ishlab chiqarishda qo'llaniladigan elektron texnika mahsulotlari, jumladan, televizorlar ishlab chiqaruvchi «FOTON» Aksiyadorlik jamiyati – radioelektronika sanoatining yirik korxonasi bugungi kunda «O'zeltexsanoat» uyushmasi tarkibiga kiradi. Korxonada 1941-yilda Fryazino shahridan (Moskva viloyati) evakuatsiya qilingan «Radiolampa» elektrovakuum asboblari zavodi negizida tashkil etilgan. Urush yillarida zavod mudofaa mahsulotlari ishlab chiqargan. 1966-yildan Toshkent elektron texnika zavodi deb nomlangan. 1976-yilda korxonada va uning filiallari negizida «Foton» ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etilgan. Bu davrda korxonada mudofaa sanoati ahamiyatidagi qabul qilgich, kuchaytirgich lampalari, generator lampalari, gazotronlar, kenotronlar – yuqori voltli to'g'rilagichlar, qotishmalar texnologiyasi bo'yicha yarimo'tkazgichli priborlar, bipolyar texnologiyalar asosida qattiq jinsli integral mikrosxemalar (15 tipdan ko'proq) ishlab chiqargan. Bu davr korxonaning oltin davri bo'lib, texnik taraqqiyotning ilmiy yutuqlariga tayangan holda shaxsiy mini kompyuter, videomagnitofon, avtomat kir yuvish mashinalari kabi mahsulotlarni o'zlashtirish boshlanadi. Mustaqillik davriga kelib faqat detallar ishlab chiqaruvchi korxonada faoliyati tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish zaruriyatiga duch keladi va 1995-yildan ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatiga

aylanadi[3]. Bu yillarda korxonada ishlab chiqarish yo'nalishlari qayta tashkil qilindi. Ukrainaning «Vesna» (1994-y.) va Yaponiyaning SONY (1997-y.) firmalari bilan hamkorlikda oq-qora va rangli televizorlar, xotirali kassa apparatlarini ishlab chiqarishni boshlaydi. 2007-yilda korxonada yillik mahsulot ishlab chiqarish hajmi 3,9 mlrd. so'mni tashkil etgan. 1,9 mln dollar miqdoriga teng mahsulotlar eksport qilingan.

Bugungi kunda O'zbekistonda interyer dizayni faol rivojlanayotgan soha sanaladi. Qurilish sonining keskin ortishi (ko'p qavatli uylar, kafe va restoranlar, xonadon va ofislar, savdo do'konlari va ma'muriy binolar) interyer dizaynerlariga ham talabni oshirmoqda. Inshoot interyerini tashkil etish, bir tomondan, maqsadga muvofiqlik, ishonchlilik, qulaylik, ikkinchi tomondan, badiiy taassurotning yaxlitligi talablariga javob berishi kerak. Badiiy obraz tushunchasi estetik jihatdan ta'sir etuvchi omil sifatida dizayn interyerida ham mavjud va galdagi masala zamonaviy interyerlarda badiiy obrazga e'tibor qaratishga bag'ishlanadi. Xususan, interyer obyektlarining mazmuni muayyan darajada dizayner tafakkurida tashqi ifodaning ruhiy moddiylik sifatida paydo bo'lgan obrazlar orqali hosil bo'ladi. Obrazli tasavvur orqali plastik moddiy shaklning uning hissiy asosi bilan aloqasi, tashqi shaklning uning mazmuni bilan aloqasi belgilanadi.

Badiiy obraz masalasiga vizual va plastik san'at turlarida katta e'tibor qaratilgan. Dizayn sohasida badiiy obrazni G.L.Demosfenova o'rganib, unga quyidagicha ta'rif beradi: "Obraz – fikrlash vositasidir, ma'lum bir voqelik bilan to'qnashuv jarayonida hosil bo'lgan tasvir sanaladi. Obraz o'z geometriyasi va vaqt aloqalari bo'lgan "tasavvur etilgan" makonda mavjuddir." [4]. Muallif ongli ravishda buyum shakliga muayyan

mazmun ifodasi sifatida murojaat etib, dizaynni badiiy faoliyatning bir turi sifatida ko'rib chiqadi.

Valter Gropius aytganidek, dizayn shaklning o'ziga xos "vizual zabonini" yaratadi. Bu zabonda nisbat, optik illyuziya, nur va soya, bo'shliq va hajmlar, rang va masshtab munosabati asosiy belgi sifatida namoyon bo'ladi. Inson ijtimoiy jonzot sifatida interyerni nafaqat funksional tashkil etilgan makon sifatida qabul qiladi, balki uni angelaydi, assotsiativ xotirlaydi. Interier inson uchun faqat yashash muhiti emas, balki boshqa insonlar bilan munosabat qurishi uchun zarur bo'lgan belgilardan tashkil topgan olamdir.

Sanoat va interier dizaynida rangning roli beqiyos. Insonga tabiat in'om etgan borliqni idrok etishda ranglarning xilma-xil "simfoniya"sini ko'rish eng go'zal tuyg'u hislarni uyg'otadi. Rang muhiti to'g'ri tashkil qilinganda u kishi hayotining asosiy bezovchisi sifatida qatnashadi. O'rta Osiyoning o'rta asrlar me'morchiligi va xalq hunarmandchiligida ustalar buyum va me'moriy obyektning kompozitsiyasini yaratishda ranglardan yuqori badiiy did va mahorat bilan foydalanishgan. Masalan, Go'ri Amir maqbarasining tashqi tektonikasining jozibadorligida ranglar asosiy rol o'ynagan. Binoning ko'kish, havorang, och-yashil rangli koshinlardan terilgan ulkan gumbazi uning osmonning moviy tusi bilan qo'shib, yengil ko'rinishini, devorlaridagi rang-barang naqshlar esa tekisliklarning kompozitsiyaviy nisbatlari uyg'unligida his etilishini ta'minlaydi. Xiva, Buxoro shaharlaridagi me'moriy ansambllarining fazoviy shakllanishida polixromiya asosiy uslub sifatida qatnashadi. Minoralarining rangli naqshlari, peshtoqlarga ishlangan sopol bezaklar, birinchidan, ulardagi tekisliklarning yuzalari, har xil shakliy

o'lchamlarini o'zaro uyg'unlashtiradi, ikkinchidan, yonma-yon, majmuaviy me'moriy makonni fazoviy tashkil etishda o'zining ornamental, rang tuzilishining xilma-xilligi bilan ishtirok etadi. Dizayn ta'limi jarayonida milliy uslub haqida gap ketganda albatta talabalarga o'rta asrlar badiiy maktabi, badiiy bezak va obraz masalasi borasida tushunchalar berish maqsadga muvofiq sanaladi.

Rang bilan bir qatorda interierning badiiy ifodaviyligi simmetriya va asimmetriya, elementlarning o'zaro nisbati, ritm, inson bilan masshtab munosabatiga ham yuklatilgan. Interier dizaynining loyihaviy-badiiy obrazida yuqorida sanab o'tilgan elementlar muallif g'oyasini moddiylashtirish, vizuallashtirishga imkon beruvchi asosiy vosita sanaladi. Bir qator tarixiy stillarda (gotika, barokko, klassitsizm, modern) interier shakllarining tahlili shakl va obrazning o'zaro aloqadorligi, obyektida badiiy obrazning shakllanishi bilan bog'liq aniq usullarni aniqlashga yordam beradi. Masalan, gotika interierlarida mahobatlilik, tantanavorlik, irreallik, "zamin uzra ruh parvozi" obrazini yaratish uchun balandlik, devor tekisligining vizual buzilishi kabi tarhning yangi rejasi qo'llanilgan. Ravoq, deraza va eshik orasining yoysimon shakli yuqoriga intiluvchanlik va yengillikni kuchaytirgan. Sirlilik effektini kamalak rangida tovlanayotgan vitrajlar ham bag'ishlagan. Barokko interierida esa tarhning qiyshiq shakli, ustun, taxmonlarning murakkab plastikasi, yorug'lik o'yinlari, devoriy suratlar, tilla, to'q qizil, to'q ko'k ranglarning boyligi mahobatli tantanavorlik va hashamatni belgilab bergan.

Har bir stilga bu kabi misollarni keltirish mumkin. Tarixiy stil chegarasida interier shakllari elementlari mukammallikka qadar yetkazilgan o'ziga

xos vizual zabonga aylanadi. Zamonaviy interyer dizayner ham muayyan assotsiativ mohiyatga ega shakllar ustida izlanadi. Ma'muriy muassasalar, rahbarlarning xonalarida "jiddiy tantanavorlik", "tartib" obrazi, xonadonlarda esa "garmoniya, qulaylik", "yaxshi did", "orastalik", qahvaxonalarda lirik, do'stona kayfiyat, to'yxonalarda esa aksincha "mahobatli hashamat" hissiyotini berish uchun dizayner albatta badiiy tafakkurga ega bo'lishi darkor. Shunday qilib tarixiy uslublar malakasidan obrazi masalalarni yechish vositasi sifatida foydalanish zamonaviy interyer obyektlarini loyihalashda asosli va samarali imkoniyatdir.

Sanoat va interyer dizayni sohasi zamonaviy dunyoda tobora muhim bo'layotgan ekan, yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi ushbu ikki sohaning ko'plab kasblar orasida zaruratini yanada dolzarblashtirdi. Shu sababli, ushbu bo'limda O'zbekistondagi sanoat va interyer dizayni ta'limdagi mavjud jarayon, yangi IT texnologiya va dasturlarni o'zlashtirishga qaratilgan kurslar samaradorligi hamda pedagoglarning malaka oshirish masalalariga e'tibor qaratdik. Talabalarning sifatli ta'lim olishi va kelgusida sanoat korxonalarida dizayner mutaxassis sifatida faoliyat ko'rsatishiga ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi asosiy omillar belgilandi:

– o'quv muassasalarida dizayn ishlanmalarining yangi va innovatsion metodlarini qo'llash;

– zamonaviy texnologiyalarni (IT dasturlari, AR va VR) dizayn ta'limi sohalarida qo'llash;

– texnologiyalarni qo'llashda virtual reallikni yarata olish, talabalarga muhitning realistik simulyatsiyasini taqdim etish;

– dizaynga amaliy yondashuvni kuchaytirish maqsadida talabalarga turli variantdagi xomashyolar (metall, mato, farfor, shisha va b.lar) bilan tajribalar o'tkazishi uchun ustaxonalarda maxsus texnik sharoitini yaratish;

– talabalarga loyihalarni uch o'lchamda vizuallashtirishga imkon beruvchi dasturiy ta'minotlarga ega bo'lish. Bu zamonaviy avtomatlashtirilgan loyihalash vositalarini qo'llay olishda talaba uchun katta malaka bo'ladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, zamonaviy texnologiyalar yordamida sanoat va interyer dizayni sohalarida ta'limni kengaytirish o'quvchilarda dizaynning asosiy tamoyillarini anglashni yaxshilashga xizmat ko'rsatadi. 3D-modellashtirishga oid virtual reallik (VR), to'ldirilgan reallik (AR) kabi dasturiy ta'minotlar talabalarga ta'lim jarayonini yanada jonli va zavqli bo'lishiga zamin yaratadi. Bu bilimlar yosh mutaxassislarni amaliyotda texnologiyalarni innovatsion dizayn yechimlarida qo'llash imkoniyatini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Аллаберганова А.Б. Методология дизайн. Учебное пособие. ЁДЖУ. – Ташкент, 2021.
2. Дизайн. Иллюстрированный словарь справочник / Г. Б. Минервин, В. Т. Шимко, А. В. Ефимов и др.: Под общей редакцией Г. Б. Минервина и В. Т. Шимко. – М.: «Архитектура-С», 2004, 288 с. ISBN 5-9647-0021-7.
3. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент, 2009.
4. Демосфенова Г.Л. К проблеме художественного образа в дизайне. – М., 1980 // Труды ВНИИТЭ. Сер. Техническая эстетика. Вып. 23. – С. 31.

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHINING BADIY DID VA ESTETIK TAFAKKURNI
SHAKLLANTIRISHDA KASBIY TAYYORGARLIKNING AHAMIYATI
THE IMPORTANCE OF PROFESSIONAL TRAINING IN FORMING
ARTISTIC TASTE AND AESTHETIC THINKING OF FUTURE TEACHERS
ЗНАЧЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ В ФОРМИРОВАНИИ
ХУДОЖЕСТВЕННОГО ВКУСА И ЭСТЕТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ
БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ**

Temirov Murodjon Anvarovich
ADU “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi”
kafedrası katta o‘qituvchisi

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo‘ljak o‘qituvchilarning badiiy did va estetik tafakkurini shakllantirishda kasbiy tayyorgarlikning ahamiyati o‘ziga xos fan va metodologik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Maqola, pedagogik faoliyatda estetik ta’limning muhimligini va badiiy didni shakllantirishning kasbiy tayyorgarlik bilan bog‘liqligini yoritadi. Maqolada ta’limning badiiy va estetik komponentlari, o‘qituvchi mutaxassisligi va badiiy didni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan o‘quv dasturlari va metodikalar tahlil qilinadi. Kasbiy tayyorgarlikning samaraliligi, u tashkil etgan badiiy va estetik mohiyatni to‘g‘ri o‘zlashtirish, va talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha aniq tavsiyalar beriladi. Maqolada olingan natijalar ta’lim sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va metodik ishlanmalarga asosanib, o‘qituvchi kadrlarini tayyorlashda badiiy va estetik ta’limning ahamiyatini yuksaltirish uchun amaliy takliflar ko‘rsatilgan.*

***Аннотация:** В данной статье проанализировано значение профессиональной подготовки в формировании художественного вкуса и эстетического мышления будущих учителей с научной и методологической точек зрения. В статье освещается важность эстетического образования в педагогической деятельности и связь формирования художественного вкуса с профессиональной подготовкой. В статье анализируются художественно-эстетические компоненты образования, учебные программы и методика, необходимые для развития педагогической специальности и художественного вкуса. Даются конкретные рекомендации по эффективности профессиональной подготовки, правильному усвоению ее художественно-эстетической сущности и развитию творческих способностей студентов. В статье на основе полученных результатов научных исследований и методических разработок в области образования представлены практические предложения по повышению значимости художественно-эстетического образования в подготовке педагогических кадров.*

***Annotation:** This article analyzes the importance of professional training in shaping the artistic taste and aesthetic thinking of future teachers from scientific and methodological perspectives. The article highlights the significance of aesthetic*

education in pedagogical activity and the connection between the formation of artistic taste and professional training. It examines the artistic and aesthetic components of education, curricula, and methods necessary for developing pedagogical specialization and artistic taste. Specific recommendations are provided regarding the effectiveness of professional training, the proper assimilation of its artistic and aesthetic essence, and the development of students' creative abilities. Based on the results of scientific research and methodological developments in the field of education, the article presents practical proposals for increasing the importance of artistic and aesthetic education in the training of pedagogical personnel.

Kalit soʻzlar: *Badiiy did, estetik tafakkur, pedagogik faoliyat, ijodiy qobiliyatlari.*

Ключевые слова: *Художественный вкус, эстетическое мышление, педагогическая деятельность, творческие способности.*

Key words: *Artistic taste, aesthetic thinking, pedagogical activity, creative abilities.*

Oʻtgan asrning koʻp oʻn yilliklari davomida butun dunyoda shaxsiy feʼl-atvor funksiyasiga ega boʻlgan “shaxsning maqomini kelib chiqishi bilan emas, balki taʼlim darajasi bilan aniqlash” tendensiyasi oʻsib bormoqda. Biroq taʼlim tizimining funksional imkoniyatlari va ilmiy yutuqlarning doimiy oʻsishi bilan uning ijtimoiy ahamiyati mustahkamlana boshladi.

Zamonaviy psixologik-pedagogik tadqiqotlarda integratsiyalashgan taʼlim tizimi bilan ishlaydigan taʼlim va tarbiya muammosi toʻgʻrisida yangi tushunchani rivojlantirish tendensiyasi mavjud. Qanday insoniy fazilatlar oʻrganilmasin, zamonaviy taʼlim mazmuni haqida tasavvurga ega boʻlish qiyin. Faqatgina yaxlit ishlash va rivojlanish jarayonida olingan elementlar va obyektlarni tizimli tahlil qilish bizga ilmiy manzarani qayta tiklashga yordam beradi. Evristik tadqiqot apparati sifatida tizimli tahlil bilish strategiyasini metodologik jihatdan ishonchli qurish imkonini beradi. Muhimlik dastlabki tushuncha – “tizim” bilan belgilanadi.

Tizimli yondashuv hodisani u yuzaga keladigan va rivojlanadigan muhitdan ajratilgan holda emas, balki butun va ichki

tuzilishga tashqi taʼsirni hisobga olgan holda butun birlikda koʻrib chiqish zarurati bilan bogʻliq. Pedagogik muammolarni oʻrganishga tizimli yondashuv nafaqat nazariy, balki amaliy, taʼlim nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Uni qoʻllash imkoniyati F.F. Korolevning pedagogik tadqiqotlarida aks ettirilgan. U pedagogik tizimni oʻzaro aloqa va munosabatda boʻlgan elementlar majmuasi, deb hisoblaydi.

Shu bilan birga, taʼlimni pedagogik tizim sifatida oʻrganishning uslubiy asosi obyektning tizimli xususiyatlarga muvofiqligi: har bir komponentning butun funksiyalariga bogʻliqligi; strukturallik – tizimning har bir komponentini koʻrib chiqish imkoniyati bilan namoyon boʻladi. Pedagogik jarayonni talaba shaxsiga yoʻnaltiradigan shaxsiy yondashuv bilan bogʻliq holda, tizimli yondashuv uning oʻziga xosligini, intellektual va axloqiy erkinligini va hurmat qilish huquqini tan olishdir.

V.A. Slasteninning soʻzlariga koʻra, shaxsiy yondashuv taʼlimda shaxsning moyilligi va ijodiy salohiyatini, oʻz-oʻzini rivojlantirishning tabiiy jarayoniga tayanishni, buning uchun tegishli sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi.

Faoliyat shaxsiy yondashuv bilan chambarchas bog'liq bo'lgan shaxsiy rivojlanishning hal qiluvchi sharti bo'lib xizmat qiladi[13].

Faoliyat yondashuvining ahamiyati A.N. Leontevning asarlarida ko'rsatilgan, u o'quvchilarni mustaqil hayotga va xilma-xil faoliyatga tayyorlashda ularni ushbu faoliyat turlariga jalb qilish kerak, deydi[12]. Zamonaviy tadqiqotlarning aniq yo'nalishi – bu ta'lim muassasasida ta'limga konseptual qarashlar tizimini o'rnatadigan ta'limning dialogik tabiati. Ta'lim jarayonida dialogni yaratish yoki chiqarib tashlash va uni boshqa ta'lim shakllari bilan almashtirishga urinish pedagogik nazariya va amaliyotda qarama-qarshiliklarga olib keladi. Ijtimoiy-iqtisodiy dinamizm va pedagogik faoliyatning kommunikativ tabiatining o'ziga xosligini hisobga oladigan paradigma o'zgarishi faqat o'z-o'zini rivojlantirish, o'zini anglash, o'qituvchi va talaba o'zaro ta'sirini rag'batlantiradigan yangi o'quv texnologiyalariga o'tish bilan amalga oshirilishi mumkin. Ta'lim faoliyatida samarali pedagogik o'zaro ta'sir vositasi sifatida dialogik yondashuvdan foydalanish zarurati mavjud.

Hozirgi vaqtda qayta tiklanganlardan biri – bu K.D. Ushinskiy tomonidan ishlab chiqilgan va asoslab berilgan antropologik yondashuv bo'lib, u ushbu gumanitar fanlardan ta'lim predmeti sifatida tizimli foydalanish va ularni pedagogik jarayonni amalga oshirishda ko'rib chiqish sifatida talqin qiladi. “Agar pedagogika insonni har tomonlama tarbiyalashni istasa, avvalo u bilan ham har tomonlama tanishishi kerak”, deydi olim[15].

So'nggi yillarda ta'limda milliy masalaning ahamiyati kam baholanib, milliy madaniyat va xalq pedagogikasining boy merosi e'tibordan chetda qolmoqda. Milliy ta'lim madaniyati

Annotation: This article analyzes the didactic opportunities of pedagogical games in developing the 4K model (critical thinking, collaboration, communication, and creativity) competencies in primary school lessons. The analysis explores how pedagogical games can ensure active participation of students during lessons, increase their interest, and enrich the content of education. Through pedagogical games, students are provided with opportunities to work collaboratively, solve problems together, and develop creative thinking skills. The article discusses how to effectively apply games to enhance students' creativity and collaboration skills, the classification of pedagogical games, as well as the opportunities they present for teachers and their importance in the individual and collective development of students. These approaches aim to assist teachers in implementing innovative methods in the educational process and effectively developing students' 4K competencies. The article combines practical experience and theoretical foundations to further emphasize the significance of pedagogical games in education.

Kalit soʻzlar: 4K modeli, boshlangʻich taʼlim, kompetensiyalar, oʻquvchilar, pedagogik oʻyinlar, didaktik imkoniyatlar, kritik fikrlash, hamkorlik, kommunikatsiya, ijodkorlik, oʻquv jarayoni, faol ishtirok, taʼlim samaradorligi, ijodkorlik koʻnikmalari, muammolarni hal qilish.

Ключевые слова: Модель 4К, начальное образование, компетенции, учащиеся, педагогические игры, дидактические возможности, критическое мышление, сотрудничество, коммуникация, креативность, образовательный процесс, активное участие, эффективность обучения, творческие навыки, решение проблем.

Key words: 4K model, primary education, competencies, students, pedagogical games, didactic opportunities, critical thinking, collaboration, communication, creativity, educational process, active participation, educational effectiveness, creativity skills, problem-solving.

KIRISH. Boshlangʻich talim jarayoni, oʻquvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun poydevor yaratadi. Ushbu bosqichda pedagogik yondashuvlar va metodlar muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda taʼlimda innovatsion yondashuvlardan biri sifatida pedagogik oʻyinlar alohida eʼtiborni tortadi. Ular, oʻquvchilarni faollashtirish, qiziqishni oshirish va koʻnikmalarni rivojlantirishda

samarali vosita hisoblanadi. Ayniqsa, 4K modeli — kritik fikrlash, hamkorlik, kommunikatsiya va ijodkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik oʻyinlarning ahamiyati nihoyatda beqiyosdir. Pedagogik oʻyinlar taʼlim jarayonida oʻquvchilarning faol ishtirokini taʼminlaydi. Oʻyin davomida oʻquvchilar bir-birlari bilan muloqot qilishadi, muammolarni birgalikda hal

qilishadi va turli vaziyatlarga ijodiy yondashadilar. Bu jarayon nafaqat ularning qiziqishini oshiradi, balki ta'lim mazmunini yanada boyitadi. O'yinlar orqali o'quvchilar bir-birlariga yordam berishadi, birgalikda fikrlashadi va yangi g'oyalar ishlab chiqishadi. 4K modeli ta'lim jarayonida o'quvchilarning ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Kritik fikrlash ko'nikmalari, o'quvchilarga muammolarni tahlil qilish va ularga alternativ yechimlarni taklif qilish imkoniyatini beradi. Pedagogik o'yinlar bu jarayonda o'quvchilarga real vaziyatlarni simulyatsiya qilish orqali tahlil qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Hamkorlik ko'nikmasi esa o'quvchilarni jamoaviy ish qilishga, bir-birlarini qo'llab-quvvatlashga va g'oyalarni baham ko'rishga undaydi. Dars jarayonida foydalaniladigan pedagogik o'yinlar davomida o'quvchilar o'zaro munosabatlar o'rnatib, bir-birlariga yordam berishadi, bu esa hamkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi.

Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishda pedagogik o'yinlardan foydalanish yuqori samaradorlikka ega. O'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifodalash, fikr almashish va muammolarni muhokama qilish orqali kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantiradilar. O'yinlar orqali o'quvchilar bir-birlariga tushunarli tarzda gapirishni o'rganadilar va fikrlarini aniq ifodalashga harakat qilishadi.

Ijodkorlik ko'nikmalari esa o'quvchilarni innovativ g'oyalarni ishlab chiqishga, yangi yechimlar topishga undaydi. O'yinlar jarayonida o'quvchilar o'z ijodiy qobiliyatlarini namoyish etib, yangi fikrlar va yechimlar ishlab chiqadilar. Umuman olganda, pedagogik o'yinlar boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning 4K kompetensiyalarini

rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular nafaqat o'quvchilarning qiziqishini oshirib, ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi, balki shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchilar pedagogik o'yinlarni ta'lim jarayonida qo'llash orqali innovatsion usullarni joriy etish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Natijada, o'quvchilar o'z ko'nikmalarini yanada samarali rivojlantiradilar, bu esa ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam asos bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYA. Ta'lim jarayonida pedagogik o'yinlardan foydalanishning pedagogik xususiyatlarini Johann Heinrich Pestalozzi, Friedrich Froebel, Dmitriy Elkonin, Alexander Leontiev, David A. Sousa, Kathy Hirsh-Pasek, Megan D. McCarthy kabi olimlar o'zlarining pedagogik hamda ilmiy tadqiqot faoliyatlarida keng miqyosda yoritib berganlar.

Buyuk pedagog olimlardan biri Yohann Genrix Pestalozzi o'z ilmiy izlanishlarida bolalar ta'limiga oid ko'plab ta'limga oid innovatsiyalar va turli yondashuvlarni izohlagan. U o'qitish uslublari va didaktik tamoyillar orqali ta'lim tizimiga katta hissa qo'shgan. Xususan, u o'zining integratsiyalashgan ta'lim usuli orqali bolalarning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishiga alohida e'tibor qaratgan. Uning ta'lim metodikasida aqliy, axloqiy va jismoniy rivojlanish bir-biriga uzviy bog'liq bo'lib, ularni ajratmasdan o'rgatish kerak, deb hisoblagan. Pestalozzi bolalarning tabiiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ko'rgazmali o'quv materiallaridan foydalanishni taklif qilgan. U bolalarning o'z-o'zini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerakligini aytgan va ta'limni didaktik yondashuv asosida olib borishni qo'llab-quvvatlagan[18,19].

O'yinlarda o'quvchilarning tasavvurlari shakllanib, hayotiy vaziyatlarni anglash ko'nikmalari tarkib topadi. Moddiy borliq timsolini tasavvur qilish layoqati, undagi harakatlarni idrok etish, undagi o'zgarishlar o'quvchilarning o'yin harakatlarida o'z ifodasini topishini ta'minlaydi. O'yin jarayonida o'quvchilarda hissiyotlardan tashkillashtirilgan harakatlarga, bunday harakatlardan hissiyotlargacha bo'lgan rivojlanish jarayoni tarkib topadi. O'yinlar jarayonida o'quvchilar bajaradigan rollarda ularning shaxsiy sifatlari rivojlanadi, boyiydi va kengayadi. Shuning uchun ham ko'plab olimlar o'quvchilarning o'yin faoliyatini tavsiflashga alohida e'tibor qaratganlar E.G'.G'oziyev, M.G.Davletshin, R.Y.Toshimov, L.S.Vigotskiy, O.S.Gazman, A.N.Leontyev, M.G.Yanovskaya. Ularning ta'biricha, o'yinning asosiy mohiyati o'quvchilar uchun ahamiyatli bo'lgan kechinmalarda mujassamlashadi. Chunki o'yinlar jarayonida dastlabki ruhiy rivojlanish jarayoni amalga oshadi. Bu esa, o'quvchilarning hayotiy tajribalariga izchil tarzda singib boradi.

Tadqiqotchi Kathy Hirsh-Pasek ta'limda o'yinlarning o'rnini yanada oshirishga qaratilgan tadqiqotlar olib boradi. U o'yinlarni bolalar uchun eng samarali o'rganish vositalaridan biri sifatida ko'radi. Uning fikricha, o'yinlar bolalarning ijtimoiy, emotsional va kognitiv rivojlanishiga yordam beradi. U shuni ta'kidlashni istaydi ki, o'yinlar o'quvchilarni rag'batlantiradi, ular o'zlarini ifoda etish va muammolarni hal etishda erkinlikka ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Hirsh-Pasek shuningdek, o'yinlarning ta'limda haqiqiy hayotga mos ravishda o'quvchilarning bilimlarini kuchaytirishga yordam berishini ta'kidlaydi.

Pedagog olim Deborah Linebarger bolalar uchun raqamli o'yinlarning ta'limga ta'sirini o'rganadi. U raqamli o'yinlar orqali o'quvchilarning kognitiv ko'nikmalarini, fikrlash qobiliyatlarini va ijodiy yondashuvlarini qanday rivojlantirish mumkinligini tahlil qiladi. Linebarger o'yinlarning o'zlashtirish jarayonida qanday rol o'ynashini o'rganib, o'yinlar va multimedia vositalarining ta'limdagi o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. U o'yinlarni ta'lim jarayonida faol o'rganish vositalari sifatida ko'radi va raqamli o'yinlarning ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlarini tadqiq etadi.

David Williamson Shaffer esa o'yinlarni ta'lim tajribalarini yaratish vositasi sifatida ko'radi. U, o'yinlar yordamida o'quvchilarning haqiqiy hayotdagi muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam berishini ta'kidlaydi. Shaffer, o'yinlarni ta'lim jarayoniga integratsiyalash orqali o'quvchilarning ijtimoiy va hissiy ko'nikmalarini kuchaytirish imkoniyatlarini o'rganadi. Uning tadqiqotlari o'yinlarni ta'limda innovatsion yondashuvlar yaratish uchun samarali vosita sifatida ko'rsatadi.

MUHOKAMA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida 4K modeli kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik o'yinlar muhim ahamiyatga ega. Chunki ushbu yoshdagi bolalar o'rganish jarayonida faollik, qiziqish va ijobiy hissiyotlarga ehtiyoj sezadilar. Bu ehtiyojlarni qondirish va ularning intellektual, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga ko'maklashish uchun pedagogik o'yinlardan samarali foydalanish mumkin. Ta'lim tizimida pedagogik o'yinlardan foydalanish imkoniyatlarini ko'plab pedagog olimlar o'rganishgan hamda bu jarayon ustida turlicha tadqiqotlar olib borilgan [3],[4].

Ta'lim jarayonida pedagogik o'yinlardan foydalanishning pedagogik xususiyatlarini Johann Heinrich Pestalozzi, Friedrich Froebel, Dmitriy Elkonin, Alexander Leontiev, David A. Sousa, Kathy Hirsh-Pasek, Megan D. McCarthy kabi olimlar o'zlarining pedagogik hamda ilmiy tadqiqot faoliyatlarida keng miqyosda yoritib berganlar.

Buyuk pedagog olimlardan biri Yohann Genrix Pestalozzi o'z ilmiy izlanishlarida bolalar ta'limiga oid ko'plab ta'limga oid innovatsiyalar va turli yondashuvlarni izohlagan.

Nemis pedagog olimi Friedrich Froebel asosan bolalarning ta'limi va rivojlanishiga e'tibor qaratgan. Froebel pedagogik o'yinlarning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini o'z tadqiqotlarida keng yoritib bergan va o'yinlarni o'qitishning asosiy elementi sifatida ko'rsatgan. Uning asosiy g'oyalaridan biri bolalar o'yin orqali o'zlariga qiziqarli va foydali bilimlarni olishlaridir. Froebel bolalar uchun o'yinlarni didaktik jarayon sifatida qabul qildi. U o'yinlarni o'qitishning samarali vositasi sifatida ko'rib, bolalarga o'yin orqali dunyoni tushunishga yordam berishni maqsad qildi.

Rossiyalik pedagog olim Dmitriy Elkonin pedagogik o'yinlarga katta hissa qo'shgan olimlardan biridir. Uning ishlarida o'yinlarning bolalar rivojlanishidagi ahamiyati, o'yinlar orqali o'zaro munosabatlarni o'rganish, va o'yinlarni ta'lim jarayonida qanday foydalanish mumkinligi haqida ko'p ma'lumotlar mavjud. Elkonin o'yinlarni o'zaro aloqalar, ijtimoiy ko'nikmalar va psixologik rivojlanish uchun muhim vosita sifatida ko'rgan. Elkoninning fikriga ko'ra, o'yinlar bolalar uchun o'z hissiyotlarini ifoda etish va boshqalar bilan munosabatlarni o'rganish imkonini

yaratadi. U o'yinlarni faoliyat va tajriba sifatida ko'radi, bu esa bolalarga muammolarni hal qilish va yangi ko'nikmalarni rivojlantirishda yordam beradi. Elkonin, shuningdek, o'yinlar orqali bolalar o'z tajribalarini kengaytirishi va ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli bo'lish uchun zarur ko'nikmalarni o'zlashtirishi mumkinligini ta'kidlaydi[19].

Maria Montessori pedagogikasi didaktik o'yinlarni bolalarning o'z-o'zini boshqarish va mustaqil o'rganish jarayonining ajralmas qismi sifatida ko'radi. U o'yinlar orqali bolalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish va muhit bilan aloqasini kuchaytiradi. Montessori, o'yinlarning bolaning qiziqishlariga va ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etilishi zarurligini ta'kidlaydi, shuningdek, o'yinlar orqali bolaning emotsional va kognitiv rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi.

David Elkind o'yinlarning bolalarning shaxsiy va emotsional rivojlanishiga ta'sirini o'rganadi. U o'yinlarni bolalar uchun muhim ko'nikmalarni, masalan, ijtimoiy hamkorlik va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish vositasi sifatida ko'radi. Elkind o'yinlar orqali bolalar stressni kamaytirish va o'z his-tuyg'ularini ifoda etish imkoniyatiga ega ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, o'yinlar bolalar uchun xavfsiz muhitda o'rganish va o'sishga yordam beradi.

Ellin Galinsky o'yinlarning kognitiv rivojlanishga ta'sirini o'rganadi va o'yinlar orqali bolalar o'z-o'zini boshqarish, ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. U shuningdek, o'yinlar orqali bolalar uchun o'zaro aloqalarni kuchaytirish va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Galinsky o'yinlarni ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida ko'radi va

o'qituvchilarni o'yinlarni o'rganish jarayonida faol ravishda qo'llashga chaqiradi.

Tina Bruce, o'yinlarning bolaning shaxsiy rivojlanishidagi ahamiyatini ta'kidlaydi. U o'yinlar orqali bolalar o'zlarini ifoda etish, his-tuyg'ularini boshqarish va boshqa bolalar bilan muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Bruce, didaktik o'yinlarni o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali qilishda yordam beruvchi muhim vosita sifatida ko'radi.

NATIJALAR: Pedagogik o'yinlar ta'lim jarayonini qiziqarli va interfaol shaklda tashkil etib, o'quvchilarning o'zlashtirish faoliyatini yanada samarali va mazmunli qiladi. Ushbu o'yinlar o'quvchilarning darsdagi ishtirokini faollashtiradi, ularni bilimlarni o'zlashtirishga yanada chuqurroq jalb etadi va darsni hissiy jihatdan boyitishga xizmat qiladi.

O'yinlar o'quvchilarga turli vaziyatlarni mustaqil tahlil qilish, mantiqiy fikrlash va yechimlarni topish imkonini beradi. Muammoli vaziyatlar va masalalarni hal etishga qaratilgan o'yinlar orqali o'quvchilarning tahliliy fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi. Masalan, muammoli vaziyatlar, mantiqiy jumboqlar yoki vaziyatli masalalar orqali o'quvchilar mantiqiy xulosalar chiqarishga va mustaqil qaror qabul qilishga o'rganadilar.

Rolli va nutqiy o'yinlar o'quvchilarning o'z fikrlarini erkin ifodalash, boshqalarning fikrini tinglash va tushunish, muammoli vaziyatlarda samarali muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bunday o'yinlar o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, muloqotda aniqlik va tushunarlikni ta'minlash hamda o'zaro fikr almashishni rag'batlantiradi. Masalan, kichik guruhlar uchun mo'ljallangan turli mavzularda

munozaralar, hikoya tuzish yoki rolli sahnalarni ijro etish orqali kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Guruhli o'yinlar va hamkorlikda bajariladigan loyihalar orqali o'quvchilar birgalikda ishlash, guruh ichida rol va vazifalarni taqsimlash, muammolarni birgalikda hal qilish va umumiy maqsadga erishish malakalarini egallaydilar. Bu o'yinlar o'quvchilarda jamoaviy ish qobiliyatini shakllantirib, ularga o'zaro hamkorlik muhitida samarali faoliyat olib borishni o'rgatadi

Ijodiy o'yinlar va topshiriqlar o'quvchilarning yangi g'oyalarni kashf etish, noan'anaviy yechimlar topish va turli san'at turlari orqali o'z fikrlarini ifodalash imkonini beradi. O'quvchilarga mustaqil ijodiy ishlarni bajarish, badiiy asarlarni tahlil qilish yoki yangi mahsulotlar yaratish orqali ularda ijodiy tafakkur va tasavvur kengayadi. Olib borilgan tadqiqotlarni umumlashtirgan holda pedagogik o'yinlarning 4K modeli kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha umumiy klassifikatsiyasini keltiramiz (1.1-jadvalga qarang).

XULOSA. Pedagogik o'yinlar o'quvchilarning faolligini oshirish, ularni qiziqtirish va darsni boyitishda kuchli didaktik vosita bo'lib, quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

– O'yin shaklida o'tilgan darslar bolalarda katta qiziqish uyg'otadi va ular bilimlarni qabul qilishga yanada tayyor bo'lishadi. Bu orqali o'quvchilar mavzularni yodlashdan ko'ra, ulardan tushuncha va bilimlarni ongli ravishda o'zlashtiradilar.

– O'yin orqali olingan bilimlar uzoq muddatli xotirada saqlanadi va o'quvchilar ulardan amaliyotda foydalanishga o'rganadilar. Amaliy va ijodiy topshiriqlarni bajarish orqali

o'quvchilarning mavzu bo'yicha tushunchalari yanada chuqurlashadi.


– O'yinlar orqali o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifodalash, o'z-o'ziga va boshqalarga ishonch bilan qarash, mas'uliyatli bo'lish, birgalikda ishlash va muammolarni hal qilish kabi ko'nikmalarni shakllantiradilar.

– O'yinlarda ishtirok etish orqali o'quvchilar o'z faoliyatlarini baholashni o'rganadilar. Bu esa ularga kelgusidagi darslarda o'zlarini takomillashtirishga yordam beradi. O'quvchilar yutuq va kamchiliklarini ko'rib, o'z qobiliyatlarini to'g'ri baholashni o'rganadilar. Umuman olganda, boshlang'ich ta'limda 4K modeli kompetensiyalarini rivojlantirish uchun pedagogik o'yinlardan foydalanish ta'lim

jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarni darsga jalb etish va ularning shaxsiy hamda ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda kuchli didaktik vosita hisoblanadi. Shu sababli, o'qituvchilar pedagogik o'yinlarning didaktik imkoniyatlarini yanada chuqurroq o'rganib, ularni ta'lim jarayoniga keng tatbiq etishlari zarur. Bu nafaqat o'quvchilarning umumiy rivojlanishiga, balki ularning kelgusidagi ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli bo'lishiga ham zamin yaratadi.

O'quv jarayonida

4K modeli kompetensiyalarini rivojlantirishiga ko'ra pedagogik o'yinlarning tavsiflanishi



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. X.Ibraimov, M.Quronov “Umumiy pedagogika” Sahnof-2023.
2. Ibraimov X, Quronov M va boshq. Ota-ona – murabbiylar uchun uslubiy-metodik qo‘llanma. Toshkent.: - 2024. 123-126 b.
3. R.G.Safarova “Developing Professional Competence of Future Professionals on the Basis of Cultural Approach” Vol. 27(2022): Miasto Przyszłości58Miasto PrzyszłościKielce 2022Impact Factor: 9.2ISSN-L:2544-980X
4. G.H.Xodiyeva, Boshlang‘ich ta‘limda 4K modelidan foydalanishning pedagogik xususiyatlari , <https://doi.org/10.5281/zenodo.10682038>.
5. “Designing Education: Shaping Learning Systems Around the World.” edited by Dennis Shirley and Valerie L. Ubbes, 2022.
6. "Collaborative Learning for the Digital Age" by Brigid Barron and Linda Darling-Hammond was published 2019.
7. “Creative Schools: A Powerful Revolution Transforming Education" by Sir Ken Robinson was published in April 2015.
8. Fostering Creativity in the Classroom: A Systematic Review” by Huijing Ma and Runing Ye in 2022.
9. G.H.Xodiyeva, “Zamonaviy boshlang‘ich ta‘limda 4k modeli kompetensiyalarini rivojlantirishga integrativ yondashuvning mohiyati” ИЖТИМОЙ-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. № S/2(4)-2024 ISSN: 2181-1342 (Online)
10. UNESCO. School and teaching practices for twenty-first century challenges: lessons from the Asia-Pacific region, regional synthesis report. — 2016.
11. Care E., Kim H., Vista A., Anderson K. Education System Alignment for 21st century skills: Focus On Assessment. — Brookings institution, 2018.
12. Montessori, M. The absorbent mind. New York: Holt, Rinehart and Winston, 2007. (Qayta nashr)
13. Elkind, D. The power of play: Learning what comes naturally. Cambridge, MA: Da Capo Lifelong Books, 2015. (Qayta nashr)
14. Galinsky, E. Mind in the making: The seven essential life skills every child needs. New York: HarperCollins, 2010. (Qayta nashr)
15. Pestalozzi, J. H. How Gertrude Teaches Her Children: An Attempt to Help Mothers to Teach Their Own Children and an Account of the Method. 2020. [Qayta nashr].

BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARIDA BOSHLANG'ICH TA'LIM
РОЛЬ АДАПТИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ НАЧАЛЬНОЕ
ОБРАЗОВАНИЕ ДЕТЕЙ В МУЗЫКАЛЬНЫХ ШКОЛАХ И
ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ШКОЛАХ
CHILDREN PRIMARY EDUCATION IN MUSIC AND ART SCHOOLS

Raxim Saparov

Nukus Davlat Pedagogika Instituti

«Musiqqa ta'lim» kafedrası

katta o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Musiqqa ta'limining boshlang'ich bo'g'ini bo'lgan, bolalar musiqqa maktabiga vazifa qilib berilgan. Bolalar musiqqa va san'at maktabi yetakchi rol o'ynaydi, chunki ular yoshlarni estetik tarbiyalash, bolalarni ijodga jalb qilish, madaniy bilimli, tinglovchilarning qiziqishlari va auditoriyasini shakllantiradi, iqtidorli o'quvchilarni aniqlaydi.*

***Аннотация:** Являясь начальным звеном музыкального образования, дети были отданы в музыкальную школу в качестве задания. Детская музыкально-художественная школа играет ведущую роль, поскольку занимается эстетическим воспитанием молодежи, приобщением детей к творчеству, формирует культурно-познавательные, познавательные интересы и аудиторию слушателей, выявляет одаренных учащихся.*

***Annotation:** Being the primary link of musical education, the children were sent to a music school as a task. The children's Music and art school plays a leading role, since it is engaged in the aesthetic education of young people, introducing children to creativity, forms cultural, cognitive, cognitive interests and an audience of listeners, identifies gifted students.*

***Kalit so'zlar:** musiqqa, san'at, o'quvchi, o'qituvchi, ijod, maktab.*

***Ключевые слова:** музыка, искусство, ученик, учитель, творчество, школа.*

***Key words:** music, art, student, teacher, creativity, school.*

Boshlang'ich madaniy ta'lim O'zbekiston Respublikasi madaniyat va san'at sohasidagi ta'lim muassasalarining eng muhim tarkibiy qismi. Bu san'atning turli turlarini o'qitish va yosh avlodga estetik tarbiyani birlashtirgan ta'lim sifatida jamiyatda talabga ega. O'zbekistonda boshlang'ich madaniy ta'lim ochiq, qadriyatlarni saqlaydigan va shu bilan birga doimiy yangilanib boradigan tizim bo'lib, asosiy buyurtmachi-respublika aholisining talab

va ehtiyojlariga mos ravishda javob beradi. Boshlang'ich musiqiy, tasviriy san'at, xoreografiya va teatr ta'limi, uning yakuniy maqsadlaridan qat'i nazar, umumiy kasbiy asosda, o'quvchilarning motivatsiyasini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bolalar va yoshlar o'rtasida musiqqa, tasviriy san'at, xoreografiya va teatr ta'limini jamiyatda keng ommalashtirish bo'yicha muhim ijtimoiy-madaniy vazifani hal etish O'zbekistonda musiqqa va madaniyat

ta'limining boshlang'ich bo'g'ini bo'lgan. Bolalar musiqa maktabiga vazifa qilib berilgan. Boshlang'ich madaniy ta'lim masalalarida BMSM yetakchi rol o'ynaydi, chunki ular yoshlarni estetik tarbiyalash, bolalarni adabiy ijodga jalb qilish, madaniy bilimli jamoa, tinglovchilarning qiziqishlari va auditoriyasini shakllantirishni ta'minlashning muhim vazifalarini hal qiladi, o'quvchilar ta'lim muassasalarini (akademik litseylar, ixtisoslashtirilgan maktablari) rivojlantirish va shakllantirishni davom ettirish maqsadida iqtidorli o'quvchilarni aniqlaydi. Bugungi kunda respublika bolalar musiqa va san'at maktabi shakllangan, zamonaviylashtirilgan, katta qobiliyatga ega va bolalar tarbiyasi, dunyoqarashi va adabiy ta'limiga salmoqli hissa qo'shish imkoniyatiga ega bo'lgan ta'lim muassasasi hisoblanadi, kelajakda jamiyat hayotining an'anaviy dolzarb muammolarini hal etishi lozim bo'lgan yoshlarni tarbiyalaydi. BMSM madaniyatimizning asosiy negizlaridan biri bo'lib, u faqat bolalarni keng adabiy-estetik tarbiya va tarbiya funksiyalarini bajaribgina qolmay, balki iste'dodlarni erta aniqlab, uning organik va uzluksiz kasbiy rivojlanishiga imkoniyat yaratishga imkon beradi. Bolalar musiqa va san'at maktabi - bu yosh iste'dodlarni aniqlash, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga hissa qo'shadigan urf-odat va innovatsiyalar tizimi. Bolalar musiqa va san'at maktabi o'zining asosiy vazifalari - bolalarni san'atga o'rgatish bilan bir qatorda, madaniy-tarbiyaviy, gumanitar funksiyalarni ham bajaradi. O'quvchilar nafaqat ijrochilik faoliyatini, balki adabiy va targ'ibot faoliyatida ham ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Bolalar musiqa maktabining o'quv-tarbiyaviy faoliyati o'quvchilarning o'zini anglashiga salmoqli hissa qo'shmoqda. BMSM da

turli bolalar guruhlarining bir-biri bilan o'zaro ta'siri alohida ahamiyatga ega, bu maktab o'qituvchilarining talablari pedagogik birliksiz mumkin emas.

Bolalar musiqa va san'at maktabining maqsad va vazifalari

Maqsadlar:

- bolalarning ijodkorlik iste'dodlarini rivojlantirish, erkin, intellektual rivojlangan, innovatsion fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish; yosh avlodni san'atning turli turlari bilan tanishtirish, ijtimoiy faolligini oshirish, O'zbekiston urf-odatlarini va qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash, har tomonlama barkamol rivojlantirish, zamonaviy sharoitlarda o'zini o'zi shakllantira olishga tayyorlash.

Vazifalari:

- shaxsning mustaqil rivojlanishi ustuvorligi asosida boshlang'ich madaniy ta'limni insonparvarlashtirish bo'yicha davlat siyosatini olib borish;

- san'at g'oyalari bo'yicha ta'lim dasturlarini amalga oshirish;

- o'quvchilarda dunyo xalqlarining ma'naviy va madaniy qadriyatlarini hurmat qilish va qabul qilish imkoniyatini beradigan xulq-atvorni tarbiyalash va rivojlantirish;

- bolalarda tarbiyaviy qarashlar, tarbiyaviy munosabatlar, madaniy qadriyatlar bilan munosabatda bo'lish zarurati, ularni mustaqil qabul qilish va baholash qobiliyatini shakllantirish;

- o'quvchilarni ijodkorlik muhitida, ezgu niyat, hissiyot va aqliy sezgirlik, shu bilan birga, kasbiy talabchanlik muhitida tarbiyalash;

- iqtidorli bolalarda tegishli san'at turi bo'yicha kasbiy ta'lim dasturlari yanada o'zlashtirish imkonini beradigan bilim, ko'nikma va amaliyot to'plamini shakllantirish;

- o'quvchilarning o'quv

ma'lumotlarini dastur talablariga mos ravishda ishlab chiqishga, ijodkorlik faoliyati ko'nikmalarini egallashga yordam beruvchi shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish;

Ishlash tamoyillari

Boshlang'ich badiiy ta'lim tamoyillari ta'lim jarayoni qonuniyatlari bilan Bolalar musiqa va san'at maktabi oldida turgan vazifalar o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlashga qaratilgan.

Butunlik tamoyili - o'quvchining ma'lum bir san'at turini o'zlashtirishdagi barqaror rivojlanib borayotgan faoliyati sifatida o'quv jarayonini va uning mazmunini tashkil etishga yordam beradi[4].

Murakkablik tamoyili - o'quv jarayonining integrativ xususiyatlarini namoyon qilishga hissa qo'shadi va o'quv jarayonining mazmuni va shakllarini, turli san'at turlarining o'zaro aloqadorligi, ta'lim subyektlarining o'zaro aloqadorligiga asoslangan faoliyatni maxsus tashkil etishda namoyon bo'ladi. musiqiy-nazariy sikl, o'quv jarayoni subyektlarining o'zaro ta'siri. Davom etish vaqti tamoyili - quyidagilarga yordam beradi: turli san'at turlarining o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra badiiy ta'limni qurishning tabiiy mantiqiyligi; ilgari olingan tajriba va yangi bilimlar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish. Ko'p bosqichli tizim tamoyili - har bir yilning tegishli funksiyalarini hisobga olgan holda va natijalarni prognoz qilgan holda ta'lim makonining mantiqiyligini o'quv yili bo'yicha moslashtirishni ta'minlaydi.

Erta kasbiy yo'nalish tamoyili- iqtidorli o'quvchilarni o'rta maxsus madaniyat va san'at ta'lim muassasalarida keyingi ta'limga tayyorlash jarayonini tezlashtiradi. Huquqiy baza. O'zbekiston Respublikasida bolalar musiqa va san'at maktabi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent

shahar hokimliklari qarori bilan tuziladi va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkaziladi. Bolalar musiqa va san'at maktabi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining Bolalar musiqa maktabi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlariga, Bolalar musiqa va san'at maktabi ustaviga, "Bolalar musiqa va san'at maktabi to'g'risida"gi namunaviy qoidasiga, "Bolalar musiqa va san'at maktabi to'g'risida"gi qonunga, "Bolalar musiqa va san'at maktabi" va maktabning mahalliy qoidalari. Bolalar musiqa va san'at maktabi yuridik shaxs bo'lib, alohida mulkka, operativ boshqaruv huquqiga, mustaqil balansga, g'aznachilikda shaxsiy hisobvaraqlarga, O'zbekiston Respublikasi gerbiga tushirilgan muhriga, nomi ko'rsatilgan shtamp va blankalarga ega.

O'z nomidan mulkiy va nomulkiy huquqlarga ega bo'ladi va amalga oshiradi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sudda da'vogar va javobgar bo'lish majburiyatini oladi. Bolalar musiqa va san'at maktabi mahalliy davlat hokimiyati tashkilotlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkaziladi. Bolalar musiqa va san'at maktabining asosiy huquqiy hujjati Ustav bo'lib, unga muvofiq O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshlang'ich badiiy ta'lim sohasida ta'lim faoliyatini amalga oshiradi. Bolalar musiqa va san'at maktabi ustavida uning faoliyati, shuningdek san'at (ta'lim, ijod, madaniy-ma'rifiy) yo'nalishidagi ta'lim dasturlarini amalga oshirish bilan bevosita

bog'liq bo'lgan faoliyat turlari, BMSMda boshqaruv tuzilmasi, ta'lim dasturlarini amalga oshirish faktining o'zi ko'rsatilgan san'at yo'nalishi bo'yicha ushbu dasturlar uchun o'quv jarayonini tashkil etish xususiyatlari [3].

Nizomda bolalar musiqa va san'at maktabiga qabul qilishning asosiy qoidalari, talabalarning o'zlashtirish sifatini baholash xususiyatlari, shuningdek oraliq va yakuniy attestatsiyalar bo'yicha talabalar bilimni doimiy monitoringini o'tkazish shakllari va tartibi, talabalarni bir sinfdan o'tkazish tartibi va shartlari ko'rsatilgan[1]. San'at sohasidagi ta'lim dasturi boshqa, talabalarni o'qishdan chetlashtirish tartibi va shartlari, o'quv jarayoni qaysi tilda olib boriladi, o'quvchilarning, ularning ota-onalari (qonuniy vakillari) pedagogik va o'rtoqlik xodimlarining huquq va majburiyatlari, bolalar musiqa va san'at maktabining ishlash tartibi, maktabning o'zini o'zi boshqarish tashkilotlari (Bolalar musiqa va san'at maktabi Kengashi, uslubiy, homiylik kengashi va boshqalar) ni shakllantirish va kafilliklari uchun.

Ustavda o'quv jarayonini tashkil etish va san'at yo'nalishi bo'yicha o'quv dasturlarini amalga oshirish bilan bog'liq masalalar bo'yicha bolalar musiqa va san'at maktabi tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan mahalliy me'yoriy hujjatlar: tarkibiy bo'linmalar, o'zini o'zi boshqarish tashkilotlari to'g'risidagi qoidalar, bilimlarning amaldagi nazorati to'g'risidagi qoidalar sanab o'tilgan, talabalar o'ralik va yakuniy attestatsiyadan o'tkazish, baholash mezonlarini belgilash to'g'risidagi qoida va boshqalar [2].

Xodimlarning mehnat huquq va erkinliklarini kafolatlashni, ular uchun

qulay mehnat sharoitlarini yaratishni belgilab beradigan zarur normativ hujjat O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligiga mos keladigan va faoliyat yuritishning alohida xususiyatlarini hisobga oladigan ichki tartib-qoidalari hisoblanadi. Ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlar Qoida va shartnomalar bilan tartibga solinadi: maktab xodimlari bilan tuzilgan mehnat shartnomalari, ota-onalar (qonuniy vakillar) bilan o'qish shartlarini, olingan ta'lim darajasini, o'qish shartlarini va boshqa shartlarni belgilovchi shartnomalar.

Bolalar musiqa va san'at maktabining mahalliy qoidalari quyidagilardan iborat:

- Tashkilotchilarning buyruqlari va ko'rsatmalari
- o'zini o'zi boshqarish tashkilotlarining qarorlari;
- direktorning buyruqlari va farmoyishlari;
- ichki lokal aktlar;
- mehnat shartnomalari;
- boshqa tashkilotlar bilan sheriklik shartnomalari;
- maktab xodimlarining lavozim tavsiflari va boshqalar

Bolalar musiqa va san'at maktablari o'z tuzilmasini shakllantirishda mustaqildir. Tarkibiy bo'linmalarni tashkil etish va ularning faoliyati tartibi Ustav yoki maktabning mahalliy normativ hujjatlari bilan tartibga solinadi[1].

Bolalar musiqa va san'at maktablarida o'qitish tilidan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi qonuni va maktab Ustavi bilan tartibga solinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ózbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 5-maydagi «Bolalar musiqa va san’at maktablari to‘grisidagi Nizomni tasdiqlash haqqida»gi 144-sonli Qarori.

2. Ózbekiston Respublikasi Xalq talim vazirligining 2016-yil 20-iyul 186-sonli buyruđi.

3. Brednev F.I. Pedagogicheskiy kollektiv subekt uchebno-vospitatelnogo processa v detskoy shkole muzıki i iskusstv. Izdatelsko G.Gulyama. Toshkent-2018.144s.

4. Brednev F.I. Programma razvitiya detskoy shkoli muzıki i iskusstv upravlenyie shkoli. Izdatelsko G.Gulyama. Toshkent-2018.152-s.

**СОВРЕМЕННЫЕ КИНОИНТЕРПРЕТАЦИИ ОБРАЗОВ ИСТОРИЧЕСКИХ
ЛИЧНОСТЕЙ ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОГО ДВИЖЕНИЯ НАЧАЛА XX ВЕКА
MODERN FILM INTERPRETATIONS OF IMAGES OF HISTORICAL
FIGURES OF THE ENLIGHTENMENT MOVEMENT OF THE EARLY 20TH
CENTURY**

Сабохат Агзамовна Хайтматова

и.о. профессора кафедры
“Искусствоведение и культурология”,
кандидат искусствоведения

***Аннотация:** В статье поднимаются вопросы развития документального кино Узбекистана в контексте принимаемых стратегических задач киноискусства – создание программного цикла фильмов «Живая история» («Тирик тарих»), средствами игрового и документального кино. Исторический опыт, традиции и преемственность творческого наследия молодым поколением документалистов рассматриваются на примере фильмов о выдающихся представителях движения джадидизм. Особый акцент автор статьи ставит на анализе фильма «Армон».*

***Annotation:** The article raises issues of the development of documentary cinema in Uzbekistan in the context of the strategic objectives of cinematography – the creation of a program cycle of films "Living History" ("Tirik Tarikh"), by means of feature and documentary films. The historical experience, traditions and continuity of the creative heritage of the young generation of documentary filmmakers are examined by the example of films about outstanding representatives of the Jadidism movement. The author of the article places special emphasis on the analysis of the film "Armon".*

***Ключевые слова:** документальный кинематограф, наследие, киноискусство, история, просветительство, духовность, идентичность, историческая память, джадидизм, киноязык, образ, жанр.*

***Key words:** documentary cinematography, heritage, cinematography, history, enlightenment, spirituality, identity, historical memory, Jadidism, film language, image, genre.*

Современное искусствоведение в контексте интеграционных и трансформационных процессов и своеобразии пути и его развития, базируясь на богатейший исторический опыт, имеет возможность по новому анализировать, концептуально выстаивать цели и задачи науки и искусства в широком их понимании.

В обновленном Узбекистане за последние тридцать лет происходит беспрецедентное преобразование во всех областях общественной жизни. Особую значимость эти преобразования приобретают в национальной культуре. Новейшая история страны активно запечатлевается, отражается в

медиапространстве: современных СМИ, ТВ, интернет-платформах и, конечно же, в кинематографе, в документальном кино. Его история в Узбекистане богата достижениями, поиском выразительных средств, жанровой палитрой, образами определенных исторических периодов, а, главное, образом узбекского народа, его ярчайших предшественников.

Приобретение Независимости в 1991 году в корне изменило направление содержания документальных фильмов. Тематика определила и жанровую составляющую. Герои и образы в документальном кино независимого Узбекистана раскрывали доступную теперь тему своей национальной идентичности. Она стала приоритетной в творчестве многих кинодокументалистов, у которых появилась возможность говорить с экрана о многом, что цензурировалось многие годы. А такие документалисты, как Д.Салимов, Б. Музаффаров, Ш. Махмудов, Ш. Курбанбаев, А. Акбарходжаев, Х. Валиев, Э.Хачатуров, Т. Юнус и др., в своих фильмах глубоко и проникновенно раскрывали выбранные темы (“Красный барабанщик”, “Остров Валаам”, “Сны”, “Они учились в Германии”, “Бумажный домик”, “Узбекистан на пороге XXI века”, “Будущее начинается сегодня”, “История одного чуда”, “Жажда”).

Особо отличаются документальные фильмы, посвященные кинематографу и его выдающимся представителям, в них использован богатейший архивный материал, воссозданы экранные образы кинематографистов, тех кто был у истоков этого искусства и тех кто внёс творческий вклад в историю кино. Действительно богатое творческое

наследие кинематографистов, внесших достойный вклад в развитие узбекского кинематографа, послужило огромным ресурсом для создания упомянутых выше кинопортретных и художественно-просветительских картин.

Большинство этих фильмов тяготеет к жанру фильма-портрета. Он доминирует над всеми остальными жанрами. Вместе с тем, это своеобразные документальные байопики, вызывающие интерес у современного зрителя. Заметно что художественное эстетическое качество меняется благодаря использованию новейших технологий. Особенно их используют молодые режиссеры документального кино, диапазон творческих изданий которых имеет возможность расширяться: кинематограф, телевидение, интернет-платформы. Надо заметить, что историческая тема в документальном кино самая сложная и трудоёмкая в этом виде экранного искусства, где увлечение реконструированием исторических событий требует усиление драматургии нарративного материала, реализма изобразительных решений, точности и правдивости в авторских и режиссерских интерпретациях темы.

Это мысль находит своё подтверждение в крупном инновационном проекте «Адиблар хиёбони» (Узкинохроника и ряд вузов страны) явилось данью увековечения памяти исторических личностей, чей вклад в культуру нации, самосознание народа, его идентификацию сложно переоценить, а главное, это страницы своего рода летописи культурной памяти, важные для сохранения собственной идентичности в эпоху процессов глобализации.

Более 20 фильмов этого цикла практически одного жанра – документальные байопики с элементами документальной драмы. Воссоздают исторической и личностной драмы. Нарратив большинства фильмов дополняется, иллюстрируется реконструированными событиями ушедшего времени, эпохи, жизнь избранного героя фильма, его деятельности и личностной характеристики. Зачастую, герой выбранных фильмов – это незаурядная личность, ее сложный противоречивый путь, сомнения, чаяния, порой, трагическая судьба у большинства зрителей вызывает неподдельный интерес.

В узбекском художественном игровом кино в последние десять-пятнадцать лет тема исторической памяти так же широко используется. «Имом Абу Исо Мухаммад Термизий» (реж. А.Мигноров), «Авлоний» (реж. М.Эркинов), «Ибрат» (реж. Д.Касымов), «Илхак» (Д.Ахмедов), «Кукон ша- моли» (реж. Д.Масаидов), «Саид билан Саида» (реж. Н.Аббасов). В них воссозданы образы национальных исторических личностей и срез событий, связанных с общественно-политическими ситуациями, которые пережили страна и народ в разные исторические периоды. Фильмы неоднозначны по своей художественной выразительности, но авторами этих фильмов зрителю преподносятся художественные интерпретации тех или иных исторических событий и действующих в них героев. Фильмы неоднозначны по своим художественным параметрам, но авторами этих фильмов зрителю преподносятся художественные интерпретации тех или иных

исторических событий и действующих в них героев. В документальном же кино цикл «Адиблар хиёбони ценен, прежде всего, своим просветительским потенциалом, глубоким идеологическим смыслом. Вместе с тем, тема памяти, как исторической, так и культурной, являющейся сейчас особенно острой и актуальной, занимает видное место в различных областях познания. Экранные образы фильмов цикла «Адиблар хиё-бони» оказывают огромное влияние на представления людей об исторических событиях. Абдулла Кадыри в одноименном фильме (сцен. И.Кушаева, реж. У.Хамдамов), Чулпан «Чўлпон. Куш эсдалиги» (сцен. Э.Бозоров, реж. Х.Рашидов).

Этот проект интересен с позиции темы данной статьи. Особое внимание привлекают фильмы, героями которых выбраны известные представители просветительского движения в начале XX века – «Абдулла Кадыри» (Сцен. И.Кушаева. реж. У.Хамдамов), «Чулпон «Куш эсдалиги» (Сцен. Э.Бозоров Реж. Х.Рашидов).

Необходимо отметить, что с приобретением независимости в узбекском документальном кино и ранее был создан ряд фильмов, где героями стали Чулпон в одноименном фильме (сцен. Н.Каримов, реж. Ш.Махмудов), Абдулла Кадыри в фильме «Рух» (сцен. Э.Ходжаев, реж. Б.Муззафаров), Худойберган Девонов в фильме «Кафасдаги кардыргоч» (сцен. Х.Акбаров, реж. Ш.Курбанбаев), Мусо Саиджонов в фильме «Марифатга бахшида умр» (реж. сцен. Х.Рашидов), Обиджон Махмудов в одноименном фильме (реж. Ф.Мирзаев, сцен. Н.Каримов), а также Муннаваркори Абдурашидов (реж. Г.Шадманов. сцен. Н. Каримов) и Махмудходжа Бехбудий

(сцен. Д.Рашидова, реж. Г.Шадманов.), чьи непростые, трагические судьбы будоражат умы и сердца современных зрителей.

«...Отличительной же особенностью этих картин стало участие в этом проекте молодых кинематографистов. Их свежий, креативный взгляд, смелое, порой дерзкое, использование выразительных средств современного мирового документального кино, авторская позиция позволили современному документальному кино Узбекистана подняться на иной, нетрадиционный уровень...»[5].

В последние годы узбекское кино стало разнообразным благодаря смешению различных стилей и новым формам художественного выражения. Внимание к средствам искусства и драматическим приемам стало важным для привлечения зрителей. Можно утверждать, что это стало началом нового этапа в развитии документального кино.

В годы независимости в новых условиях начался поиск новых возможностей и решений в разработке исторической темы в документальном кино. Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев в своей речи на встрече с творческой интеллигенцией 4 августа 2017 года особо подчеркнул значение киноискусства в изучении нашей истории[3].

При определении граней жанрового диапазона современного документального вытекает вывод что, фильмы на темы истории, раскрытия образов исторических личностей, фильмов-портретов выдающихся деятелей науки, культуры, искусства, фильмов этнографической направленности, фильмы-портреты о

творческом пути видных деятелей науки и искусства, документальные фильмы военной тематики и роли узбекского народа в победе во Второй мировой войне становятся всё более актуальными.

При этом важным представляется использование современного языка документального фильма, использование визуализации, образности, метафоричности раскрываемой в фильмах исторической темы.

Если раньше прерогативой этих тем была государственная студия «УзКиноХроника», то в настоящее время историческая тема интересна и частным студиям. Так, фильмы, снятые на студии «BWG» («Blue white and green») при поддержке Saber, «Легенды узбекского танца» и «Мечтатели» («Армон») режиссера Р.Салиева снискали большой интерес не только интернет-пользователей, (фильмы были продемонстрированы на YouTube-канале), но и всего культурного и научного сообщества Республики и за её пределами. Эти фильмы были показаны и получили ряд наград на МКФ в Барселоне, Каннах, Нью-Йорке, Париже. Исследователи вопросов современного киноискусства не могут оставить без внимания эти произведения. «Легенды узбекского танца» – это яркое, динамичное, мастерски снятая документальная картина, она достойно представила узбекское искусство. Полнометражная документальная лента выполнена по всем канонам современного документального кино. В ней использованы уникальные кадры хроники разных лет, концертные номера, интервью профессионалов узбекского танцевального искусства, авторский текст, ненавязчиво

повествующий о путях национального танца и его разнообразных гранях. Фильм Р.Салиева отличается своим личностным настроением, передающимся зрителю, который может испытать гордость и радость от увиденного на экране. Музыкальный фильм в историческом разрезе. Но настолько современен!

Образы выдающихся танцовщиц, поистине легенд, представлены в фильме Р.Салиева как образ народа, искусства которого самобытно, уникально, не повторимо. Эта мысль донесена до зрителя предельно ясно, поэтому этот фильм звонко прозвучал на экранах зарубежных стран и значение его трудно переоценить.

Фильм же «Мечтатели» («Армон») представляет собой полнометражное документальное произведение на самую животрепещущую тему современного документального кино в Узбекистане – историю джидидизма – просветительского движения в конце XIX – в начале XX века. Последние годы в исторической науке особое внимание уделяется исследованиям движения джидидизма и просветительских идей XX века. Осуществляется попытка комплексного и объективного анализа сущности этого движения и его влияния и значения в истории узбекского народа и народов Центральной Азии. Эта тема также привлекает внимание и литературоведов, и социологов, и культурологов, и искусствоведов своей уникальностью и трагизмом судьбы его представителей. Кинематограф не раз обращался к образам джидидов в своих произведениях, как документального кино, так и художественного. Так, образы Авлони, Кадыри, Ибрата были раскрыты средствами игрового кино, а в документальном кино независимого

периода был снят целый ряд фильмов, герои которых были представителями этого движения. Об этом говорилось выше. Обращение студии «BWG» («Blue white and green») к этой теме было более масштабным, авторам удалось воссоздать картину и образы джидидов того времени выразительными средствами современного документального кино. Помимо авторского текста, проконсультированного ведущими историками страны, непосредственно занимающимися этой проблематикой Институт Истории Академии Наук Республики Узбекистан [4], Государственный музей памяти жертв репрессии, общественный фонд «Мемориал шахидов», богатейших архивных материалов, кинофото документов, интервью целого ряда историков. Режиссёр Р.Салиев использует визуальный образный язык, компьютерную графику, стихи и музыку, раскрывающую трагизм судьбы просветителей, отдавших жизнь за свободу своего народа. В фильме воссоздаётся образ прогрессивно мыслящей, духовно богатой, образованной элиты нации в начале XX века (Чулпон, Файзулло Ходжаев, Махмудходжа Бехбуди, Абдулла Кадыри, Муса Саиджанов, Мунаввар кары Абдурашидханов и др.) Фильм зрелищный, современный, адресован мыслящей молодежи, которая должна знать историю своей культуры, поскольку «необходимо иметь представление о ходе истории своей страны, её культуре, ментальности, богатых традициях... «Ментальность в свою очередь опирается на механизмы памяти»[5].

Фильм Р.Салиева «Армон» по силе художественной выразительности, своей задачей ставит именно эту

проблему и в этом его значение. Он заслуживает своего проката и на каналах Национального телевидения, также, как и «Легенды узбекского танца». И в жанровом отношении, и в типологизации образов, как представляется, эти фильмы наиболее показательны.

Muzeyning markaziy qismida beshta temir ustunlarga 500 tonna yuk ko‘tarishga mo‘ljallangan dumaloq shaklidagi monolit qatlam o‘rnatilgan, uning ustiga muzeyning inshootiga ulanmagan alohida turuvchi “Stella” kompozitsiyasi qad rostlagan. “Stella” kompozitsiyasi yonida General Sobir Rahimovning haykali o‘rnatilgan. General Sobir Rahimov haykalining balandligi 7 metr, og‘irligi 16 tonna. Ushbu haykal atrofida aylana shaklida front qahramonlarini aks ettiruvchi 15 ta haykallar

o‘rnatilgan, har birining og‘irligi 3,5 – 4 tonna. Tashqi tomondan yer sathidan muzey ustidagi Stella kompozitsiyasiga qattiq qoplamali aylanma shaklidagi yo‘lak orqali ko‘tarilish mumkin. Muzeyning ichki qismida beshta temir kolonnalarga 10 metr balandlikda temirdan ishlangan yulduz shaklidagi kompozitsiya o‘rnatilgan.

Markaziy xiyobonning o‘ng va chap tomonlarida 1941-45-yillar kesimida Ikkinchi jahon urushi jarayonlari aks ettirilgan pannolardan iborat bo‘lib, ularda O‘zbekistonliklarning front va front ortidagi qahramonliklari, mashaqqatli mehnatlari, mardligi va jasorati, bag‘rikengligi hamda cheksiz sadoqati aks ettirilgan. Ushbu pannolar ikkinchi jahon urushining mudhish oqibatlari, O‘zbekistonliklarning ko‘rsatgan matonati, shukronalik tuyg‘usi, buyuk qahramon xalq vakillari ekanligidan chuqur fahru iftixor hislarini uyg‘otadi.

“Urushning dahshatli qiyofasi” aks ettirilgan hududda davrida qurilgan Okop yo‘laklari, konslager kabi xonalar, qulagan samolyotlar, haqiqiy tanklar aks ettirilgan. Urush dahshati va okoplar kompozitsiyasida bitta butun holatdagi va

bitta yarim hoida devorga sanchilgan tanklar, ikkita tirgovichda o'rnatilgan harbiy samolyotlar o'rnatilgan. Okoplar yerdan 1,5 metr chuqurlikda tashkil etilgan bo'lib, uzunligi 300 metr.

Front orti hududi bir nechta kompozitsiyalardan iborat bo'lib, mazkur kompozitsiyalar o'zbek xalqining front ortidagi mashaqqatli va zahmatli mehnati, jasorati, metin irodasi, kuchli matonati, yuksak bag'rikengligi va insonparvarligi orqali g'alabaga qo'shgan ulkan hissasini yoritib turibdi. Ushbu kompozitsiyalar bugungi kunlarimizga shukronalik bilan yashash, fidoyi ota-bobolarimiz vorislari bo'lganidan faxrlanish tuyg'usi hamda o'zbekona milliy qadriyatlarimizga sodiq inson bo'lib voyaga yetishi uchun xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar: Ma'lumki, yurtimizga front yaqini hududlaridan 1,5 milliondan ortiq kishi evakuatsiya qilingan, ulardan 200 mingdan ortig'i bolalar bo'lgan. Bu kompozitsiyada o'zbek xalqining bolajonligi ifodalangan. O'sha davr ochlik yillariga to'g'ri kelishiga qaramasdan, o'zbek oilalari mehribonlik uyida yashagan bolalarni boqib olgan. Bu kompozitsiyada 200 ming nafar bolani o'z bolasidek oilaga qabul qilgan g'amxo'rlik qo'li tasvirlangan.

"G'am va anduh" hududi konus shaklida ishlangan bo'lib, beshta yarim oy shaklidagi temir konstruksiyalaridan iborat, balandligi 10 metr, konusning katta tarafi eni 20 metr, konusning kichik tarafi 6 metr, og'irligi 20 tonna. Temir konstruksiyalari elektr payvandlash yo'li orqali bir-biriga birlashtirilgan. Ushbu installatsiyada turli dinga e'tiqod qiluvchi insonlarning qabr toshlari shaklida (musulmon, xristian va yahudiy) askarlarni bu foniy dunyodan boqiylikka, urush girdobiga tortayotgan aylana aks ettirilgan. Majmua tashrif buyuruvchilarga urush olovi insonlarning dini, irqi, millati,

yoshi yoki jinsidan qat'iy nazar ayab o'tirmasligini namoyon etadi. Barchani birdamlikka, tinchlik uchun kurashga, osoyishta o'tayotgan har bir lahzaning qadriga yetishga chorlaydi. Installatsiyaning old qismida ko'lmak o'rnatilgan bo'lib, urushda yaqinlarini yo'qotgan insonlarning yosh to'la ko'zlarini namoyon etadi. "G'am-anduh" installatsiyasi insoniyatni behuda qo'lga qurol olmaslikka, odamzotga qirg'in keltirgan mudhish urushdan saboq chiqarishga undaydi.

"Amfiteatr" binosining eni 69 metr, uzunligi 105 metr, balandligi 26 metrdir. Amfiteatrning konstruksiyalari temirdan iborat bo'lib, umumiy og'irligi 245 tonnani tashkil etadi. Kompozitsion jihatdan ushbu bino metall konstruksiyalari to'rtta asosiy to'rtburchak shaklidagi yarim dumaloq va o'n ikkita qo'shimcha konstruksiya yarim oy shaklida barpo etilgan. Amfiteatrning sig'imi 1000 kishiga mo'ljallangan. Binoning old tarafi yarim oy shaklida bo'lib, u yerda o'n uchta xizmat xonalari mavjud.

"Temir yo'l vokzali" binosi bir qavatli bo'lib, uzunligi 100 metr, eni 17 metr, balandligi 15 metr. Binoning asosiy konstruksiyalari temirdan ishlangan, devorlari pishgan g'ishtdan iborat. Bino ichida yo'lovchilarni kutish zali mavjud. Kutish zaliga kirib-chiqish uchun ikkita asosiy eshiklar mavjud.

Muzeyning yengil tamaddilar uchun tashkil etilgan kafe yer sathidan pastda joylashgan bo'lib, asosiy konstruksiyalari monolit temir-betondan ishlangan, kirib-chiqish uchun ikkita eshik mavjud, o'n ikkita (oshxona, ovqat tarqatish va boshqa yordamchi) xonalardan iborat. Kafening ikkinchi qavatida yettita xona mavjud bo'lib, ularning uchasi o'q otar qurollarni qo'yishga mo'ljallangan.

Bog'hududida san'at va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining eng ilg'or yutuqlari asosida bunyod qilingan "Shon-sharaf" davlat muzeyida namoyish etilayotgan minglab tarixiy eksponatlar G'alabaga hissa qo'shgan xalqimizning mislsiz jasoratini tarannum etishga, yosh avlodimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdek olijanob maqsadga xizmat qiladi. Kirish zalining foyesini ikkinchi jahon urushining vokzaldagi voqealarini ochib beruvchi panno bezab turibdi. Ushbu panno moybo'yoqda ishlangan bo'lib, O'zbekiston xalq rassomi A.Aliqulov qalamiga mansub bo'lib, "Toshkent vokzalidan bir kun" deb nomlanadi. Salkam o'ttiz metrlik mazkur panno mamlakatimizning Ikkinchi jahon urushida fashizmni yengishdagi sa'y-harakatlari, xalqimizning matonati, jasorati, oddiy odamlarning iztiroblari, hijronu quvonchlari, hayajonli ko'z yoshlarini juda ta'sirli ifoda etadi. Ayni paytda yirik strategik qalqonga aylangan, urushdan jafoga ko'rgan minglab odamlarga boshpana bergan va umuman borini, borlig'ini g'alabaga safarbar etgan O'zbekistonning qiyofasi hech bir tomoshabinni befarq qoldirmaydi. Ushbu ulkan panno tinchlikning, Vatanning, osuda va xotirjam, farovon kunlarning, mustaqilligimizning qadriga yetishga da'vat etishi bilan ham qadrlidir[8].

Muzey ikkinchi qavatiga ikkita zinapoya va ikkita lift orqali chiqiladi. Muzeyning birinchi qavatida Ikkinchi jahon urushi yillarini eslatuvchi kompozitsiyalar va ko'rgazmali qurollar joylashirilgan hamda 150 kishiga mo'ljallangan kinozal mavjud. Ikkinchi qavatda viloyatlardan yig'ilgan eksponatlar joylashgan vitrinalar hamda Ikkinchi jahon urushida foydalanilgan qurol-yarog'lar burchaklari joylashtirilgan.

Muzey ekskursiyasi zig zag shaklda olib boriladi va bu muzey ko'rsatkichlarida ko'rsatib qo'yilgan. Muzey "O'zbekiston aholisining frontga safarbar etilishi, jang maydonlaridagi jasorat", "O'zbekiston aholisining frontga safarbar etilishi va milliy harbiy tuzilmalar", "Brest mudofaasi" deb nomlanadigan bir nechta bo'limlardan iborat bo'lib, ekspozitsiya xronologik tarzda joylashtirilgan.

Xulosa va takliflar: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu muzeyning landshaft muhiti va ekspozitsiya yechimi qismlari bir-biri bilan o'zaro bog'liq va uning tematik strukturasi tashkil etadi. Shunga muvofiq ekspozitsion materiallar strukturali birliklarga – ekspozitsion majmualarga, ya'ni bir-biri bilan mazmun jihatidan yoki boshqa belgilari orqali bog'liq predmetlar guruhiga ajratilgan. Ekspozitsion majmua sifatida betakror ko'rinishga ega va yagona loyiha bo'yicha yaratiladigan jang va g'alaba mavzulari asosida integratsiya qilingan. Muzey ekspozitsiyasidagi predmetlar ilmiy tashkil etilgan majmuani o'zida namoyon etilgan bo'lib, ularni tanlash va joylashtirish muzey jamoasi tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy konsepsiyaga asoslanadi.

Tomoshabinlarning eksponatlar bilan muloqoti jarayonini yengillashtirish maqsadida, uni yanada samarali va natijali qilish uchun ekspozitsiya yaratishda nafaqat olimlar, balki muzeyning urush qahramonlari siymolari negizini yaratuvchi rassomlar ham qatnashganligi muzeyning mavzuga xos installyatsion loyihalari bilan boyitilgan.

Muzey ko'plab afzalliklariga ega ekanligiga qaramasdan unda ayrim kamchiliklar xam ko'zga tashlanadi. G'alaba bog'ida o'rnatilgan ko'plab haykallarga nom berilmagan va ularning

mualliflari, yaratilgan vaqti, texnikasi ko'rsatilmaganligini ko'rish mumkin. Shuningdek, muzey ikkinchi qavatidagi ekspozitsiyasida eksponatlarning vitrinalarga joylashtirishda bir qator xatoliklarga yo'l qo'yilgan. Jumladan, gorizontaal vitrinalarning ichki qismi yassi ekanligi orqaroqdagi ashyolarni ko'rishda

noqulaylik tug'diradi. Ko'pgina harbiy liboslar vertikal vitrinalarga taxlab qo'yilgan. Ularni gorizontaal vitrinaga olib, manekenlarda namoyish etish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бородина М.Замонавий ландшафт дизайнининг долзарб масалалари. // San’at. – Тошкент, 2014. – № 3. – Б. 26-29.
2. Жаббарова Л. Т. Ўзбекистонда музей дизайнининг ривожлантириш истиқболлари. Камолиддин Беҳзод номидаги Миллий рассомлик ва дизайн институти “Ахборотнома” илмий-амалий журнали, №4 2020. Б. 67-70.
3. Jabbarova L.T. Modern views of the museum design in Uzbekistan (on the example of the Tashkent museum). O‘zMU xabarлари. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy jurnali. №1/4/1, Toshkent. 2022. В. 79-81.
4. Кулешова М. Е. Памяти двух десятилетий культурно-ландшафтных исследований // В фокусе наследия: сб. ст., посвящ. 80-летию Ю. А. Веденина и 25-летию создания Рос. науч.-исслед. ин-та культ. и природ. наследия им. Д. С. Лихачева / сост., отв. ред. М. Е. Кулешова. Москва: Ин-т географии РАН, 2017. С. 163–190.
5. Нишанова К. Янги Ўзбекистон музейларидаги бунёдкорлик ишларининг соҳа ривожига тутган ўрни. // San’at. – Тошкент, 2021. – № 2. – Б. 35-38.
6. Орифжонова Г. Ўзбекистон замонавий музейшунослиги муаммолари. // San’at. – Тошкент, 2022. – № 2. – Б. 31-34.
7. Ташева С. Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда Шон-шараф музейининг роли. “Science and Education” Science Journal. February 2021/ Volume 2 Issue 2. P. 465-471.
8. <https://shon-sharaf.uz/oz>

**ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ОБЪЕДИНЕНИЙ
ХУДОЖНИКОВ УЗБЕКИСТАНА 1920-1930 ГОДОВ
FORMATION OF PROFESSIONAL ASSOCIATIONS OF ARTISTS OF
UZBEKISTAN IN THE 1920-1930**

Биктимиров Ринат Рафаилович

Независимый исследователь (PhD)

Национальный институт художеств и дизайна

имени Камолиддина Бехзода

***Аннотация:** В данной статье рассматривается деятельность организованных профессиональных групп художников, организованные в разные годы, начала 1920-1930 годов. Начало преподавания рисования в Ташкенте, приоритет этнографическому, декоративному, символическому и академическому восприятию Востока. Исследование основы формирования монументального искусства Узбекистана, организационные основы и методы культурно-просветительской работы, организаций культуры и искусства, действия Изоучилища Самарканда и Ташкента в 1930-х годах. Основное значение первых объединений в формировании и становлении изобразительного искусства Узбекистана.*

***Annotation:** This article examines the activities of organized professional groups of artists organized in different years, the beginning of 1920-1930. The beginning of the teaching of drawing in Tashkent, priority to the ethnographic, decorative, symbolic and academic perception of the East. The study of the foundations of the formation of the monumental art of Uzbekistan, the organizational foundations and methods of cultural and educational work, cultural and art organizations, the actions of the Schools of Samarkand and Tashkent in the 1930s. The main importance of the first associations in the formation and formation of the fine arts of Uzbekistan.*

***Ключевые слова:** Изокомунна, АХРР, 1920-1930, АРИЗО, Изофабрика, ОСТ, История Узбекистана XX столетия, Мастера нового Востока, СХ Уз.*

***Key words:** Izokomunna, AHRR, 1920-1930, ARIZO, Izofabrika, OST, History of Uzbekistan of the twentieth century, Masters of the new East, CX Uz.*

В начале XX века в формировании и становлении изобразительного искусства Узбекистана в том числе графики и монументальной живописи, большой вклад составляют организованные группы и артели художников тех лет. Значительный интерес для выяснения основных тенденций в истории развития

искусства представляет деятельность первых художественных организаций в республике. Идеологические и культурные влияния того времени формирует новый подход и видение на искусство. В 1920-х годах начинается процесс внедрения изобразительного искусства в широкие массы при поддержке государственных органов. С

начала 1930-х и до второй половины 1980-х годов доминирующей идеологической установкой в искусстве Узбекистана была диктатура метода соцреализма. Становление новых форм изобразительного искусства и архитектуры в начале XX века стало осуществляется здесь на основе новой коммунистической идеологии, философии атеизма и на отрицании ценностей мусульманской культуры. Это привело к созданию совершенно иной системы национального изобразительного искусства и зодчества. [1, с.394]. История Узбекистана XX столетия была наполнена переменами и потрясениями, в ходе исторических событий меняется путь социального и культурного развития. Начиная с 1920 года на всей территории СССР, был принят план монументальной пропаганды, который действовал с 1920-х годов до 1991 года. Главной особенностью плана идеологической пропаганды было обязательное отражение принципов и идей коммунистического преобразования в искусстве через монументальные формы. «Искусство — в массы» стал боевым знаменем работников культуры и искусства. Практика создания агитационных росписей в интерьерах различных по назначению сооружений была весьма распространена в городах Узбекистана той поры. Учитывая необходимость массового охвата населения революционными идеями, росписями на темы строительства новой жизни стали украшать стены и интерьеры общественных, бытовых и культурных заведений [1, с.425]. Ведущая роль в художественной жизни Туркестана принадлежала агитационно-массовым видам искусства, о чем, в частности,

свидетельствовали агитпоезд № 1 Политуправления Туркестанского фронта (1920) и агитпоезд «Красный Восток» (1921). Началом исследования пути обращения так называемым в монументальное искусство, первым шагом считается организованные в разные годы объединение коллектива и создание групп художников Самарканда и Ташкента. На территории Туркестана собралась плеяда разнообразных по творческому потенциалу приезжих художников, которые повлияли на ход развития изобразительного искусства края и создать свой дискурс в изобразительном искусстве Узбекистана 20-30х годов. В те годы в Самарканде организуются различные новые творческие союзы и артели художников, что говорит о довольно оживленном процессе в его культурной жизни. Но все они, не имея серьезной базы под собою, сменяя друг друга, существовали недолгое время. Одной из первых попыток по сплочению художников города в профессиональную группу, становится «Изокомунна», которая была образована в 1918 году под руководством художника Оганеса Татевосяна. Один из первых после окончания ВХУТЕМАСа он прибыл в Самарканд в 1915 году. Организовавший Комиссию по охране памятников старины «Самкомстарис» в составе А.В. Исупова, В.И.Уфимцева, А.В.Николаева и «Изофабрику». Но все они, не имея серьезной базы под собою, сменяя друг друга, существовали недолгое время. «Изокомунна» другое название Изофабрика назывался комплекс мастерских, который был организован по инициативе Ассоциации работников изобразительного искусства (АРИЗО), состоявшей из объединившихся

художников-самоучек. Большое значение для развития региона имели созданные мастерские «Изофабрика» выполняющие все виды работ – государственные и частные заказы, начиная от создания станковых произведений, лубков и открыток, оформление городских зданий и праздников. Одной из первых форм наглядной и зрительной агитации за победу народа в революции стали агитпоезда «Красный Восток». Члены АРИЗО напротив Узбекстанской Ассоциации пролетарских художников (УЭДПХ), выступали за связь искусства и народных масс, за отражение художниками современной жизни. Они считали, что в первую очередь художники должны выпускать необходимую изопroduкцию для рабочих и дехкан, оформлять предметы массового обихода, «красные чайханы» и революционные праздники, а так же «посредством сатиры бороться с рецидивами прошлого». Члены Ассоциации вели пропагандистскую работу среди населения, обсуждали проблемы развития национального искусства, участвовали в оформлении городских улиц, рабочих клубов. Ассоциация объединила всех художников-профессионалов, в том числе и плакатистов. С 1927 г. изданием плакатов занималась Ташкентская ассоциация работников изобразительного искусства. (прим. Изофабрика в Узбекистане была открыта намного раньше идентичного Изогородка «Всекохудожник» в Москве, который проработал с 1933 по 1938 годы). Идеи монументальной пропаганды были особенно близки плакатным панно, массовой форме изобразительного искусства. Они появились на площадях городов и кишлаков, на дорогах, вдоль

железнодорожных путей. Сила эмоционального воздействия плаката в известной мере зависела от его величины, размера и площади, на которой он помещался. Рассчитывая на восприятие этих плакатов с большого расстояния, художники вырабатывали определенную манеру решения художественного образа. Плакаты-панно положили начало монументальному плакату. Первые агитационные художественные плакаты сделаны для Средней Азии (Туркестана) русскими художниками из центра, так же, как и агитпоезд «Красный Восток», оформленный бригадой московских художников. На стенах вагонов были нарисованы панно и агиткартины на местные темы. Население с большим интересом встречало поезд на пути его следования. Люди рассматривали агиткартины, часами простаивали около вагонов, обсуждая содержание изображений, спорили, что означает тот или иной рисунок. Панно на вагонах призывали народ к энергичной борьбе с хозяйственной разрухой, против феодалов, за мировую революцию. Так, в некоторых плакатах наблюдается ритмическое повторение фигур. Это чередование пластически повторяющихся форм идет, возможно, от монументальной, настенной живописи. Стремление к синтетическому обобщению, монументальности в создании типизированного художественного образа — ведущая тенденция Узбекистана 30-х годов. Самаркандская группа рабочей молодежи художников-самоучек выпустила по этому поводу воззвание. Но сначала профессиональные художники не желали идти в организацию самоучек, считая это унижением для

своего достоинства. Объединение состоялось только после вмешательства официальных органов, и в него вошли 20 художников-профессионалов и 18 любителей. Изофабрики были закрыты 23 апреля 1932 году в связи с роспуском АРИЗО, по постановлению Центрального Комитета Всероссийской Коммунистической Партии большевиков (ЦК ВКПб) «О перестройке литературно-художественных организаций» в 1932 году. Деятельность АРИЗО характеризовалась к этому времени спадом общественной инициативы, становилось беспринципной и аполитичной, что вызывало протест наиболее активных ее членов. Поскольку наиболее близкими к требованиям современности, во всяком случае по своим заданиям, являются художники группы АХРР, стремящиеся создать монументальное искусство пишет А.Федоров-Давидов в журнале «Искусство трудящемся» 1925г. [2, с.3]. Созданная в противовес АХРу и объединившая художников, исповедующих свободное экспериментаторство на стыке разных художественных направлений (экспрессионизм, футуризм, примитивизм) и поиски нового «национального стиля», группировка все же сохранила в качестве главной цели АХРовскую формулировку «воплощение посредством искусства современных революционных идей» и «продвижение искусства в широкую трудовую массу». Более того, многие художники, включая Волкова и Николаева, участвовали в выставках АХРР – организации противоположных идейно-живописных установок, которую чаще всего воспринимали как выставочное объединение. «В Ташкентском АРИЗО создалось какое-

то болотистое состояние: Нет общественных кампаний, нет творческих группировок среди художников, и самое главное, нет привлечения рабочих в изоискусство». В связи с этим в Ташкенте и Самарканде возникли группы (добивались оформления их в Узбекистанскую ассоциацию пролетарских художников (УзАПХ). Просуществовав три года, она распалась. В 1926 году художники Узбекистана вошли в состав творческого союза АХРР, организовав свою студию-филиал, который также просуществовал около трех лет. Примерно в это же время студенты монументального отделения Вхутемаса, получившую самую оценку руководства и критиков, осуществляют много-сюжетную роспись клуба. Выпускники Вхутеина в 1929-1930 годах организовали (РАПХ) Российскую Ассоциацию пролетарских художников, к сожалению они занимались групповой борьбой с другими художественными объединениями. Увлеченные деятельностью, коллективно они расписали фойе клуба «Пролетарий». Фреска имела много недостатков и через некоторое время была сбита. В тридцатых годах, после ликвидации РАПХ большинство этих художников переключились на станковую живопись [3, с.118]. Постановление ЦК партии «О перестройке литературно-художественных организаций» отменено притязания ташкентских и самаркандских художников на создание новой ассоциации по образцу РАПХ и положило и начало подлинной консолидации художников в единый Союз художников Узбекистана. В 1930 году Ассоциация вобрала в себя группировку «Мастера Нового

Востока», образовав автономный ташкентский филиал под руководством Михаила Курзина. «Мастера» продемонстрировали неизбежные силы станкового искусства, а также возможность соединения, разных творческих темпераментов. [4, с.21] В деятельности группы художников участвуют А.Н. Волков, В.Н. Гуляев, М.И. Курзин, В.П. Маркова, А.В. Николаев (Усто Мумин), С.А. Мальт, В.Л. Рождественский, П.О. Рябчиков, Н.С. Туркестанский и И.И. Икрамов. Формально к группировке не принадлежали В.И. Уфимцев и Е.Л. Коровай, хотя и разделяли ее творческие установки. Кроме того, к АРИЗО примкнули некоторые бывшие члены ташкентского филиала Ассоциации художников революции (АХР). Таким образом, художественная ячейка насчитывала порядка 100 художников. Поле деятельности для местных художников в те годы было довольно обширным. Культурная революция 1928-1932 годы были годами экспериментов и поисков. Монументальная пропаганда, главное направление в развитии советского искусства тех лет. Помимо творческих работ, от них требовалось оформлять городские улицы, парки и площади, различные празднества, выставки и места революционной пропаганды, а также оформлять «Красные чайханы» и клубы[5]. Новые композиционные решения находят в 20-е годы В. Еремян и М. Курзин. У.Тансыкбаев и А.Подковыров показали историю и современную жизнь Узбекистана в монументальных композициях и фресках. Пропаганда идеологических норм и идеологическая программа Советской культуры. В 1932 году был показан эскиз монументального полотна У. Тансыкбаева «Партизаны» а

также картина «Сбор фруктов» (совхоз Капланбек) на выставке. Работа «Поймали басмача» (1934) предполагалось как монументальное панно. Вместе с тем У. Тансыкбаев был увлечен стенными росписями, создаваемыми народными мастерами в чайханах и клубах, видя в них проявление национального вкуса и национальных особенностей.

Функционирования художественной культуры с началом 20-х гг. определяется активным стремлением партийного и государственного аппарата присвоить себе культуротворческие функции и подчинить их непосредственно политическим и идеологическим задачам. [6, с.123]. Эти идеи и концепции приводили к возникновению иногда неожиданных ракурсов и взглядов на окружающую реальность, провоцируя художников к поиску новых средств и приемов, позволяющих наилучшим образом выразить дух того времени, в котором они жили и творили. И в этом смысле в России творчество художников группы ОСТ особенно примечательно, поскольку на становление живописи молодых оловцев во многом оказал влияние синтез эстетических и философских взглядов Владимира Андреевича Фаворского профессора возглавляющий Вхутемас с 1923–1926 гг., который смог удивительным образом соединить в своей философско-эстетической системе и идеи немецкого скульптора А.Гильдебранда [7,118]. К творческому переосмыслению и выработать свой уникальный взгляд на искусство, который во многом и определил творческую самобытность ОСТа. В своих работах «молодежь группы ОСТ» стремилась «художественно осознать

современность сквозь проблему функции вещи, т.е. движения и пространственных отношений» Общество художников-станковистов ОСТ – художественное объединение, основанное в 1925 году в Москве группой выпускников ВХУТЕМАСа во главе с Д.Штеренбергом. В группировку входили живописцы, монументалисты, графики и скульпторы. Существовало до 1931 года.

Первой официальной школой по подготовке художественных кадров молодой республики становится Самаркандская художественная студия. Признавая назревшим и необходимым вопрос о развитии национально-художественного и изобразительного искусства в Узбекистане, 24 октября 1929 года вышло официальное постановление - осуществить организацию художественной студии в городе Самарканде. К всеобщему удивлению от желающих стать ее учениками сразу же поступило 250 заявлений. Но принять такое количество людей на учебу не имелось возможности. Создается Краевая туркестанская художественная школа, в том же году открывается Самаркандское художественное училище. 1920-1930е годы открыто Ташкентское художественное училище. Одним из важных для развития культуры Средней Азии художественных учебных заведений была Ударная школа искусств Востока (1922-1923гг.) Насущная потребность в творческих специалистах вынуждала правительство принимать более действенные меры. Для повышения уровня образования нового поколения художников, 26 сентября 1930 года издается Приказ Народного комиссариата просвещения Узбекской

ССР об открытии в Самарканде на базе ИЗО Студии – художественного ИЗО-техникума. ИЗО-техникум становится основным по подготовке работников изобразительного искусства в Средней Азии. На него была возложена ответственная задача - дать высококвалифицированных, преданных советской власти художников и преподавателей ИЗО. У целого ряда прежде трудившихся художников в творчестве доминировали либо романтическое видение и отражение Востока, либо этнографический натурализм. Широко развернувшая свою деятельность «Экспериментально-производственные мастерские пространственных искусств» к 1932 году прекратили свое существование в силу произошедшей перестройки творческих организаций в Узбекистане. Учитывая политические, идеологические и культурные тенденции 1920-х годов можно сказать что влияния того времени формирует новый подход и видение на развитие искусства Узбекистана.



Художники творческой группы «Мастера Нового Востока» 1930-гг.



Панно механизаторы А.Николаев (Усто Мумин) 1930-1939-гг.



А.Волков с учениками Изостудии 1930-гг.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. А.Хакимов. История искусств Узбекистана. Древность, средневековье, современность. – Ташкент; Zilol buloq, 2022.-528 с.
2. А.Федоров-Давыдов. Вопрос о новом реализме в связи западно-европейскими течениями в искусстве/ Искусство трудящимся -1925 №17-С 3
3. В.И.Костин. Среди художников Советкий художник -М: Советский художник 1986.-176 с., ил.
4. Р.Еремян. «Мастера Нового Востока, как часть мирового художественного процесса» Изд. Sanat №3-4. 2005.
5. А.Галак. «Самаркандский вестник» Областная газета № 18. 2024 г
6. Художники Узбекистана: время и судьбы (20-40-е годы XX века.) М.Тухтаева. -Т.: изд. “NAVRO`Z”, 2021.-244с.
7. В.В. Девдариани. Философские и эстетические идеи Владимира Фаворского и их отражение в творчестве художников группы ОСТ «Декоративное искусство и предметно-пространственная среда» Вестник МГХПА 2015. №4.-554с.
8. Журнал (РАПХ) За пролетарское искусство М: 1931, № 6, стр., 25.
9. Р.Х.Такташ. Изобразительное искусство Узбекистана Изд. «Фан» Ташкент-1972.-280 стр.

**XX ASRNING OXIRLARIDA MUZEYLAR FAOLIYATINING O'RGANILISHI
(O'ZBEKISTON MILLIY ARXIVIDAGI O'ZBEKISTON MUZEYLARINING
1980-1991-YILLARGA OID SAQLANAYOTGAN HUJJATLAR TAHLILI
ASOSIDA)**

**ИССЛЕДОВАНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МУЗЕЕВ В КОНЦЕ XX ВЕКА (НА
ОСНОВЕ АНАЛИЗА ДОКУМЕНТОВ МУЗЕЕВ УЗБЕКИСТАНА,
ХРАНЯЩИХСЯ В НАЦИОНАЛЬНОМ АРХИВЕ УЗБЕКИСТАНА ЗА 1980-
1991 ГОДЫ)**

**A STUDY OF THE ACTIVITIES OF MUSEUMS AT THE END OF THE 20TH
CENTURY (BASED ON THE ANALYSIS OF DOCUMENTS FROM THE
NATIONAL ARCHIVE OF UZBEKISTAN, ANNUAL REPORTS ON THE
ACTIVITIES OF MUSEUMS IN UZBEKISTAN FOR 1980-1991 years)**

Muxamedova Munisa Sabirovna

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD,

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

Muzeyshunoslik kafedراسi professori

***Annotatsiya:** 1980-90-yillar oralig'ida, O'zbekistonda muzey ishining holati, ko'p sonli ilmiy munozaralar hamda yirik kompleks tadqiqotlar, ularning natijalari asosan arxiv hujjatlarida aks etdi.. Muzey tarmoqlarini qayta tashkil etish va kengaytirish davom etdi va ma'lum strukturaviy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mavjud tarixiy va o'lkashunoslik muzeylarining barchasida davr siyosati yutuqlarini namoyish etib, uning g'oyalarini keng ommaga singdiruvchi ekspozitsiyalar paydo bo'ldi. Asosiy e'tibor tomoshabinlar bilan siyosiy-ma'rifiy ish olib borishga qaratildi. Lekin ularda to'laqonli kolleksiyalar yo'q bo'lganligi sababli muzey predmeti o'rnini matn, sxema, shiorlar egalladi.*

***Аннотация:** К 1980-м и 1990-м годам было изучено положение музейной работы в Узбекистане, проведено большое количество научных дискуссий и масштабных комплексных исследований, результаты которых были опубликованы в архивных документах. Несмотря на то, что музеи неразрывно связаны с историей страны, музейное дело получило свое внутреннее логическое развитие. Продолжалась реорганизация и расширение музейных сетей, произошли определенные структурные изменения. Во всех существующих исторических и краеведческих музеях появились экспозиции, демонстрирующие достижения новой системы, знакомящие широкую публику с ее идеями. Основное внимание было уделено проведению политико-просветительской работы с аудиторией. Ввиду того, что, у них не было полноценных коллекций по музейную тематику заменили текстами, схемами и лозунгами.*

***Annotation:** By the 1980s and 1990s, the situation of museum work in Uzbekistan was studied, a large number of scientific discussions and large-scale comprehensive studies were conducted, the results of which were published in archival documents.*

Despite the fact that museums are inextricably linked with the history of the country, the museum business has received its own internal logical development. The reorganization and expansion of museum networks continued, and certain structural changes took place. Expositions demonstrating the achievements of the new system and introducing its ideas to the general public have appeared in all existing historical and local history museums. The main attention was paid to conducting political and educational work with the audience. Due to the fact that they did not have full-fledged collections on museum subjects, they were replaced with texts, diagrams and slogans.

Kalit soʻzlar: *muzey ishi, tarixiy va oʻlkashunoslik muzeylari, ekspozitsiya, muzey tomoshabinlari, muzey auditoriyasi, strukturaviy oʻzgarishlar, yirik kompleks tadqiqotlar.*

Ключевые слова: *музейная работа, историко-краеведческий музей, экспозиция, музейная аудитория, зрительный зал музея, структурные изменения, крупное комплексное исследование.*

Key words: *museum work, museum of local lore, exposition, museum auditorium, museum auditorium, structural changes, large comprehensive study.*

1980-yillarga kelib Oʻzbekistonda muzeylar tizimini tashkillashtirish usullaridan biri, markazlashgan muzeylar sistemasini yaratish boʻldi. Bunday birlashmalarning asosiy maqsadi nazorat hamda muzey toʻplamlaridan gʻoyaviy va targʻibot maqsadlari uchun kengroq va unumliroq foydalanish, viloyat, shahar va tuman muzeylari saviyasini oshirish, ayrim muzeylarning tematik qayta tashkil qilinishi vazifalarini hal etishga qaratilgan edi. Har bir viloyat, shahar, tuman markazlarida oʻlkashunoslik muzeylari tashkil etildi. Ommaviy-gʻoyaviy ishlar kuchaytirildi. Sunʼiy ravishda muzey faoliyati doirasi ommaviy gʻoyaviy ish bilan qisqartirildi, muzeyda ish olib borish uslubi va shakllari soddalashtirildi. Gʻoyaga mos kelmaydigan madaniy yodgorliklarning ahamiyati pasaydi. Muzey muassasalarining oʻziga xos, individuallik tomonlari tenglashtirildi. Muzey ekspozitsiyalarida yodgorliklardan foydalanish masalasi notoʻgʻri hal qilindi va bu sobiq sovet davridagi muzeylar rivojiga salbiy taʼsir koʻrsatgani aniqlandi. 1980-yillarga kelib, respublikada 31 ta muzey mavjud boʻlib, ulardan 17 tasi

oʻlkashunoslik, 3 tasi tarixiy, 3 tasi badiiy va 2 tasi adabiy hamda 1 ta tabiiy ilmiy muzeylar edi. Bu yilda Samarqand viloyat oʻlkashunoslik muzeyida, Afrosiyob muzeyida yangi ekspozitsiyalar yaratildi. Surxondaryo, Qashqadaryo, Angren oʻlkashunoslik muzeylari ekspozitsiyalari yangilandi. Samarqanddagi Sherdor madrasasida etnografiya ekspozitsiyasi ochildi. Andijon viloyat oʻlkashunoslik muzeyining 2 ming kv metrga ega yangi ekspozitsion zali shakllantirildi. Respublika muzeylarining umumiy ekspozitsion hududi 1980-yilda 3.878 km.m boʻlsa, 1981-yilga kelib esa 63306 kv.m ni tashkil etdi. Ulardan ekspozitsiya uchun 31.444 kv.m (umumiy maydonning 49 %), fondlar uchun 7.121 (umumiy maydondan 11%) ajratildi. Muzeylar ommaviy targʻibot va tashviqot ishlarida ham muhim yutuqlarga erishdilar. Bu davrda muzeylarga umumiy tashrif 3,6 mlnni tashkil etdi. Bu oʻrinda Xalqlar doʻstligi muzeyi – 266 ming kishi, Qoʻqon oʻlkashunoslik muzeyi – 144 ming kishi, Buxoro muzeyi – 618 ming kishi, Surxondaryo muzeyi 103 ming kishini tashkil etdi. Anʼanaviy shakldagi jamoaviy

ishlar bilan bir qatorda, asta-sekinlik bilan muzeylar faoliyatida yangi yo‘nalishlar, tashrifchilarga xizmat ko‘rsatish, boshqa san‘at va madaniyat tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlash va ularni siyosiy–tarbiyaviy muzeylar faoliyati bilan tanishtirish ishlari olib borildi. Bu borada Xalqlar do‘stligi muzeyi, Farg‘ona o‘lkashunoslik muzeyi, Surxondaryo o‘lkashunoslik muzeyi, Buxoro muzeylari, Akmal Ikromov nomidagi O‘zbekiston madaniyati va san‘at tarixi davlat muzeylari faol ishtirok etishdi.

1981-yilda umumiy hisobda 56608 ta ekskursiya o‘tilgan bo‘lib, 1,6 mln tomoshabinni, ya‘ni 46 foiz tashrifchini qamrab olgan edi. Eng ko‘p ekskursiyalar Akmal Ikromov nomidagi O‘zbekiston madaniyati va san‘ati tarixi davlat muzeyida – 14,666 ta, Ichan qal‘a muzey qo‘riqxonasida - 9.679 ta, Buxoro viloyati o‘lkashunoslik muzeyida – 7, 625 ta tashkil etildi. Respublika tabiat muzeyida – “O‘zbekistonda tabiatni asrash muammolari”, Ichan-qal‘a muzey qo‘riqxonasi – “Yangi davr san‘ati”, Andijon o‘lkashunoslik muzeyi – “Konstitutsiya – hayotimizning asosiy qonuni” mavzularida mavzuga oid targ‘ibot ishlari olib borildi. Muzeylar bo‘yicha 1327 ta leksiya o‘tilgan bo‘lsa, muzeydan tashqari 1829 ta leksiya o‘tildi.

1981-yilda muzey ishchilari soni 1245 ta bo‘lib, ulardan 439 tasi oliy ma‘lumotli ilmiy xodim va ekskursavodlar bo‘lib 7 tasi ilmiy darajaga ega bo‘lgan. Muzeylar byudjetiga ko‘rsatilgan xizmatlardan 3315 ming rubl tushum kelib tushgan bo‘lsa, byudjetdan muzeylar faoliyati uchun 3348 rubl sarflangan. Respublika hududidagi muzeylarda ko‘chma ko‘rgazmalar faoliyati ham bir muncha rivojlandi. “O‘zbekiston – Sharq mayog‘i” mavzusi asosida Samarqand davlat san‘at va madaniyat tarixi muzeyi Samarqand, Bulung‘ur va Narpay

tumanlarida ko‘rgazmalar tashkil etdi. Viloyat muzeylari faoliyatiga metodik yordam ko‘rsatish maqsadida Xalqlar do‘stligi muzeyida metodik yordam bo‘limi ochildi. Unda xalq muzeylarida muzey ashyolarini rasmiylashtirish jarayonlari bo‘yicha ilmiy amaliy seminarlar tashkil etildi.

1981-yilga kelib esa Samarqand o‘lkashunoslik muzeyi, Sergey Borodin uy muzeyi, Muxtor Ashrafi uy muzeyi, O‘rol Tansiqboyev uy muzeyi, Oybek uy muzeylari tashkil etildi. Buxoro viloyatining Afshona qishlog‘ida Ibn Sino memorial muzeyi, Sirdaryo viloyati Guliston suratlar galereyasi, Samarqand davlat muzey qo‘riqxonasi va Qo‘qon shahrida G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot muzeylari tashkil etildi. Muzeylarda siyosiy va ilmiy– targ‘ibot ishlari qatorida leksiyalar ham tashkil etila boshladi. Muzey ekspozitsiyalari tez–tez din bilan bog‘liq ashyolarni ham namoyish etib bora boshladi. Bunga misol qilib O‘zbekiston tarixi davlat muzeyidagi Usmon Qur‘oni ekspozitsiyasini keltirib o‘tish joiz. Respublika muzeylarida bu yilda bir qancha ko‘rgazmalar tashkil etildi: “Islom va zamonaviylik”, “Ilm va din”, “Kurrai zamin va osmon”, “Islom va ayol”. Bu ko‘rgazmalar kolxozlarda, sovxozlarda, dala maydonlarida va mahallalarda ham namoyish etib borildi.

1982-yilga kelib esa Samarqand viloyati o‘lkashunoslik muzeyi, Samarqand tarixi muzeyi, Toshkentda S.Borodin uy muzeyi, M.Ashrafiy muzeyi, Yu.Fuchik muzeyi, U.Tansiqboyev uy muzeyi, Oybek uy muzeyi, Buxoro viloyati Afshona qishlog‘ida Ibn Sino muzeyi, Sirdaryo viloyati Guliston shahrida tasviriy san‘at galereyasi tashkil etildi. Samarqandda davlat muzey qo‘riqxonasi tashkil etildi. Qo‘qonda G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot muzeyi ochildi. Andijon viloyat o‘lkashunoslik

muzeining 2ming kv.m. lik ekspozitsion maydonli yangi binosi qurilishi o'z nihoyasiga yetdi.

Surxondaryo, Buxoro, Qashqadaryo, Angren o'lkashunoslik muzeylari, Xalqlar do'stligi muzeining ekspozitsiyalari yangilandi. Samarqanddagi Sherdor me'moriy yodgorligida etnografiya ekspozitsiyasi ochildi. Respublikadagi muzeylarning umumiy maydoni 1980-yilgi ma'lumotga qaraganda 3.878. kv.m. dan 63306 kv.m. ga oshdi. Ekspozitsiya 31.444 kv.m. (umumiy maydonning 49 foizi), fondlar saqlash uchun 7.121 kv.m. (11 foiz) maydonni tashkil etdi. 1980–1981-yillarda respublika muzeylari fondi 60 mingga ko'payib, eksponatlar soni 1 mlndan oshdi.

1983-yilga kelib esa Buxoro va Samarqandda yangi muzey–qo'riqxonalar tashkil etildi. Respublika muzeylarining umumiy maydoni 1982-yilga nisbatan 26188 kv.m. ga oshgan bo'lib, jami 95529 kv.m.ni tashkil etdi. Ekspozitsiyaga ajratilgan maydon 36924 kv.m., fondlar uchun 7615 kv.m. maydon ajratildi. 1983-yil respublika muzey fondlari 11079 ta eksponatlar bilan boyitildi. 1983-yil oxiriga kelib sovet davrini aks ettiruvchi ashyolar soni 264564 mingta bo'lib, fondning 25%ni tashkil etdi. Fondlarning joylashuv mavzusi ekspozitsiyaning asosiy maqsadiga yaqin bo'la boshladi.

Tashrifchilar soni esa Samarqandning Davlat muzey–qo'riqxonasi – 24587 ta, Xalqlar do'stligi muzei–2006 ta, Ichan Qal'a davlat muzey–qo'riqxonasi – 1145 ta, Buxoro viloyati o'lkashunoslik muzei – 2183 ta, Andijon viloyat o'lkashunoslik muzei – 1590 taga oshdi. 1983-yil davomida muzeylarga 5874,6 mln kishi tashrif buyurgan. Tashrifchilar soni ortganini bir qancha muzeylarda ko'rishimiz mumkin. Ichan Qal'a muzey–qo'riqxonasiga – 63,7 ming kishi (1 yilda 721.6 ming kishi), Buxoro muzei – 137,3

ming kishiga (1 yilda 838,8 ming kishi), Andijon muzeiga – 17,4 ming kishi (1 yilda 40.6 ming kishi) tashrif buyurgan.

Hamma muzeylarda ham tashrifchilar soni oshgan deya olmaymiz. Chunki, ayrim muzeylar o'tgan yildagiga qaraganda tashrifchilar soni kamayganini ko'ramiz. Masalan, Xalqlari do'stligi muzei 1982-yilga nisbatan – 48 ming kishiga (1983-yil–2397 ming kishi), Farg'ona muzei – 59,6 ming kishiga (1983-yil – 99,5 ming kishi), Qoraqolpog'itson davlat san'at muzeida – 24,8 ming kishi(1983-yil–62,6 ming kishiga), Andijon muzei – 10,5 ming kishiga (1983-yil – 22 ming kishi) kamaydi. 1983-yil respublika muzeylari bo'ylab 82669 ekskursiyalar o'tilgan bo'lib, O'zbekistonda 2316, 7 mln kishini qamrab oldi, bu degani tashrifchilarning 39% ni tashkil qildi. Eng ko'p ekskursiyalar o'tilgan muzeylar sirasida Samarqand davlat muzey–qo'riqxonasi – 24587 ta, Ichan qal'a muzey–qo'riqxonasi–9963 ta, Xalqlar do'stligi muzeida – 2424 ta, Surxondaryo muzeida – 2575 ta, O'zbekiston Davlat san'at muzeida– 5171 ta, Respublika tabiat muzeida–2029 ta ekskursiyalar olib borilgan.

Muzeylarda zamonaviy jarayonlarga bag'ishlangan turli mavzularga ma'ruzalar o'tishni yo'lga qo'yildi. Muzeyda olib borilgan targ'ibot ma'ruzalari – 1144 ta (1982-yil - 1094 ta), muzeydan tashqarida – 2013 ta (1982-yil – 1919 ta) ma'ruzalar o'qilgan. Shuningdek respublika muzeylarida turli ko'rgazmalar o'tkazish ham faollashdi.

1984-yilda 5 mln kishi muzeylar tomonidan tashkillashtirilgan 335 ta ko'rgazmaga tashrif buyurgan. Ulardan 256 tasi shahardan tashqarida o'tkazilgan bo'lib, Namanganda–44 ta, Respublika tabiat muzeida –35 ta, Andijonda –29 ta, Buxoroda–43 ta, Badiiy ko'rgazmalar

direksiyasida – 19 ta ko‘rgazmalar o‘tkazilgan. Respublika muzeylarida faoliyat olib borayotgan xodimlar soni – 1274 kishi, ulardan ilmiy xodimlar va ekskursovodlar – 476 ta, ilmiy darajalilar – 7 tani tashkil etdi.

Muzeylarda 1984-yilda 141 ta, muzeydan tashqarida 309 ta, qishloqlarda 212 ta ko‘rgazmalar o‘tkazilgan. Muzeydan tashqari o‘tkazilgan ko‘rgazmaga 1018,5 kishi tashrif buyurgan. 1984-yilda respublika muzeylariga 6195,3 ming tomoshabin tashrif buyurgan bo‘lib, tashrifchilarning 42% – 2601,8 ming kishiga ekskursiyalar o‘tilgan.

Shuningdek, bu yili muzeylarda maxsus kun va hafta kunlariga bag‘ishlangan mahsus ilmiy ommabop ishlar olib borildi. Samarqand, Buxoro davlat muzeyi qo‘riqxonalarini, Qo‘qon, Namangan, Surxondaryo viloyat o‘lkashunoslik muzeylarida “Tibbiyot xodimlari kuni”, “Temiryo‘lchilar kuni”, “Quruvchilar kuni”, “O‘quvchilar kuni”, “Kolxoz ishchilari haftaligi”, “Qishloq yoshlari haftaligi” kabi ilmiy ommabop ishlar olib borildi. Bundan tashqari Respublikaning bir necha katta muzeylari maktab, kolxoz va boshqa muassasalar bilan hamkorlik shartnomalarini tuzishni boshladi. Tashrif buyuruvchilarga esa mavzuli ekskursiyalar o‘ta boshlandi. Bundan ko‘rinib turibdiki, shartnoma asosida tashrif buyurgan tashrifchilarga saviyasiga qarab mavzuli ekskursiyalar o‘ta boshlandi. 1985-yil jami 113696 ekskursiyalar o‘tilgan bo‘lib, 3077,9 tashrifchilarga xizmat qilingan. Jami 1087 ta turli mavzudagi ma‘ruzalardan, muzeydan tashqarida 1753 ta, qishloqlarda 854 ta ma‘ruzalar o‘qildi. Ma‘ruzalarda jami 265,7 ming kishi ishtirok etdi. 1985-yil hisobot davrida 471 ta mahalliy va ko‘chma ko‘rgazmalar bo‘lib o‘tdi. 1986-yil 1-yanvar holatidagi hisobotda esa

respublika bo‘yicha muzeylarda jami 7064 ming kishi ishtirok etgan.

1984-yilda O‘zbekiston muzeylarida ko‘rgazmalar faol olib borildi. Xalqlar do‘stligi muzeyida “Kuch birlikda”, “Oilada yagona”, “Toshkent–tinchlik va do‘stlik shahri” nomli ko‘rgazmalar bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston davlat san’ati muzeyi, Qashqadaryo viloyati o‘lkashunoslik muzeyi, Surxondaryo viloyati o‘lkashunoslik muzeyida ham shu kabi ko‘rgazmalar o‘tkazildi. Muzeylarda 1984-yilda 141 ta, muzeydan tashqarida 309 ta, qishloqlarda 212 ta ko‘rgazmalar o‘tkazilgan. Muzeydan tashqari o‘tkazilgan ko‘rgazmaga 1018,5 kishi tashrif buyurgan. 1984-yilda respublika muzeylariga 6195,3 ming tomoshabin tashrif buyurgan bo‘lib, tashrifchilarning 42% – 2601,8 ming kishiga ekskursiyalar o‘tildi.

1985-yillarga kelib esa O‘zbekiston Madaniyat vazirligi qoshida 51 ta turli yo‘nalishdagi muzeylar bo‘lib, ulardan 3 ta tarix, 17 ta memorial, 18 ta o‘lkashunoslik, 10 ta badiiy, 2 ta adabiyot va 1 ta tabiiy–ilmiy muzeylar edi. Tamaraxonim uy muzeyida ham doimiy kostyumlar ekspozitsiyasi ustida ish olib borildi. Xalqlar do‘stligi muzeyi va Farg‘ona viloyat o‘lkashunoslik muzeylarining ekspozitsiyasi me‘moriy–badiiy yechimlari va mavzuviy–ekspozitsiyasi tasdiqlandi. Respublika muzeylarining umumiy maydoni 105 ming kv.m. ni tashkil etib, undan 42,5 ming kv.m. ekspozitsiya uchun, 8,2 ming kv.m. maydoni esa fondlarni saqlash uchun ajratilgan edi.

1985-yil respublika muzey fondlari o‘tgan yilgiga nisbatan 23 mingga oshib, jami muzeylar fondi 1mln.110mingta ashyoni tashkil etdi. Muzeylar bu yilda ham barcha e‘tiborini ashyolarni hisobga olish va to‘g‘ri saqlash uchun qaratgan

bo'lib, sekin-asta muzeylar kerakli fond ashyolari bilan ta'minlab borildi.

Respublika muzeylari Ikkinchi Jahon urushi g'alabasining 40 yilligi munosabati bilan muzey ekspozitsiyasiga yangilik kiritib borish ustida ishlar olib borildi. Masalan, Xalqlar do'stligi muzeyiga urush qahramonlari M.V.Cherikov, Sh.U.Usnov, N.Nurpesovlarning shaxsiy hujjatlari kelib tushdi. Farg'ona viloyati o'lkashunoslik muzeyi ham urush qahramoni A.Saidbekova, S.Malabaev, S.Karimovlarning hujjatlarini yig'ib, ekspozitsiyada namoyish etdi.

Shuningdek, bu yili muzeylarda maxsus kun va xafta kunlariga bag'ishlangan maxsus ilmiy ommabop ishlar olib borildi. Samarqand, Buxoro davlat muzeyi qo'riqxonasi, Qo'qon, Namangan, Surxondaryo viloyat o'lkashunoslik muzeylarida "Tibbiyot xodimlari kuni", "Temiryo'lichilar kuni", "Quruvchilar kuni", "O'quvchilar kuni", Kolxoz ishchilari xaftaligi, "Qishloq yoshlari xaftaligi" kabi ilmiy ommabop ishlar olib borilgan. Bundan tashqari Respublikaning bir necha katta muzeylari maktab, kolxoz va boshqa muassasalar bilan hamkorlik shartnomalarini tuzishni boshlaganlar. Tashrif buyuruvchilarga esa davlat tarixi bo'yicha mavzuli ekskursiyalar o'ta boshlandi. 1985-yil jami 113696 ekskursiyalar o'tilgan bo'lib, 3077,9 tashrifchilarga xizmat qilindi. Jami 1087 ta turli mavzudagi ma'ruzalardan, muzeydan tashqarida 1753 ta, qishloqlarda 854 ta ma'ruzalar o'qildi. Ma'ruzalarda jami 265,7 ming kishi ishtirok etdi. 1985-yil hisobot davrida 471 ta mahalliy va ko'chma ko'rgazmalar bo'lib o'tgan. 1986-yil 1-yanvar holatidagi hisobotda esa respublika bo'yicha muzeylarda jami 7064 ming kishi ishtirok etgan.

1986-yil noyabr oyida Urganch shahrida "Ichan qal'a" davlat muzeyi qo'riqxonasida O'zbekiston Madaniyat

Vazirligining Ilmiy metodik Kengashi yig'ilish o'tkazilib unda Toshkent shahridagi muzeylar bazasida muzey xodimlari Respublika ilmiy-tadqiqot institutlari bilan birgalikda tarixiy, o'lkashunoslik badiiy ekskursovodlik bo'yicha amaliyot kurslari ochish masalari ko'rib chiqildi hamda shu yildanoq amaliyotga joriy etildi.

1987-yil oxirida O'zbekiston Madaniyat vazirligi tizimida 53 ta turli yo'nalishli muzeylar faoliyat olib bora boshladi. Toshkentdagi G'.G'ulom uy muzeyining yangi ekspozitsiyasi ochildi. Buxoro davlat muzey qo'riqxonasi, Qoraqolpog'iston davlat o'lkashunoslik muzeyi, Chirchiq shahar o'lkashunoslik muzeyi, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyati o'lkashunoslik muzeylarining sovet tarixi bo'limi ekspozitsiyalari yangilandi. Andijon, Farg'ona, Jizzax o'lkashunoslik muzeylarida ham yangi ekspozitsiyalar yaratila boshlandi. Bu vaqtga kelib muzeylarnig maydonlari ham kengayib bordi. 1987-yil muzeylarning umumiy maydoni 108 ming kv.m.ni tashkil etib, 41 ming kv.m. ekspozitsiyaga, taxminan 11 ming kv.m. esa fondlar saqlash uchun ajratildi. Bu yil oxirida taxminan 400 ta ko'rgazma o'tkazilgan bo'lib, ulardan yarmidan ko'pi qishloqlarda uyushtirilgan. Yillar o'tgan sari ko'rgazmalarning ham saviyasi ortib bordi.

Muzey fondlari ham muzeylarda yangilanayotgan ekspozitsiya va ko'rgazmalar hisobiga 50 mingtaga oshib, respublika muzeylari fonlari 1mln. 300 ming eksponatni tashkil qildi. Bu yilga kelib muzeylarda ilmiy ommabop ishlar jonlandi. Yiliga muzeylarga 11 mln.dan ortiq tashrifchilar kela boshladi. Ekskursiya xizmatlari ham kelayotgan mehmonlar va tomoshabinlarga qarab berila boshlandi. Bundan ko'rinib turibdiki, aholiga, maktab o'quvchilariga,

talabalarga va chet el mehmonlar saviyasiga qarab, turli darajadagi ekskursiyalar paydo bo'la boshladi. Yil davomida 7 mln. kishini jalb qilgan 186 ming ekskursiyalar o'tilgan bo'lib, taxminan 4 ming ma'ruzalar o'tilgan. Ulardan taxminan 1,5 ming ma'ruza qishloq aholisiga o'tildi.

Muzeylar bo'yicha hali bir nechta kamchiliklar mavjud edi. Ulardan eng muhimi muzeylarda ekspozitsiya va ko'rgazmalarni mukammal tarzda o'tkazish, me'moriy jihatdan to'g'ri tashkil etishda maxsus muzey jihozlarning yo'qligi bilan bog'liq edi. Shuning uchun 1987-yil 11-dekabrda O'zbekiston Ministrlar Sovetining №728 sonli "Respublikada muzeylar va uning rivojlanishini yaxshilash" qarori ostida sekin astalik bilan muzeylar jihozlar bilan bosqichma bosqich to'ldirila boshlandi. Avvalambor videomagnitafonlar, teleustanovkalar, fonotexnikalar, displeylar, maxsus kompyuterlar bilan ta'minlandi.

1989-yilga kelib esa O'zbekiston Madaniyat vazirligi qoshida 61 ta muzey faoliyat olib bordi. Ulardan 21 tasi o'lkashunoslik, 18 tasi memorial, 6 ta tarixiy, 10 ta san'atshunoslik, 5 ta adabiyot, 1 ta tabiiy ilmiy) muzeylar edi. Muzeylar faoliyati jarayonlarning qayta qurish davri ekspozitsiyasi va ko'rgazmasini yaratishga qaratildi. Bunda ular o'tish davridagi yangi bosqichlar, jamoatchilikdagi o'zgarishlar, san'at va madaniyatdagi milliy an'analarning o'zgarishi va faollashishidagi yangi metodlarni namoyon eta boshlaganlar.

Samarqand muzey qo'riqxonasi qoshida Nurota va Paxtachi tumanlari o'lkashunoslik muzeylari, Farg'ona viloyat o'lkashunoslik muzeyi qoshida Marg'ilon adabiyot va san'ati muzeyi tashkil topdi. Kino san'ati muzeyi esa O'zbekiston Madaniyat vazirligiga

tasarrufiga o'tdi. 1989-yil Yunus Rajabiy muzeyi o'zi yashab ijod etgan uyida (Toshkent shahri, G. Lopatina ko'chasi) ochildi. Shuningdek, Xalq me'morchiligi va maishiy hayoti muzeyi Toshkent, Ko'kaldosh madrasasida, Gulbozor mahallasi yaqinida esa tarixiy turar joy binosida Milliy musiqa asboblari ekspozitsiyasi ochildi.

Muzeylarning 147581,3 ming kv.m. umumiy maydonidan 43123,3 ming kv.m. tashkil etilayotgan doimiy ekspozitsiyalar va vaqtinchalik o'tkaziladigan ko'rgazmalar uchun ajratildi. 1989-yil ko'rgazma jarayoniga boy bo'ldi. Shu yilning o'zida fondlarning asosiy kolleksiyalari asosida 15028 ta ashyo ishtirokida 255 ta ko'rgazma faoliyat olib bordi. Ko'rgazmalar orasida O'zbekistondan tashqarida muzey fondlari ashyolaridan tashkil topgan bir nechta ko'rgazmalar ham bo'lib o'tdi. Kiev, Petrazavodsk, Pavlodar, Sverdlovsk, Novosibirsk, Novokuznesk, Irkutsk, Tatarstan, Qozoqston, Buratiya shaharlarida ham ko'rgazmalar uyushtirildi.

Shuningdek, ko'pgina muzeylarda turli mavzulardagi komplektlash ishlari olib borilgan. Qoraqalpog'iston o'lkashunoslik davlat muzeyida Orol dengiziga bag'ishlangan bir qancha doimiy va ko'chma ko'rgazmalar, Farg'ona viloyati o'lkashunoslik muzeyida "Tabiat muxofazasi" mavzusidagi yangi muzey ekspozitsiyalari yaratildi. 1989-yil respublika muzeylarini 10197.2 ming kishi tashrif buyurgan bo'lib, ulardan 3399,8 mingtasi talabalarni tashkil etadi. 1988-yilga nisbatan, 1989-yili 2406.5 ming kishiga kamaygan. Bunga sabab, dunyodagi ijtimoiy siyosiy ahvolni keskin o'zgarishi respublikaga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. 1989-yil 174817 ta ekskursiyalar 53 mln. tamoshabinga

o'tildi. Bu tomoshabinlarni 52%ni tashkil etdi.

Umuman olganda bu davrda O'zbekiston muzeylari tarixida yangi davr boshlanadi. Muzeylarda jonlanish kuzatiladi: muzey ommaga yaqinlashishga harakat qildi, hafta davomida ish kunlarini ko'paytirdi, shu bilan birga tashrif soni ham ko'paydi. Bu davrada muzey uchun materiallar to'plash va uning fondini boyitish borasida qizg'in ish boshlandi. Maxsus ekskursavod bilan muzeyni guruh bo'lib tomosha qilish praktikasi keng

qo'llanila boshlandi. Ana shunday ommaviy ishlar jonlantirilishi natijasida muzeybop materiallar to'plandi, ular ko'rgazmaga qo'yildi va tadbirlar muzeyni omma o'rtasida targ'ib qilishga yordam berdi, ommaviy-oqartuv ishlarini rivojlantirishga imkon berdi. Muzeylardagi ekspozitsiyalar orqali omma tabiat va tarix bilan tanishdi, ularga bilim tarqatildi, shunday yo'llar bilan muzeylar o'z oldiga qo'ygan vazifani bajarib bordi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Milliy Arxivi R-2296, Ro‘yxat – 7, Yig‘majild -79 a, 1 -71-varraqlar. 1980-1990-yillarga oid muzeylar hisobotlari yig‘majildi.
2. Садыков Х., Гласс Ю., Цой Е. Музеи Узбекистана. Путеводитель-справочник. – Ташкент: Фан, 1978. – 115 с.
3. Содиқова Н. Маданий ёдгорликлар хазинаси. – Тошкент: Фан, 1981. – 270б.
4. Родионов В.Г. Исторический опыт развития и пути перестройки управления музейным делом. Автореферат. дис. канд. ист. наук. – Москва: Институт культурологии, 1991. – 27 с.

SAHNADA RAMZIY IFODA VOSITALAR VA OBRAZLI YECHIM
СИМВОЛИЧЕСКОЕ ВЫРАЖЕНИЕ НА СЦЕНЕ СРЕДСТВА И ОБРАЗНОЕ
РЕШЕНИЕ
SYMBOLIC EXPRESSION ON STAGE MEANS AND FIGURATIVE
SOLUTION

Gulchehra Mufti-zade Anvarovna

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
San'atshunoslik va madaniyatshunoslik
kafedrası katta o'qituvchisi,
mustaqil izlanuvchi

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada teatr san'ati, dekoratsiya, shuningdek, aktyorlik ijro mahoratidagi obrazli yechim va ramziy ifoda vositalar xususida so'z boradi.*

***Аннотация:** В данной статье речь пойдет о средствах образного решения и символического выражения в театральном искусстве, декорациях, а также актерском исполнительском мастерстве.*

***Annotation:** This article will talk about theatrical art, decor, as well as the tools of figurative solution and symbolic expression in acting performance skills.*

***Kalit so'zlar:** ramz, obraz, teatr, spektakl, dekoratsiya, rejissyor, aktyor, sahna.*

***Ключевые слова:** символ, образ, театр, спектакль, декорации, режиссер, актер, сцена.*

***Key words:** symbol, image, theater, performance, decoration, director, actor, stage.*

O'tgan asrlardagi ma'lum bir davr xususiyatlarini bugungi kunda anglash yoki bugungi kun ruhini uzoq kelajakka yetkazishda ramzlar muhim vosita vazifasini bajaradi.

San'at orqali qalbida ezgulik ruhi uyg'ongan insonning ongi va tafakkuri go'zal bo'ladi. San'at murakkab ijtimoiy voqelik sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u o'tmishdagi ajdodlar mehnati va bilimlarini o'zida aks ettiradi, saqlaydi va boyitib boradi. Shuningdek, badiiy qadriyatlarni to'plab, ularni kelgusi avlodlarga yetkazib berish bilan bog'liq jarayonlarni o'z zimmasiga oladi. Bu borada u badiiy ifoda vositalari bo'lgan ramzlardan, majozlardan, obrazlardan unumli foydalanadi. Bu kabi ifoda vositalari ichida ramzlar aynan majoz va

obrazdan oziqlanib, o'ziga xos ramziylikni yaratadi.

Masalan, aktyorlik ijrosining elementlari, obrazli aks etgan ikki juft niqobning yonma-yon kelishi xalqaro emblematikada tan olingan. Har ikkala niqob inson tabiatidagi ikki xil xislat – ma'yuslik va xushchaqchalikni namoyon etadi. Bunday ramziylik har narsaning yaxshi va yomon tomoni borligi, chiroylining xunugi, savobning gunohi va shu bilan birga, ma'yuslikning tabassumi mavjudligiga ishoradir. Umumiy yondashuvda o'ning o'n beshi qorong'u bo'lsa, o'n beshi yorug'ligi haqidagi haqiqat ham namoyon bo'ladi. Ikki xil mimik obrazning mujassamligi ma'nolaridan yana biri hayot sahnasida turfa xil niqob egalari o'z rollarini

o'ynaydilar va bu niqoblar to'qnashuvi hayot oqimining bir tekisda emasligini anglatadi. Shuningdek, bunda u gohi kuldirdi, gohi yig'latadi, degan ma'no ham yashiringan.

Teatr san'atidagi ramzlar va ramziylik ham badiiy adabiyotdagi ramziylik bilan hamohang tarzda namoyon bo'ladi. Teatr san'ati bejizga sintez san'at turi deb hisoblanmaydi. Teatr barcha san'at turlari bilan oziqlanadi, jumladan, adabiyot, musiqa, tasviriy va amaliy san'at, xoreografiya, aktyorlik va rejissyorlik va boshqalar. Ushbu san'at turlaridan tasviriy va amaliy san'atda ramziylikka aloqadorlik nisbatan yaqqolroq seziladi. Teatr bilan tasviriy san'atni bog'liqligi nimada? Teatr sahnasidagi ramziylik rejissyor bilan rassomning o'zaro hamkorligi natijasida yuzaga keladi. Aynan spektakl uchun qurilgan dekoratsiyada rassomning didi, dunyoqarashi, falsafiy mulohazasi, asar voqealari muhitini, qahramonlarning xarakteri va ruhiyatini ramziy aks ettira olish darajasi talab etiladi. Yuqorida qayd etilgan qusurlardan holi bo'lgan, aksincha, o'ziga ishongan, bilimli, zukko, ko'rgan, o'qigan va eshitganlaridan falsafiy ma'no, ramziy tasvir yarata oladigan rassom albatta buni uddalaydi.

Parda ochilishi bilan tomoshabin ko'z o'ngida namoyon bo'ladigan dekoratsiya bir ko'rishda ham falsafiy, ham ramziy ma'no aks ettirishi shart. Tajribali teatr rassomidan talab etiladigan yana bir jihat – bu rejissyor bilan kelishgan holda spektakl jarayonidagi aktyorlarning hatti-harakatlari uchun qulay sharoit yuzaga keltirish zarur.

Shu o'rinda rassom dekoratsiya qurish jarayonida asar voqealari muhitini ko'z oldiga keltirar ekan, chuqur falsafiy qarash va ramziy nigoh bilan voqealar muhitining eng umumiy koloritini ko'zlaydi. Chiroq yoki ranglar orqali

sahnaning umumiy fonidagi rangni aniqlaydi. Buning natijasida tomoshabin parda ochilganda ranglar asosida aniq fikrlarni ilg'aydi. Masalan, qorada – qorong'ulik, oqda – yorug'lik anglanadi. Ya'ni sahnadagi asosiy koloritda to'q va sovuq ranglar bo'lsa, bu voqealar zamiridagi tushkunliklar, noxushliklar va yovuzliklar haqida ayon etadi. Oq va iliq ranglar esa aksincha ma'no kasb etadi.

Teatr dekoratsiyasidagi nafaqat ranglar, balki sahnadagi har bir detal voqealarning umumiy ko'rinishini aks ettiruvchi ramziy bir vosita bo'lib, unda tomoshabin bu ramziy ko'rinish bilan bog'liq qanday voqealar sodir bo'lishini oldindan his etadi.

Sahnaviy muhitda ramziylikka intilish zamonaviy o'zbek teatrida ko'p kuzatilayotgan holatdir. Bu B.Yo'ldoshev, O.Salimov, V.Umarov, A.Xo'jaquliyev rejissyorligida amalga oshirilgan spektakllarda yaqqolroq va aniqroq namoyon bo'ldi.

Ma'lumki, o'zbek teatri rejissurasining zabardast vakili B.Yo'ldoshev o'z ijodiy faoliyati davomida Nodirabegim obraziga bir necha bor murojaat etib, T.To'laning "Quvvai qahqaha" asarini bir necha teatrlarda qayta-qayta sahnalashtirgan edi. Uning spektakllari nafaqat ichki kechinmaga boyligi, balki ramziy va majoziy xususiyatlari bilan ham ajralib turadi. Ammo ular ichida "Diydor" teatr-studiyasida amalga oshirilgan postanovka sahnaviy muhitning butunlay shartlilik bilan ajralib turadi. Unda rejissyor B.Yo'ldoshev va rassom S.Seduxinning ramziy topilmalari e'tiborni jalb qiladi. Tutun – mavhumlik, shubha, bezovtalikni bildiradi. Har tomondan tushib turgan zanjirlar spektakl muhitini ochish uchun xizmat qilib, birinchidan, o'sha davrdagi qirg'inbarot urushlar, aybi bor yoki yo'qligidan qat'iy nazar odamlarning

zindonband yoki qatl qilina verganini ifodalasa, ikkinchidan, Nodirabegim va uning farzandlari-yu, safdoshlarini tuzoqqa tushirish uchun amir tomonidan yuzaga keltirilgan o'rgimchak inini aks ettiradi. Amir Nasrullo – I.Arabov qo'lida ham zanjirni tasbeh sifatida o'girib yuradi, bunda zolim amir insonlarni xuddi shunday tarzda qo'lida o'ynatgani o'z ifodasini topgan.

Sahnadagi yana bir ramziy ifoda vositasi lavhga o'xshash moslamalarda ko'rinadi. B.Yo'ldoshev asarning avvalgi talqinlarida keng foydalangan ustunlardan lavhga o'tishida ramziy ma'no ilg'anadi: ulug' yoshga yetgan rejissyor asarga ilm-ma'rifat, yoshga mos donishlik nuqtai nazaridan qaray boshlagan. Lavhga o'xshash moslamalar goh kitob, goh sirtmoq, goh qalqon, gohida esa arg'imchoqqa aylanib, aktyorlarning ijrosini to'ldirgan. Ayniqsa, bosh qahramonning arg'imchoqda "Tushimda ko'rsam edim..." g'azalini nola qilib kuylagan sahnasida, qismat o'z arg'imchog'ida istaganicha Nodirani uchirganiga ramziy ishora mavjud. Bundan tashqari, spektakldagi salbiy qahramonlarga ularning jirkanch va yovuz niyatlardan chirigan qalbini ifodalash uchun shunga mos niqoblar o'ylab topilgan. Rejissyor ana shu salbiy qahramonlardan biri Haqqulini Ma'dalixonga "itdek sadoqatli" vazirligini aks ettirarkan, uni sahnada haqiqatdan it singari to'rt oyoqlab yurgizadi. Poshshooyimning o'limi, Haqqulining qatl etilishi bilan bog'liq jarayonlarga ham B.Yo'ldoshev ramziy yondashgan. Bunda tepadan tushgan zanjirlarga qahramonlar osilib turadi hamda zanjirlarning uzib tashlanishi ularning o'limini ifodalaydi.

Nodirabegim va Amir Nasrullo o'rtasidagi ziddiyatda rejissyor va rassom jaholat va ma'rifat orasidagi azaliy kurashni ramziy tarzda aks ettirdi.

Ikkisining o'zaro suhbatlari jarayonida Nasrullo – I.Arabov Nodiraning asarlarini ifodalovchi lavhlarni yerga otishida johillik, nodonlik, zolimlikning ziyo tarqatuvchi ilm-u ijodni shafqatsizlarcha oyoqosti qilganiga ishora bor.

Yuqorida qayd etilgan rejissyorlar orasida O.Salimovning ham deyarli har bir postanovkasida ramziy detallar ko'zga tashlanadi. Xususan, ulug' ajdodimiz Amir Temur hayotining bir jabhasiga bag'ishlangan, A.Oripov dostoni asosida 1996 yili sobiq Hamza nomidagi o'zbek davlat akademik drama teatrida O.Salimov tomonidan sahnalashtirilgan "Sohibqiron" spektaklida rejissyor va rassom B.To'rayevning ijodiy hamkorligi e'tiborli. Unda xor va masxarabozlar tomonidan sahnada foydalanilgan niqoblar sahnaviy ifoda vositalariga ramziylik baxsh etgan. Jumladan, sartaroshning Amir Temur sochini olishi sahnasida hukmdor oyna qarshisiga kelganida, niqob paydo bo'ladi. Bu mamlakatga ko'z tikayotgan g'animlardan darak beradi. Sohobqiron hayotiga suiqasd sahnasi ham e'tiborni jalb qiladi. Adabiy asosda og'zaki keltirilgan ushbu voqeani rejissyor sahnada harakatga keltirdi. Bastakor A.Ergashevning tahlikali musiqa tovushlari ostida taxtga nayza sanchilishi spektaklning dramatik xususiyatini yanada oshirgani bilan bir qatorda, suiqasd bilan bog'liq hodisa ramziy detal orqali ifodalangan.

O.Salimov Yosh tomoshabinlar teatri sahnasida 1994 yili Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshomda" va "Oydinda yurgan odamlar" nomli qissalari asosida "Ot yig'lagan tomonda" spektaklini sahnalashtirdi. Bu spektaklda rejissyorning sahnalashtiruvchi rassom Berdiquli Amansixat bilan hamkorlikda spektakl stsenografik yechimi ustidagi izlanishlari alohida o'ringa ega. Spektakl oddiy bezatilgan. Sahna o'rtasi narvon

shaklidagi shartli jihozlar yordamida Ziyodulla oilasi bilan yashaydigan uy, ko'pkari maydoni, qamoqxona, otxona va boshqalarga aylanadi. Ijodkorlar ana shu sahnalarni "ibtidoiy ko'rinishga aylanib qolmasligi va tomoshabinni xayolot olamiga olib kira oladigan tarzda chiqishi uchun harakat qilgan"[7]. Sahnaning atrofi esa qora mato bilan o'ralgan hamda ular chiroq yordamida yoritilmaydi. Bu bilan rejissyor va rassom sahnaning voqealar yuz beradigan qismini alohida ajratib ko'rsatishga hamda ular o'zga olamda, bepoyonlikda ro'y berayotgandek tasavvur uyg'otishiga erishgan. Qora mato oralaridagi teshik joylardan aktyorlar boshini suqib qaragan holatlarda esa qahramonlar ramziy tor qafas ichida yashayotgani anglanadi. Shuningdek, sahnaning yuqori qismida tomoshabin uchun ko'rinmas joydagi aylanaga oltita arqon osilgan. Ularga egar ilingach, otning majoziy timsoli paydo bo'ladi.

O'zbek Milliy akademik drama teatri O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim qalamiga mansub "Ogoh bo'ling, odamlar" asariga murojaat etib, rejissyor O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Valijon Umarov tomonidan sahnalashtirildi. Spektakl bugungi kunda global muammo hisoblangan odam savdosi masalalariga bag'ishlanadi.

Rassom B.To'rayev tomonidan yuzaga keltirilgan mazkur spektakl dekoratsiyasida ramziy ifodalar yaqqol ko'zga tashlanadi. Parda ochilishi bilan tomoshabin ko'z o'ngida namoyon bo'lgan va bir ko'rishda u qadar tushunarli bo'lmagan, ammo ramziy ma'no aks ettiruvchi bir necha narvon sifat arqonlar spektaklning to boshidan oxiriga qadar xizmat qiladi. Bu arqonlar spektakl jarayonida qahramonlarning tushgan vaziyatlariga qarab, o'z vazifasini aynan ramziy ravishda bajaradi. Ular samolarga, boqiy dunyoga eltuvchi ilohiy narvon,

changallash uchun to'r, yuqoridan boshqarish uchun minbar, kaltaklash uchun xivchin va najot beruvchi kuch sifatida ramziy tarzda qo'llaniladi. Bu kabi falsafiy qarashlarga yo'g'rilgan ramziy topilmalar albatta tajribali rassom va rejissyorlarning katta yutug'idir.

Shu o'rinda mazkur ikki ijodkorning o'zaro hamkorligi natijasida yuzaga kelgan yana bir spektakl dekoratsiyasini misol sifatida keltirish mumkin. Nurillo Abbosxon qalamiga mansub "Tanho yulduz" komediyasi uchun yaratilgan dekoratsiyada qahramonlarning taqdirini aks ettiruvchi badiiy-tasviriy yechim, ramziy ifoda mavjud. Rassom B.To'raev yuqorida qayd etilgan o'tkir zehni, falsafiy dunyoqarashi keng, ramziy fikrlovchi teatr rassomidir.

Sahnada mayin kuy yangray boshlaydi. Umida – Gavhar Zokirova ochiq chehra bilan Murod – Jamshid Zokirovni raqsga taklif etadi. Ruhan birlashgan qalblar endi jisman birlashib, ikki oqqush misoli sahna bo'ylab go'zal raqs ijro etadilar. Ana shu daqiqalarda moviy osmon va cheksiz yulduzlar tasvirini ramziy ma'noda ifodalovchi matoga ishlangan, u qadar katta hajmga ega bo'lmagan dekorativ bezak-pardoz vositasi yuqoridan havoda tebranib yerga tushadi. Rejissyor V.Umarov va rassom B.To'raevning ijodiy hamkorligi mahsuli bo'lgan ushbu manzara asarda tanho yulduz deya fikr yuritilgan. Bu Umida va Murodning baxt yulduzlari qo'shqanot bo'lganligi, zaminda yana bir baxtli juftlik paydo bo'lganligiga ishoradir. Bu topilmada komediya jozibali ko'rinishdagi obrazli yechim bilan yakunlanadi[8].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bu kabi ramziy ifoda vositalariga boy, mantiqan obrazli yechim topgan spektakllar afsuski bugungi kunda u qadar ko'p emas. Ramziylik yo'q joyda soddalik, sustlik, mantiqiy bo'shliq yuzaga

kelishi mumkin. Ramzlar, eng avvalo, diqqatni tortadi, so‘ng o‘yga chorlaydi. Shu tariqa ramzlar falsafiy fikrlashga undaydi va tafakkur imkoniyatlarini kengaytiradi. Albatta, ramzlarni tahlil qilishda va ramziylikning mohiyatini anglashda chuqur bilim: tarixni bilish, milliy ma‘naviy va madaniy merosni qadrlash, urf-odat va an‘analarni anglash talab etiladi.

Bularni tushunish uchun esa qunt, ilmiy bilim va albatta amaliy tajriba kerak.

Inson o‘qimasa, izlanmasa, bilishni istamasa, uning ongidagi bilim uchun ajratilgan joyida “bo‘shliq”, “ma‘naviy bo‘shliq” paydo bo‘ladi. Eng dahshatlisi, ana shunday bo‘shliqni poylab yurgan, dinimiz, ma‘naviyatimiz kushandasi bo‘lgan buzg‘unchi g‘oyalarning hujumidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони// Халқ сўзи. 2022 йил 29 январь.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 3 августдаги Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги нутқи // “Халқ сўзи”. 2017 йил 4 август.
3. Исмоилов Н. Ватан рамзи, жасорат рамзи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1991.
Кароматов С. Гўзаллик рамзи. Монография. – Тошкент: Ёш гвардия, 1965.
4. Олим С. Давлатимиз рамзлари. – Тошкент: Маънавият, 2002
5. Станиславский К.С. Актёрнинг ўз устида ишлаши. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1965.
6. Бойназаров Ф. Адабиёт – гўзаллик рамзи. – Тошкент: ЎзССР Билим жамияти, 1989.
7. Турсунов Т. XX аср ўзбек театри тарихи. – Тошкент: Art Press, 2010.
8. Шобилолова О. Танҳо юлдуз. // Театр. – Тошкент, 2010. 3-сон.

**JAS ÁWLAD SANASIN RAWAJLANDIRIWDA MUZIKA PÁNINIŇ ORNI
ЗНАЧЕНИЕ МУЗЫКАЛЬНОЙ НАУКИ В РАЗВИТИИ СПОСОБНОСТЕЙ
МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ
THE IMPORTANCE OF MUSIC SCIENCE IN DEVELOPING THE ABILITIES
OF THE YOUNGER GENERATION**

Allanov Ayapbergen

Ájiniyaz atındađı NMPI Muzikalıq tálım
kafedrası ađa oqıtıwshısı, Ózbekstan Respublikasında
xızmet kórsetken jaslar ustazı

***Annotatsiya:** Áyemgi hám bay tájiriybege iye milliy muzika mádeniyatı keleshegin ámelge asırıw tálım tárbiya jumislari menen shuđıllanıw maqsetinde ásirler dawamında rawajlanıp kelgenligin atap ótiw orınlı bolıp tabıladı. Bul mekteplerde muzika tálım-tárbiyası tikkeley ámelge asırılıp barılđan. Shaxs kámalında muzika tárbiyasın asırıw álbette tálım metodikasına tikkeley baylanıslı bolıp tabıladı.*

***Аннотация:** Следует отметить, что национальная музыкальная культура, обладающая древним и богатым опытом, развивалась на протяжении веков в целях осуществления образовательной и воспитательной работы. Музыкальное образование в этих школах осуществляется непосредственно. Совершенствование музыкального воспитания личности, безусловно, напрямую связано с методикой обучения.*

***Annotation:** It is worth noting that the initial development of the future of the national musical culture, which has an ancient and rich experience, has been formed for centuries in order to engage in educational work. Musical education has been directly implemented in these schools. It is obvious to mention that the formation of musical education in the development of a person is inextricably linked with educational methodology.*

***Kalit so‘zlar:** Muzika tárbiyası, metodika, muzika, dógerekler, ádebiyat, milliy mádeniyatımız, shıđıs alımları, tálım- tárbiya kóz-qarası.*

***Ключевые слова:** Музыкальное воспитание, методика, музыка, кружки, литература, национальная культура, учёные востока, взгляды на образование и воспитание.*

***Key words:** Musical education, methodology, music, course, literature, national culture, oriental scholars, educational theory.*

Insan tárbiyası kámalı, hár qanday jámiettiń eń aktual máselelerinen biri bolıp kelgen. Sebebi jámiettiń qalıplesiwi, rawajlanıwı, gúlleniwi sol jámiyettegi tárbiyasına baylanıslı.

Tárbiya bul shaxstı social ekonomikalıq islep chiđarıw qatnaslarına tayarlaw maqsetinde onıń ruwxıy hám fizikalıq rawajlanıwına úzliksiz túrde tásir etip barıwdan ibarat bolđan, úzliksiz

process. Sonday eken jaslarǵa tálim tárbiya beriw, olardı gárezsizligimizdi bekkemlew jolında jóneltiriwge zárúr mısál bolıp tabıladı. Gárezsiz Respublikamızda ruwxıyılıq hám mádeniyat máselelerine ayrıqsha itibar berip kelmekte.

Sonı atap ótiw kerek, Ózbekstanda insan ruwxıy ómirin qalıplestiriw maqsetinde muzıkanıń mádeniy turmısına tereńirek kirip barıwında, keń múmkinshilikler jaratılmaqta. Bunda «madaniyat va ma'rifat» gazetası xalıqaralıq mádeniy - bilimlendiriw orayı, baylanıslar kompleksi sıyaqlı dóretiwshilik mákemeleriniń qalıplesiwi, kompozitorlar awqamı hám jámiyettegi dóretiwshilik jılısıwlar «Ózbekstan vatanım manım» atı menen mámleketimizde ótkerilip atırǵan dástúriy tańlawlar mádeniy bilimlendiriwge baylanıslı reformalardı ámelge asırıwda metodlar qollanbaqta. Qádimgi hám bay tájiriyebege iye milliy muzıka mádeniyatı keleshegin ámelge asırıw, tálim tárbiya jumısları menen shuǵıllanıw maqsetinde ásirler dawamında rawajlanıp kelgenligin atap ótiw orınlı. Bunda, mekteplerde muzıka tálim-tárbiyası tikkeley ámelge asırılıwı zárúrligi, bul óz gezeginde mekteplerdiń iskerlik mazmunında insandı dúnyaǵa keliwinen kámal tawıp, pútkil omiri dawamında muzıka haqıyqiy mánistegi tárbiya quralı ekenligi, óz ańlatpasın tapqan.

Muzıkaniń sóz kórkem óneri hám ádebiyatı menen úziliksiz baylanısta úyrenilgenligi, muzıka teoriiyası hám ámeliyatı rawajlanıwında úlken úles qosadı. Shaxs kámalında muzıka tárbiyasın asırıw, álbette tálim metodikasına tikkeley baylanıslı bolıp tabıladı. Muzıka tárbiyası metodikası pán retinde bilimlendiriw sistemasına tiyisli bolıp óziniń bekkem ornına iye. Bul pán muzıka tárbiyası metodikası mazmunı,

metodların jáne de jetilistiriw maqsetinde onıń nızamlılıqların úyrenedi. Muzıka tárbiyası metodikası, tárbiya mákemelerinde estetika, muzıkatanıw, fiziologiya, psixologiya pánleriniń ulıwmalastırılǵan tájiriyeberlerine tayanadı. Muzıka tárbiya metodikası ásirese estetika, muzıkatanıw pánleri menen úziliksiz baylanısta. Estetika teoriiyası onıń metodikasınıń tiykarın qalıplestirse, tárbiyanıń mazmunı hám metodlarına tikkeley tásir kórsetedi. Oqıwshılardıń jırlaw iskerligindegi máselelerdi sheshiwde metodika, fiziologiya ilimiy izleniwlerine tayanadı. Muzıka tárbiyası metodikasınıń mazmunı, muzıka kórkem óneri hámde mádeniyatı, ósip kiyatırǵan jas áwlad ushın zárúrli ahmiyetke iye.

Metodikanıń pán retinde rawajlanıwı jámiyette bilimlendiriw hám muzıka kórkem ónerin rawajlanıp barıwı menen baylanıslı. Usılar menen birgelikte muzıka tárbiyası metodikası ulıwma principlerin ilgeri suredi. Bular kórkem sanalılıq hám texnikalıq rawajlanıw principlerinde iye, bul principler oqıwshılardıń muzıkalıq qabılıyetin rawajlandırıw, muzıkaǵa bolǵan qızıǵıwshılıǵın kúsheytiw, kórkemlikti tárbiyalawǵa qaratılǵan bolıp tabıladı.

Muzıka shıǵarmasın sanalı qabıl etiw, dóretpе mazmunın ashıwda hám oqıwshılardıń muzıkalıq tájiriyeberleri toplawda, olardıń ruwxıy dúnyasın bayıtıwda járdem beredi. Muzıka tárbiyası emotsional sanalılıq principini uyǵınlılıǵınıń kóbeyiwi arqalı tıńlanatuǵın shıǵarmanı durıs bahalay alıw múmkinshiliklerin rawajlandıradı:

-oqıwshılardıń muzıkaǵa bolǵan qızıǵıwshılıq talǵamları tárbiyalanıw barıladı. Kórkem hám texnikalıq basqısh principini, dóretpeni kórkem hám ańlatpalı atqarıw ushın maman kadrlar talap etedi. Oqıwshılar jırlawdıń, ilimiy tájiriyeberlerin iyelewlerine itibar beredi.

-Oqıwshılarda muzıkanın rawajlanıw principleri haqqındaǵı qıyalların qalıplestiriw, qábiliyetlerin rawajlandırıw nátiyjesinde olar taǵı bir márte muzıkalıq túsıniklerdi bilip aladı. Muzıkalıq tárbiya metodikası tárbiya processinde kóplegen faktorlarǵa baylanıslı ekenligin tán alıw talap etedi. Adamlardıń muzıkalıq mádeniyatı tekǵana mekteptin tásiiri astında qalıplespeydi. Úyde hám álbette dógerek átirap, ǵalabalıq xabar quralları pútın túrdegi social qurallar sistemasında úlken rol oynaydı. Muzıka tárbiyası metodikası tálim metodların shólkemlestiriwde hám pedagogikanın metodların ámelde islep shıǵıwda tomendegi qıyınshılıqlar payda boladı, atap aytqanda:

A) muzıka tárbiyası metodlarının mazmunı, sınaq hám atqarıwshılıqqa baylanısı.

V) oqıwshılarda muzıkalıq hám dóretiwshilik qábiliyetleriniń rawajlanıwı.

S) muzıkalıq qábiliyet hám dawıstın rawajlanıwı, muzıkanı seziwdin jas hám jeke tártiptegi ózgesheligi, qásiyetleri.

D) oqıwshılardıń fiziologiyalıq hám sanalıq rawajlanıwında muzıkalıq iskerliktin túrli formalarda paydalanıw múmkinshilikleri menen baylanıslıǵı.

Metodikanın wazıypalarına bolsa oqıw tárbiya procesin túrlishe qalıplestiriw, jáne de rawajlandırıw, muzıka sabaqlarınan tısqarı muzıka sabaqları, klasstan hám mektepten tısqarı jumıslarına dógerekler, bayramlar, kewil ashıw kesheleri kiredi. Muzıka tárbiyası metodikası, muzıka pánine jaqın bolǵan ádebiyat hám súwretlew kórkem óneri, tariyx penen baylanısqan halda úyreniwdi talap etedi. Bul bolsa oqıwshılardıń tárbiyasın har tárepleme nátiyjeli ámelge asırıwǵa zárúr qural bolıp xızmet etedi.

Muzıka tálim tárbiyasının maqset hám wazıypaların ámelge asırıwda sabaq jetekshi faktor esaplanadı. Sebebi muzıka,

oqıwshılardıń ǵalabalıq tárzde qızıǵıwshılıǵı, mektepte muzıka páni basqa pánlerden óziniń kórkemligi hám tásirliǵı, zawıq oyatıwı menen ajıralıp turadı. Eń áhmiyetlisi, muzıka balardıń aqıl, oy-órisin, ádep-ikramlıq sapaların qalıplestiriwde zárúr rol oynaydı. Muzıka aqıldı ótkirlep, oylawdı sharlaydı. Muzıka sabaqları hám shınıǵıwlarında oqıwshılar tárbiya hám milliy mádeniyatımızdı úyrenip, bilim dárejesin keńeytirip baradı.

Túp babalarımızdan Abu – Nasır Al Farabiy hám uyqasıqsız qara sóz benen jazılǵan kórkem shıǵarma, Al Farabiydin «bilimge qushtarlıq ideyalar sisteması»nda, bala shaxsın tárbiyalawda muzıka kórkem óneriniń roli maqseti hám wazıypaları ayrıqsha atap ótilgen. Bunda insan ómirinde muzıka álemi haqqında sóz etilip, «Ey muzıka álemi, elede sen barsañ, eger sen bolmaǵanda insannın jaǵdayı ne kesher edi»- dep shaqırıq qıladı. Oqımislı ulama Abu Ali Ibn Sinonın muzıkalıq bilimlendiriwge bolǵan kóz qaralarında hám muzıka shaxstın ruwxıy hám fizikalıq mádeniy tábiyatına tásir etiwshi qúdretili qural retinde tariyp beredi. Balada júdá jaslıǵınan baslap muzıka sezimlerin tárbiyalaw kerek, bul bolsa onın ruxıy jaǵdayın bekkemleydi degen ideyanı alǵa súredi. Abu Ali Ibn Sino belgili «Medicina nızamları» kitabında balanın keypiyatın kúsheytiw ushın eki nárseni qollanıw kerek. Biri balanı áste-áste shayqatıw, ekinshisi uyıqlatıw ushın ádet bolıp kelgen muzıkalıq háyiywlew bolıp tabıladı. Sol ekewin qabıl etiw muǵdarına karap balanın denesi menen geyde tárbiyaǵa hám ruxı menen muzıkaǵa bolǵan zárúrlilik dep jazǵan edi.

Solay etip ilimpazlar, oyshıllar muzıka tek insańǵa nátiyjeli tásir etiwshi qural, bálki óz mazmunı, jámiyettegi maqset hám wazıypalarına kóre ayrıqsha bir pán retinde járyalawǵa dáwirler ótip olardıń tar pikirlerin tálim- tárbiyada

rawajlandırıp, aytıp ótkeni sıyaqlı ǵalabalıq xalıq muzıka pedagogıkasınıń dúnyaǵa keliwinde tiykar boladı. Tálım tárbiya stilistikası mektepleri qáliplesip, rawajlanıp barmaqta. Házirgi dáwirde shaxs ruwxıylıǵın tárbiyalaw wazıypası mektepte muzıka tálım tárbiyası jumısların sapalı basqıshqa kóteriwdi talap etedi.

Búgingi kúnde muzıka, tálım tárbiyasınıń maqseti hám wazıypaları júdá zárúr. Muzıka tálım tárbiyasınıń maqseti hám áwladtı muzıka miyrasımızǵa miyrasxorlıq etetuǵın hámde ulıwmadúnyalıq muzıka miyraslarımızǵa miyrasxorlıq qıla alatuǵın jas qániygelerdi kámil insan retinde tárbiyalap jetkiziwden ibarat, onıń ushın hár bir oqıwshınıń muzıkaǵa bolǵan qáblyetin rawajlandırıp, muzıka kórkem ónerine mehir hám qızıǵıwshılıǵın asırıw muzıkadan zárúrli bilim hám ámeliy ilimiy tájriybeler sheńberin qáliplestiriw, qáblyetli oqıwshılardıń muzıkalıq rawajlanıwı ushın zárúrli shárt sharayatlar jaratıp beriw mektep muzıka tálimi tárbiyasınıń tiykarǵı wazıypası bolıp tabıladı.

Muzıka tálım tárbiyasınıń maqset hám wazıypaların ámelge asırıw, mekteptegi muzıka sabaqlarına tikkeley baylanıslı. Muzıka tálım tárbiyasınıń kontseptsiyasında mektepte muzıka pání basqa pánler qatarı ózine tán áhmiyetke iye. Muzıka tálimin sapalı basqıshqa kóteriw ushın mektepte teń huqıqlı pán esaplanadı. Bul bolsa házirgi zaman oqıwshısınan sabaq shınıǵıwlarına unamlı qatnasta bolıwı, oqıwshılar muzıkalıq iskerliklerin asırıwdı durıs shólkemlestiriw hám basqarıw aktivligin talap etedi. Muzıka sabaq shınıǵıwları retinde ayırıqsha ózgesheliklerge iye. Bul ózgesheliklerdi bolsa hár bir oqıtıwshi biliwi gerek.

Birinshiden, muzıka tariyxı teoriiyası atqarıwshılıqqa tiyisli túrli úlgilerden

ayırım shınıǵıwları, muzıka sawatı sabaqları, muzıka tınlaw, muzıka tálimi hám ádebiyatı, balalar muzıka ásbaplarında shertiw, ritmikalıq háreketlerdi orınlaw elementleri, muzıkada dóretiwshiler iskerliklerinen ibarat sabaqlar kiredi.

Ekinshiden, muzıka basqa kórkem óner túrлерinen óziniń ańlatpa quralları yaǵnıy «tili»menen pariq etedi. Eger kórkem ádebiyat sóz benen suwretleytuǵın kórkem óner menen, ayaq oyın kórkem háreketleri menen ańlatpalansa, muzıkalıq dawıslarınan payda bolǵan intonaciya jardeminen paydalanıladı.

Úshinshiden, muzıka balalarda aktiv ózgeshe tásir kórsetedi, unamlı kórsetpeler, ishki keshirmelerdi oyatadı. Ulıwma orta bilim beriw mekteplerinde muzıka mádeniyatı pání boyınsha programması bir sabaq ózinde tálimniń muzıka tınlaw, topar bolıp jırlaw, muzıka sawatqanlıǵı, balalar muzıka ásbapları hám ritmikalıq háreketlerdi orınlaw muzıka dóretiwshileri sıyaqlı basqıshlar bir biri menen baylanısp, bir pútin halda ámelge asırılıwı názerde tutılıwı gerek. Zamanagóy sabaqlardan muzıka, jetekshi iskerlik retinde áhmiyetli rol oynaydı.

Sebebi bul basqıshqa oqıwshılar iskerliginde kóbirek oyın bolıp turadı. Solay etip tálım hám tárbiyanıń maqset hám wazıypaları tolıqlıǵınsha ámelge asırılardı. Bul processlerdi ilimiy usıl menen jetekshi dárejede támiyinlew, milliy muzıka tálım mazmunın ańǵarıw sıyaqlı zárúr ilajlar, gúmansız muzıka tárbiya natıyjeliligin asırıwǵa múmkinshilik beredi. Bul bolsa muzıkani mektep turmısında oqıwshılar qalbinde keń orın iyelewi hám olardıń ruwxıy dúnyasın qáliplestiriwge nátiyjeli tásir kórsetedi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G.M.Sharipova, S.S.Kenjebaeva. «Muzikanı oqıtıw metodikası». T. 2020-j
2. V. I. Petrushin. «Muzikalnaya psixologiya». M. 1997-g
3. O. Fayziev. «Maktabda musiqaviy tarbiya». T. 1991-y
4. P. Xalabuzar, V. Popov, N. Dobrovolskaya. «Metodika muzikalnogo vospitaniya». M. 1990-g

Ma'mur Umarov

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik"
kafedrası professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada teatrshunos olim, davlat arbobi, Akademik Mamajon Raxmonov tavalludining 110 yilligiga bag'ishlangan xotiralar yoritilgan.

Kalit so'zlar: teatr, san'at, ustoz-shogird, talabalik, aktyorlik san'ati.

Oliy ta'lim tizimida dars beradigan ustozlarga havas qilgan shogirdlar uchun ularning erishgan maqomi doim namuna bo'lib kelgan. 1970-yilga kelib Teatrshunoslik fani shu darajada yuqori darajaga erishdiki, bu martaba sohani hamda uni egallaganlarni ulug'lik darajasiga olib chiqdi. Bu davrda Toshkent davlat teatr va rassomlik institutida Mamajon Rahmonov, Muhsin Qodirov, Toshpo'lat Tursunov, Teshaboy Bayandiyev, Satimboy Tursunboyev, Aleksandr Ribnik, Inoyatulla Po'latov, Tohir Islomov, Ikromjon Rahimjonov, Tamara Izrailova, Irina Gerjberg, Shahnoza Rahmanova kabi teatrshunos olimlar rahbar edi hamda "Teatr tarixi" fanidan dars berishardi.

O'zbekiston teatrlari ham bu davrda ijod pallasining yuqori pag'onasiga ko'tarilgan edi. Sababi- "Dramatik teatr va kino aktyorligi" kurslari uchun rejalashtirilgan "Teatr tarixi" fani quyidagi tartibda: 2-3 semestrda-"Rus teatr tarixi"; 4-5 semestrda-"Jahon teatr tarixi"; 6-7 semestrda-"O'zbek teatr tarixi" o'tilardi. Hamon esimda yuqoridagi darslarni avval-Tohir Islomov, so'ngra-Satimboy Tursunboyev, yakunida-Mamajon Rahmonov yuqori saviyada, zavq bilan tushuntirishga harakat qilishardi. Ularda

olimlik ilmiy darajasi borligi uchunmi yoki o'sha davr yoshlarida ilmga intilish mavjudligidanmi, o'qituvchilarda ustozlik maqomi yuqori ekanligini his qilardik. Shuning uchun bo'lsa kerak, bugun qo'limizga biron dramaturg asari tushsa, darhol ustozlar o'g'itlari esga tushadi. Masalan, davr mafkurasiga binoan, dast avval o'tilgan Rossiya teatrlari tarixi-aktyor Volkovdan boshlangani, tanqidiy realizm asoschisi Fonvizin bo'lgani, uni N.V.Gogol yuqori cho'qqiga olib chiqqani, realizm asoschisi A.P.Chexov ekanligi yoki sotsialistik realizm asos solgan M.Gorkiy ijodi bo'yicha imtihonlar topshirganimiz hamon esimda.

"Jahon teatr tarixi" fani esa qadimiy Gretsiya tragadeyilaridan boshlanib, Shekspir romantizmi, Moler, Galdoni, Lope de Vega komediyalari, Gyote, Shiller dramalari, Brext hamda Eduarde Filipponing sahna asarlari tahlili va ularni sahnalashtirgan mashhur rus rejissyorlari hamda bosh qahramon rolini ijro etgan aktyorlar ijrosiga ham ustoz Satimboy Tursunboyev urg'u bergani esimizda qolgan.

"O'zbek teatr tarixi" fanining ilmi, yoshi, maqomi, ulug' ustoz Mamajon Rahmonov tomonidan o'tilgani uchun hamon faxr bilan eslayman. Chunki, dars

o'zbek teatr tarixini avvaldan XX asr boshigacha bo'lgan davrni o'rganan olim tomonidan o'tilardi. Ta'lim-dastlabki tomoshalarda teatr elementlarining mavjudligi, ular asta-sekin an'anaviy teatrga aylangani, Qo'qon, Samarqand va Toshkentdagi ijodiy muhit Rossiya teatrlari gostrollari ta'sirida o'zgargani, jadidlar milliy teatr yaratgani, Xamza teatrini akademik maqomiga ega bo'lishi, Mannon Uyg'ur shakllantirgan o'zbek teatrining Respublika viloyatlaridagi teatrlarga ta'siri haqidagi ma'lumotlardan iborat edi.



1970-yillardagi ta'lim jarayonlarini eslab qolishimga sabab, kursning jurnalini ko'tarib olib, unga domlalar o'tgan ma'ruzalar nomini yozib, imzolab yurardim. Mamajon Rahmonov konservatoriya rektorligidan, teatr san'ati institutini boshqarishga o'tgach ijobiy o'zgarishlar boshlandi. Institutga malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash maqsadida Moskva hamda Leningrad teatr san'ati institutlarining ikki yillik "Oliy pedagogika kurslari"ga yoshlarni jo'nata boshladi. Qo'g'irchoq san'ati yo'nalishi bo'yicha Maryam Ashurova Leningradga jo'natildi. Bu shaharda o'z teatrini mashhur qilgan G.Tovstonogov mashhur

pedagog V.Katsman bilan hamkorlikda teatrlarga rejissyor hamda aktyorlarni tayyorlashni boshlagan edi. Ularning tajribasini o'rganishga Rustam Usmonov, Ulug'bek Zufarov, so'ngra Mahmud Rashidov jo'natildi. Moskva GITISining "Oliy pedagogikasi" kursiga Munavvara Abdullayeva, so'ngra Ma'mur Umarov jo'natildi. Ular ta'lim tizimiga qaytgach, Valixon Umarov oliy ta'lim beradigan Vaxtangov o'quv yurtiga o'qishga yuborildi. Toshkent teatr va rassomlik san'ati institutini yosh kadrlar bilan ta'minlagan ustoz Mamajon Rahmonov uzoqni ko'zlagan teatr san'atini yuksaltirishga harakat qilayotgan, jonkuyar rahbar bo'lganligini vaqt ko'rsatdi. Yuqorida qayd etilgan teatr san'ati pedagoglari yillar davomida o'z sohasi bo'yicha o'qitgan talabalar ustozlarining o'gitlarini amaliyotdagi ijodiy ishlari bilan namoyon qilib, yuqori maqomlarga ko'tarilmoqda.



Akademik Mamajon Rahmonovning ustozlik maqomi

yuksakligiga shogird sifatida falsafa fanidan kandidatlik ilmiy darajani himoya qilayotgan kuni guvoh bo'ldim. O'zbekiston milliy universitetining Falsafa fakultetida "Estetika" fanidan muallifning ilmiy ishi himoyasiga jamlanganlar barallasiga o'rinlaridan turishdi. Ular akademik Shermuhamedov raisligidagi himoya kengashi a'zolari edi. Himoyaga tashrif buyurgan Mamajon Rahmonovni, ya'ni akademikni-akademik Said Shermuhammedov kutib oldi. Ustoz himoya qilayotgan mavzuni "Mannon Uyg'ur estetikasi" deb nomlangani bilan himoya kengashi a'zolarini qutladi. Himoya yakunida rais bugun ilk bor himoyaga jamlanganlar orasida uch akademik qatnashganini e'lon qildi, ular san'atshunos M.Rahmonov, faylasuf S.Shermuhammedov hamda milliy diolektika akademigi A.Xojiyevlar edi. Yakunida barcha jamlanganlar akademik

Mamajon Rahmonovni qo'lini ko'ksiga qo'yib kuzatib qo'ydi. Tarixiy voqeaga guvoh bo'lgan shogirdi M.Umarovni sha'nini ko'kka ko'targan ustoz Mamajon Rahmonovning yuksak darajadagi maqomi saqlanib qoldi. Bugun o'zim ustozlik qilayotgan jarayonda Mamajon Rahmonovning kamtarligi, samimiyligi, yoshlarga beg'araz yordami, ma'suliyatli jarayonda yoningda yelkadosh bo'la olishi darhol esga tushadi va Yaratgandan ustozlik maqomida akademik Mamajon Rahmonov darajasiga ko'tarishini so'rayman. Ulug' va kamtarin ustozning ohirati obod bo'lsin.

AXBOROT

Joriy yilning dekabr oyida, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi raisi Akmal Nuridinov Janubiy Koreya Respublikasida safarda bo‘ldi. Safar davomida O‘zbekiston Badiiy akademiyasi raisi Akmal Nuridinov “Tasviriy san’at sohasida O‘zbekiston Badiiy akademiyasi va Kemyong universiteti o‘rtasida hamkorlik” mavzusida universitet professor-ustozlari va talabalarga ma’ruza qildi. Ma’ruzada bugungi o‘zbek tasviriy san’atida kechayotgan jarayonlar, o‘zbek rassomlari yutuqlari haqida, sohada tomonlarning muvaffaqiyatli amalga oshirib kelayotgan ishlari va ijodiy loyihalarini tilga olish barobarida, istiqboldagi aloqalarni yangi bosqichga ko‘tarishga qaratilgan rejalar haqida to‘xtalindi.



Tashrif davomida Kemyong universitetida, Akmal Nuridinovga mazkur oliygohning professorlik unvonini topshirish marosimi o‘tkazildi. Kemyong universiteti prezidenti Synn Ilhi janoblari mehmonni tashrifi bilan tabriklab, oliygoh hamda Badiiy akademiya o‘rtasida badiiy ta’lim, tasviriy san’atda hamkorlik aloqalarini rivojlantirish va mustahkamlash borasida O‘zbekiston Badiiy akademiyasi rahbarining katta hissasi borligini e’tirof etdi va professorlik ilmiy unvoni diplomini topshirdi.





**JURNAL O'ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI HUZURIDAGI
BADIY TA'LIM YO'NALISHLARIDA PEDAGOG VA
MUTAXASSIS KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH HAMDA
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH MARKAZINING
RASMIY WEB-SAYTIDA E'LON QILINGAN**



www.uzbamarkaz.uz